Аннотация. В данной статье рассматривается понятие фандрайзинга, его цели, порядок формирования и использования средств, описан ключевой механизм фандрайзинга, представлены известные фандрайзеры образования, описаны альтернативные источники финансирования некоторых сфер экономики Узбекистана, особенности меценатской деятельности в Узбекистане

Ключевые слова: фандрайзинг, эндаумент-фонд, целевое финансирование, государственные внебюджетные фонды, меценатство

Annotation. This article discusses the concept of fundraising, its goals, the procedure for the formation and use of funds, describes the key fundraising mechanism, presents well-known fundraisers of education, describes alternative sources of financing for some areas of the economy of Uzbekistan, features of patronage activities in Uzbekistan

Key words: fundraising, endowment fund, targeted financing, state extra-budgetary funds, patronage

Особенностью ситуации, сложившейся в настоящее время в образовании, является ограниченность финансовых ресурсов, обострение конкуренции на рынке образовательных услуг, динамичное изменение предпочтений потребителей и демографические изменения. В этих условиях перед современными вузами встает необходимость привлечения дополнительных источников финансовых поступлений для обеспечения поступательного развития и интеграции в международное образовательное пространство. Особое место среди них занимает привлечение благотворительной помощи – образовательный фандрайзинг. Понимание классического фандрайзинга может быть определено как деятельность некоммерческой организации, базирующаяся на ее уникальной миссии и стратегии, использующая эффективные и продуктивные способы получения ею ресурсов, необходимых для реализации ее программ и достижения стоящих перед ней целей, обеспечивающая желаемую удовлетворенность дарителю (источнику ресурсов) и имеющая конечным результатом укрепление благополучия общества в целом.

Цели фандрайзинга: получение необходимых ресурсов и удовлетворение дарителя; достижение целей организации и реализации ее программ; укрепление благополучия общества в целом.

Мировым лидером в области фандрайзинга и в сфере благотворительности являются США, на втором месте в мире в области фандрайзинга находится Великобритания. Страны континентальной Европы значительно отстают в сфере фандрайзинга не только от США, но и от Великобритании. В последние годы достаточно активно работу в данной сфере начал вести Китай. Различные страны мира не стремятся изобретать какую-либо свою модель фандрайзинга, т.к. американская модель доказала свою эффективность и эволюционировала на протяжении столетий, и фактически развиваются по стратегии догоняющего развития.

При разработке стратегии сбора средств необходимо реалистично оценивать, к каким источникам финансирования обращаться в том или ином случае и как подать свой проект в наиболее адекватной для конкретного донора форме. Чтобы процесс фандрайзинга был успешным, необходимо вести его постоянно и работать с самыми различными источниками средств.

Следует помнить, что фандрайзинг – процесс привлечения денежных средств и иных ресурсов учреждением с целью реализации определённого социального проекта. Средства могут поступать от частных лиц, коммерческих организаций, фондов, правительственных организаций.

Использование технологии фандрайзинга в учреждении предполагает поиск потенциальных источников финансирования, обоснование потребности в средствах и соотношение с интересами финансовых донаторов, формирование, поддержание и развитие связей с финансовыми донорами, формирование общественного мнения в пользу поддержки деятельности учреждения. Следует подчеркнуть, что фандрайзинг - это не выпрашивание денег. Выпрашивают милостыню, а организация или лицо, которое работает в образовательной сфере, нуждается не в подачках, а в пожертвованиях, сделанных осознано.

В образовательных учреждениях законными возможностями привлечения дополнительных денежных средств, иного имущества и услуг являются:

- предоставление платных дополнительных образовательных услуг;
- использование благотворительной деятельности граждан и организаций;
- заключение договоров дарения и пожертвования,
- участие в конкурсах и грантах,
- предоставление в аренду помещений ВУЗа.

Поступающие в ВУЗ внебюджетные средства и их расходование регламентируются соответствующими нормативно - правовыми актами.

Фандрайзинг в учреждении может быть «внутренним» и «внешним» по способу осуществления. Внутренний фандрайзинг – разработкой и реализацией поиска финансирования осуществляют сотрудники ВУЗа самостоятельно. Внешний фандрайзинг – это поиск финансирования, осуществленный посредством привлечения профессиональных консультантов по фандрайзингу. В данном случае в этой роли могут выступать как независимые эксперты, так специализированные фандрайзинговые фирмы. Для себя наиболее приемлемыми считаем технологии «внутреннего» фандрайзинга.

Ключевой механизм фандрайзинга – это эндаумент-фонд, или просто эндаумент (от англ. endowment – вклад, дар, пожертвование). Этот целевой фонд предназначен для использования в некоммерческих целях, как правило, для финансирования организаций образования, медицины, культуры. Он формируется преимущественно за счет благотворительных пожертвований или специальных целевых взносов. Отличием эндаумента от обычной благотворительной организации является строго целевой характер деятельности (обычно эндаумент создается для поддержки какой-либо одной организации, например, определенного университета) и нацеленность на получение дохода за счет инвестирования средств.

Самый известный в мире эндаумент – Нобелевский фонд – был образован в 1900 г. в соответствии с завещанием Альфреда Нобеля. К выдающимся образцам технологии эндаумента относят и созданный в 1965 г. в США Национальный фонд искусств (НФИ) – независимое общественное агентство, официально действующее от имени правительства США. НФИ располагает несколькими миллиардами долларов и выполняет функции отсутствующего в стране Министерства культуры. Он поддерживает культурные проекты во всех штатах – общая сумма грантов, выданных НФИ, достигает 4 млрд. долл.

Наибольшее развитие эндаументы получили в США. Первопроходцем в этой области является Гарвардский университет: первым взносом в его фонд целевого капитала стал небольшой участок земли, который в 1649 г. четыре выпускника Гарварда завещали Alma Mater. На сегодняшний день в университетских фондах по всему миру аккумулированы значительные средства. Так, совокупный целевой капитал, который сосредоточен в руках 25 вузов-лидеров по Шанхайскому рейтингу 500 ведущих университетов мира, оценивается суммой, превышающей 170 млрд. долл. При этом размер эндаумента колеблется от 172 млн. у Лондонского университетского колледжа в Великобритании, почти до 37 млрд. долл. у Гарвардского университета в США. Средняя доходность инвестиций эндаумент-фондов составляет около 10–11% годовых, примерно половина доходов реинвестируется, что при эффективном управлении целевым капиталом обеспечивает годовой прирост активов в пределах 1–2% в реальном выражении. Доходность эндаумент-фонда Гарвардского университета считается одной из самых высоких в США. За последние 10 лет его инвестиции приносили в среднем 15,2% в год. В целом же эндаументы обеспечивают западным вузам до 40–50% годового дохода, т.е. являются важнейшим источником финансирования их текущих нужд.

Например, Федеральный закон № 275-ФЗ Российской Федерации прописывает достаточно прозрачную структуру управления фондами целевого капитала и их активами; в нем закреплено, что фонды целевого капитала не должны платить налог на прибыль с доход от инвестиций. Однако пока закон не позволяет донорам получать налоговые льготы от пожертвований фондам целевого капитала и не дает им возможности делать взносы неденежными активами (например, в форме недвижимости). Закон ограничивает минимальный размер фонда в 3 млн. рублей и жестко регулирует процедуру управления активами. Фонды целевого капитала созданы в таких вузах России, как МГИМО, ГУ-ВШЭ, Российская экономическая школа (РЭШ), Финансовая академия при Правительстве РФ, Академия народного хозяйства при

Правительстве РФ, Санкт-Петербургский государственный университет (СПбГУ), Московская школа управления «Сколково», Тюменский государственный университет, Сибирский федеральный университет, Южный федеральный университет, Европейский университет в Санкт-Петербурге, Новосибирский государственный университет. Кроме того, для благотворительной поддержки образования в Южном федеральном округе создан фонд целевого капитала «Образование и наука ЮФО». Так, самый большой в образовании России эндаумент МГИМО сформирован в основном за счет трех выпускников – В. Потанина, А. Усманова и Ф. Шодиева, которые перечислили по 125 млн. руб. Фонд Финансовой академии оплачен М. Прохоровым и несколькими другими известными и богатыми выпускниками. Целевой капитал РЭШ сформирован за счет взносов 8 благотворителей, среди которых Благотворительный фонд «РЕНОВА», ООО «ЛебГОК-Продукт», ООО «ЛЕВИТ», Открытое акционерное общество «БАНК УРАЛСИБ», ОАО «Банк Москвы», А.И. Мельниченко, П.О. Авен и А.Е. Лебедев. Даже у крупных государственных вузов России эндаументы по сравнению с западными пока небольшие (1–15 млн. долл. США), а потому их значение как источника финансирования вузовского бюджета остается крайне низким.

С 1998 года в составе государственного бюджета Узбекистана консолидируются бюджеты четырех государственных целевых фондов с отражением их средств в специальных разделах "Доходы целевых фондов" и "Расходы целевых фондов" - это:

- внебюджетный Пенсионный фонд РУз;
- Государственный фонд содействия занятости;
- Республиканский дорожный фонд;
- специальный счет Государственного комитета РУз по управлению государственным имуществом и поддержки предпринимательства.

Внебюджетные фонды государства - это совокупность экономических денежных отношений по формированию, перераспределению и использованию финансовых ресурсов, привлекаемых государством для финансирования не включаемых в бюджет некоторых общественных потребностей и расходов на основе оперативной самостоятельности строго в соответствии с целевыми назначениями фондов.

С 2005 года Министерство финансов Узбекистана предусматривает в параметрах государственного бюджета отдельной строкой (во Внебюджетном фонде школьного развития при Министерстве финансов РУз) необходимые средства на выполнения мероприятий в соответствии с Программой развития школьного образования. В высшее образование направляются в основном гранты определенных фондов.

В Узбекистане приняты законы «О меценатстве» и «О благотворительности», которые описывают цели и принципы меценатской и благотворительной деятельности, гарантии и полномочия такой деятельности. Меценатская и благотворительная поддержка не может осуществляться за счет средств Государственного бюджета Республики Узбекистан. Получение меценатской и благотворительной поддержки не является основанием для сокращения государственного финансирования получателя меценатской поддержки, за исключением случаев, предусмотренных законодательством. Меценатская и благотворительная деятельность – добровольная, выбор ее целей – свободный. Государство поддерживает меценатов, в том числе налоговыми льготами и

преференциями. В частности, действующим Налоговым кодексом предусмотрены льготы в части благотворительности по налогу на прибыль юридических лиц, НДС и акцизному налогу при импорте (п. 1 ст. 159; п. 4 ст. 211; абз. 2 п. 3 ч. 2 ст. 230 НК). Кроме того, меценатам могут присуждать государственные или иные награды, увековечивать их имена. При этом, сам факт оказания поддержки и ее цели обнародуются только с согласия мецената. Для информирования общественности могут использовать СМИ и информационные ресурсы в Интернете. Но в этом Законе меценатская деятельность отражена только в области культуры и искусства, поддержка образовательных учреждений там не отражена. Если крупные успешные предприятия Узбекистана объединят свои усилия и создадут целевой фонд на поддержку образовательных программ, то они кроме повышения своего имиджа будут иметь льготы, снижающие налогооблагаемую прибыль, согласно п. 7 ст. 317 Налогового Кодекса, который предусматривает расходы, не подлежащие вычету при определении налоговой базы. К таким относятся расходы на осуществление благотворительной помощи, за исключением средств, направленных на оказание меценатской поддержки.

В плане стратегического развития Узбекистана существует сценарий № 3 – инновационный сценарий, который предполагает обеспечение долгосрочного инклюзивного и устойчивого экономического роста за счёт интенсивных факторов – роста производительности рабочей силы, ресурсов и инноваций, а также повышения качества госинститутов и улучшения бизнес-климата. Наибольшее отличие инновационного сценария от инерционного и энергосырьевого заключается в опережающем росте инвестиций в человеческий капитал, сферу ИКТ, науку. При этом показатели повышения эффективности экономики, как и прироста валового продукта, как правило, существенно отстают от прироста инвестиций в человеческий капитал, сферу ИКТ, науку. Для этого, уже начиная со второго этапа реформ, уровень финансирования образования должен сохраниться на уровне 7-8% от ВВП, при этом долю финансирования высшего образования необходимо повысить до 2%, уровень финансирования здравоохранения – 6%, а внутренние затраты на исследования и разработки должны подняться до – 3%, на науку – 1,3% ВВП, охват высшим образованием до – 40% населения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Теория и практика функционирования фондов целевого капитала в высшем образовании России: Сборник практических рекомендаций для участников Международной научно-практической конференции «Теория и практика функционирования фондов целевого капитала в России», МГИМО(У)МИД России, 27–29 апреля 2010 г./ под ред. Е.С. Бирюкова, Д.А. Дегтерева, А.В. Стельмаха. – М.: МГИМО, 2010. – 148 с.
2. Шаффт, Т. Путеводитель по фандрайзигу. Рабочая модель по привлечению спонсоров / Терри Шаффт. – М.: Вершина, 2006. – 256 с.
3. <https://www.norma.uz>
4. Lex.uz

SECTION: HISTORY SCIENCE

Saidjonov Akmaliddin Adhamjon o'g'li
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tayanch doktranti
(Tashkent, Uzbekistan)

**SOMONIYLAR DAVLATINING MARKAZLASHTIRISH SIYOSATI VA
BOSHQARUV TIZIMI**

Somoiylar o'z davlatida juda yaxshi yo'lga quyilgan hukmronlik tizimini o'rnatdilar. Davlat boshida juda katta vakolatlarga ega bo'lgan amir turar edi. Somoniylar davlatining ma'muriy tuzilishi quyidagicha bulgan: dastavval boshqaruv organi dargox (oliy hukmdor saroyi) va devon (davlat idorasi)ga bo'lingan. Mamlakatning ichki siyosatida amirning shaxsiy gvardiyasi katta rol o'ynagan. Bu gvardiya turk g'ulomlaridan saralanib olinar, uning boshliqlari katta-katta davlat mansablarini egallar edilar. Turk g'ulomlari bunday sharafga uzoq yillar sadoqat bilan xizmat qilishlari evaziga muyassar bo'lar edilar¹³.

Turk g'ulomining xizmat pog'onasidan ko'tarilish jarayoni muarrix va davlat arbobi Nizomulmulk (1018– 1092) ning mashhur «Siyosatnoma» asarida bayon etilgan. «Somoniylar davridayoq,— deb yozadi u,— shunday qoida mavjud edi. G'ulomlar mansab darajasi pog'onama-pog'ona, qilgan xizmatiga yarasha ko'tarilib borgan. Chunonchi, g'ulomni sotib olgach, u bir yil piyoda askar bo'lib xizmat qilar va zandoniy matosidan tikilgan qabo (kamzulga o'xshash ustki kiyim) kiyib saroy ahli qatorida yurar edi. Bular bir yilgacha xoh oshkora, xoh yashirincha otga mina olmas edilar. Sezib-bilib qolsalar u jazoga tortilardi. Bir yildan so'ng visoqboshi (3 g'ulomga bosh bulgan kichik komandir) hojib (gvardiyachi g'ulomlarning oliy mansabi) bilan uning xususida gaplashar, hojib unga yugani bilan turk otini, shuningdek oddiy kamar berishni buyurar edi. G'ulom yana bir yil ot ustida xizmat qilgach, unga qorajur (uzun shamshir) berar edilar. Xizmatining beshinchi yilida unga eng yaxshi egar, yuldo'z-yuldo'z qilib bezatilgan yugan, doroy matosidan tikilgan qabo, cho'qmor berar edilar: chuqmorni g'ulom kamarining halqasiga ilib olar edi. Xizmatning oltinchi yilida u anvoyi kiyim-boshlar olar, yettinchi yili 16 kishi sig'adigan chodir hamda o'z otryadiga 3 g'ulomni olar edi va uni visoqboshi deb atardilar. U kumush bilan bezatilgan qora kigizdan tikilgan qalpoq, ganja qabosini kiyar edi. Uning mansabi, obro'si, birkiritilgan g'ulomlari soni yil sayin oshib borar va u nixoyat dastlab xaylboshi (gvardiyachi g'ulomlarning hojibdan keyingi, ikkinchi mansabi), so'ngra hojib mansabiga sazovor bo'lar edi. U qanchalik obro'-e'tibor qozonmasin, qanchalik xizmat qilmasin, baribir 37 yil muddatdan keyingina uni viloyatlarga amir qilib tayinlar hamda unga yer-suv in'om etar edilar»¹⁴.

¹³ Ахмедов Б. Сомонийлар давлатининг тузилиши. – Т.: //Хаёт ва қонун. 1994. №3-92 б.

¹⁴ Низомулмулк. Сиёсатнома, - 87 б.

Saroydagi eng ulug' mansabdor hojibi buzrug (ulug' hojib) bo'lib, unga saroy ahliga ko'z-quloq bo'lib turish vazifasi yuklatilgan edi. Alohida xizmat kursatgan hojibi buzruglar ayrim tumanlarga hokim qilib tayinlanar edilar.

Hojibi buzrugdan keyin sohib haras (saroy soqchilari boshlig'i) turgan. Bu mansab umaviylar va abbosiylar davrida ham mavjud edi. U oliy hukmdorning farmonlarini ijro etuvchi shaxs bo'lgan. Bu haqda Nizomulmulk bunday deb yozadi: «Amiri haras mansabi hamma vaqt muhim mansablardan biri bo'lgan. Albatta, ulur hojib mansabi bundan mustasno. Amiri haras oliy hukmdorning farmonlarini ijro etuvchi bo'lganligi sababli, odamlar undan hukmrandan ko'ra ham kuproq qo'rqar edilar». So'ngra Nizomulmulk xalifa al-Ma'mun tili bilan bunday deydi: «Mening ikki amir harasim bor. Ularning har ikkisi erta tongdan to qorong'u tushgunga qadar odam boshini tanasidan judo qilish bilan band, [jinoyatchilarning] oyoq-qo'llarini chopib tashlaydilar, cho'qmor bilan urib zindonga tashlaydilar»¹⁵.

Dargohning xo'jalik ishlari bilan vakil shug'ullangan. «Hamma vaqt bu ish tepasida, – deb ta'kidlaydi Nizomulmulk, – mashhur va ishonchli odam turgan. Shoh oshxonasidan tortib, to may omborlari va podshoh otxonasidan doimo ogoh bo'lib, hukmdorniig saroyi, bola-chaqasi, shuningdek saroyga ta'lluqli kishilardan ko'z-quloq, bo'lib turuvchi shaxs; har oyda, balki deyarli har kuni, oliy hukmdorning kengashlarida ishtirok etgan, u bilan muloqotda bo'lgan va zarur paytda saroyga zudlik bilan yetib kelib, oliy maqomga zz fikrlarini izhor etgan hamda mamlakatda ro'y berayotgan voqyealardan uni xabardor qilgan»¹⁶.

Keyingi o'rinda xojayi bo'zurg (ulug' xoja) mansabidagi shaxs turgan. Xojayi bo'z urg saroy byurokratik apparatining boshida turgan. Bulardan tashqari, dargohda)har xil xizmatkorlar, masalan, eshikog'a, dasturxonchi kabi kichik mansabdorlar ham bo'lgan.

Byurokratik apparat Buxoro registoni atrofida joylashgan o'nta devon tomonidan boshqarib turilgan. Narshaxiyning ta'kidlashicha, ular quyidagilar: devoni vazir (ulug' vazir devoni), devoni mustavfiy (moliya ishlari devoni), keyingi vaqtlarda devoni rasoil yoki devoni insho deb atalgan devoni amir al-mulk (davlat tayanchi devoni), devoni sohib shurat (amir gvardiyasi boshlig'i devoni), devoni sohib barid (aloha xizmati devoni), devoni mushrif (amir nazoratchisi devoni), devoni ad-diyva (amirning shaxsiy muxklarini idora qiluvchi devon), devoni muxtasib (ko'cha va jamoa joylaridagi tartibotni tekshirib turuvchi devon), devoni vaqf, devoni qo'z zot (qozilar devoni). Shunga muvofiq mustavofiy, xojayi omid, sohib shurat, mushrif, muxtasib, qozi ul-quzzot va boshqa mansablar bo'lgan.¹⁷

Joylarda hokimiyat sipoqsolar (katta mulklarda) va hokimlar (mayda ma'muriy idoralarda) qo'lida bo'lgan.

Movarounnahr mustaqilligining barqarorligi, awalambor, markazlashgan mustahkam hokimiyatning qaror topishiga bog'liq edi. Buni yaxshigina anglagan somoniylar o'z tasarrufidagi ulkan mamlakatni boshqarishda dastavval ixcham davlat ma'muriyatini tashkil etadilar. U podsho dargohi va devonlar – markaziy hokimiyatdan iborat edi. Dargohda amir harami va qarorgohi hamda saroy a'yonlariyu navkar va xizmatkorlarining turarjoylari bo'lar edi.

¹⁵ Ўша асар, - 88 б

¹⁶ Низомулмулк. Сиёсатнома, - 90 б.

¹⁷ Эшов Б.Ж. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. – Т.: Янги аср авлоди, 2012. - 197-197 б.

Narshaxiyning ma'lumoti bo'yicha, Somoniylar davlati asosan devoni vazir, mustavfiy, amidal-mulk, sohibi shurat, sohibi muayyid, mushrif, mumallikayi xos, muhtasib, avqof va qazo nomlari bilan yuritiladigan 10 ta devonlar boshqaruvida idora etilardi. Ular orasida vazir devoni bosh boshqaruv mahkamasi hisoblanar va davlatning ma'muriy, siyosiy va xo'jalik tartiboti uning bevosita nazorati ostida tutib turilardi. Barcha devon boshliqlari vazirga tobe edi. Mustavfiy devoni xazina (moliya) kirim-chiqimlar; amidal-mulk – davlat hujjatlari va elchilik aloqalari; sohibi shurat – soqchiboshi, ya'ni harbiy, xususan, amirning muntazam turkiy saroy navkarlari, uning ta'minoti; sohibi muayyid – maktubot va axborot, ya'ni pochta; mushrif – saroy ishboshqaruvchisi; mumallikayi xos – davlat mulklari; muhtasib – bozorlardagi toshu tarozular, narx-navo hamda fuqarolarning mafkuras; qazo – adliya; avqof - masjid va madrasalarning vaqf xo'jaliklari bilan shug'ullanar edi¹⁸.

Nasr ibn Ahmad (914-943) davrida Buxoroning Registon maydonida podsho qasri qarshisida devonlar uchun saroy qurilib, davlat mahkamasi mana shu maxsus binoda joylashgan edi. Mahkama xizmatchilari faqat saroy ahli, ruhoniy va zodagon dehqonlardan bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga ular muayyan bilimlarga ega bo'lishi shart edi. Odatda, ular arab, fors tillarini puxta egallab olgan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan bir muncha xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan. Shubhasiz, bu o'rta asrlarning o'ziga xos amaldorlik madaniyati edi. Qadimiy an'analarga asoslangan bu madaniyat somoniylar davrida ancha-muncha boyitilgan edi.

Markaziy mahkama viloyatlardagi mahalliy boshqarmalar bilan doimiy aloqada bo'lgan. Viloyatlarda, maktubot va axborot (pochta) devonidan tashqari, barcha devonlarning vakillari bo'lgan. Viloyat devonlari, bir tomondan, mahalliy hokimga, ikkinchi tomondan esa markaziy mahkamaning tegishli devonlariga bo'ysunar edilar. Viloyat hokimlari ba'zan vazir deb yuritilardi. Ular sulolaviy xonadonga tegishli amirzodalar yoki sobiq mahalliy hukmdorlar hamda zodagon dehqonlardan tayin etilardi. Bulardan tashqari, har bir shaharda rais – shahar boshlig'i hamda muhtasib – nazoratchisi bo'lardi. Ularni hokimning bevosita o'zi mahalliy aslzodalar yoki ko'pincha oliy tabaqa ruhoniylarning nufuzli vakillaridan tayinlar edi. Mansabdorlarning xizmat haqi uchun davlatning yillik daromad-buromadi (byudjeti) ning deyarli yarmi sarf etilardi.

Shu bilan birga IX-X asrlarda yirik mansabdorlarning davlat oldidagi xizmati uchun yer va suvdan iborat katta-katta mulklar in'om qilina boshlaydi. Bunday mulklar «iqto», unga ega bo'lgan mulkdorlar «muqto» yoki «iqtodor» deb yuritilardi. Iqto tarzida esa ayrim viloyat, voha, rustoq (tuman) yoki shaharlar hadya etilgan. Iqto dastavval asosan oliy tabaqa zodagonlar; sulola a'zolari – amirzodalar va yirik mansabdorlarga in'om etilgan. Iqto mulklari avvalda bir umrga emas, balki ma'lum muddatga berilib, nasldan-naslga o'tkazilmagan. Iqtodorlar hadyaga berilgan mulklarga hali to'la egalik qila olmaganlar. Ular iqto yerlaridan tushadigan daromad yoki uning ma'lum qisminigina yig'ib olish huquqiga ega bo'lganlar xolos. Butun bir viloyat iqto qilib berilgan noib-vazirga ba'zan o'z nomi bilan chaqa-pul zarb etish huquqi ham berilar edi. Bu, shubhasiz, o'z navbatida markaziy hokimiyatni kuchsizlantirib, mahalliy hokimlarning boshboshdoqlik harakatlarining kuchayishiga olib kelar edi¹⁹.

¹⁸ Наршахий. Бухоро тарихи, - 56 б.

¹⁹ Муҳаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи. - Т.: Фафур Фулом нашриёти, 2004, -102 б.

Movarounnahr mustaqillikka erishib, Somoniylar davlatining qaror topishi va uning ravnaqida islom dini ruhoniylarining hissasi katta bo'ldi. Shu boisdan ularning obro'si oshib, poytaxt Buxoro Sharqda islom dinining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Shaharlarda ko'plab ibodatxonalar, shu jumladan, jome' masjidi, xonaqoh (g'aribxona) va namozgoh (iydi ramazon va iydi qurbon ibodatlari o'qiladigan sajdagoh)lar bino qilindi. Xuddi shu davrda musulmon Sharqidagi ilk madrasalardan biri Buxoro shahrida qad qo'tardi. Buxoroning qadimiy madrasasi shaharning Darvozai Mansur mahallasida xon hammomining yonida joylashgan edi.

Mamlakat ma'naviy hayotining asosi hisoblangan islom mafkurasiga bu davrda «ustod» deb atalgan din va ilm peshvolari rahnamolik qilardi. Keyinchalik bu nom tark etilib, din peshvolari va islom ulamolarining rahnamosi «shayxulislom» nomi bilan yanada ulug'lanadi. Ustoddan keyin «xatib»lar turardi. Somoniylar islom mafkurasining rivojiga katta ahamiyat beradilar. Masjid, madrasa, xonaqohlar qurish uchun maxsus joylar va ularning sarf-xarajati uchun katta-katta mulklar ajratilib beriladi. Natijada diniy muassasalar tasarrufidagi yerlar kengayib, yangi turdagi diniy-vaqf xo'jaligi tarkib topadi. Masalan, Narshaxiyning yozishicha, Afshona qishlog'ining ekin yerlari atrofidagi yaylovli biyobonlar Ismoil Somoniy tomonidan Buxoro madrasasining talabalariga vaqf qilib beriladi. Shuningdek, amir Registon maydoniga tutashgan va Dashtak deb shuhrat topgan keng qamishzor yerlarni Hasan ibn Muhammad Tolut ismli mulqdor arab lashkarboshidan 10 ming dirhamga sotib olib, Buxoro shahrining jome' masjidi vaqfiga qo'shib beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin nima sababdan va qanday yo'l bilan masjid va madrasalar tasarrufida katta-katta yer va mulklar to'planishi hamda vaqf xo'jaligining tarkib topishi to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'dish uchun keltirilgan misollarning o'zi ham kifoya qiladi.

Somoniylar tashqi va ichki dushman xurujlaridan mamlakatni muhofaza qilish masalasiga katta z'tibor beradilar. Xususan, Ismoil Somoniy yaxshi qurollangan harbiy qo'shinlar va maxsus muntazam saroy soqchi navkarlar qismini tuzadi. Muntazam soqchilar oliy dargoh va shaxsan amirni hamda uning haramini qo'riqlash uchun turk g'ulomlaridan tuzilgan edi. Turkiston va Movarounnahr harbiy xizmatchi, mohir chavandoz turk o'smirlarini qadimdan doimiy ravishda voyaga yetkazib kelgan bo'lsa ham, ammo faqat somoniylargina turk yigitlarini birinchilar qatorida saroyning shaxsiy sho'rati safiga tortgan edilar. Saroy sho'ratiga qabul qilingan o'spirin turk g'ulomining harbiy xizmati ma'lum muddatda va qat'iy belgilangan tartibda o'tar edi. Xizmatning birinchi yili bo'zdan kiyim kiygan piyoda, ikkinchi yili yuganlangan otliq askar xizmatini bajarar edi. Uchinchi yili beliga qora cho'rin kamar bog'lanib, beshinchi yilga borganda u yaxshi kiyim-kechak va yulduzli yuganni olishga muyassar bo'ladi. Agarda xizmat davrida g'ulom nojo'ya harakatlar qilmagan bo'lsa, yettinchi yili unga «visoqboshi», ya'ni «chodir boshlig'i» degan unvon berilar edi va o'zi bilan qo'shib hisoblaganda 4 nafar askarga u boshliq bo'lardi. Bunday unvonga erishgan g'ulom kumush ip bilan tikilgan qora rangli bosma namat qalpoq va qimmatbaho ganjaviy etik kiyib yurardi. G'ulomlar orasida eng qobiliyatli va uzoq yillar xizmat qilgan ayrim navkarlar «haylboshi», ya'ni otliq qo'shin boshlig'i, so'ngra esa «hojib» degan lavozimga ko'tarilar edi. Hojiblarning boshlig'i «hojib ul xujob» yoki «hojib ul buzruk» deb yuritilgan. Bunday unvon Somoniylar davlati saroyidagi oliy unvon hisoblanar edi. Hojiblar, ayniqsa, hojib ul xujob saroyda katta nufuzga ega edi. U saroyda turar va dargohning ishlarini boshqarar edi. Shu bilan birga u butun turk hojiblarining boshlig'i hisoblanar edi. Somoniylar muntazam soqchi qo'shinidan tashqari, ozod mehnat ahlidan tuzilgan harbiy

qo'shinlarga ham ega edilar. Harbiy qo'shinlar va ularning ta'minoti bilan «ariz» boshliq «devoni ariz» deb atalgan maxsus mahkama shug'ullanar edi. Ariz qo'shinlarga maosh berar, uning intizomi, yarog'-aslahasi, oziq-ovqati va otlarining yem-xashagi bilan shug'ullanar edi. Qo'shinlarga xizmat haqi har 3 oyda, ya'ni yiliga 4 marta to'lanar edi²⁰.

Shunday qilib, IX–X asrlarda Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar davlati tashkil topdi. O'rta asrlar zamonining bu yirik davlatini boshqarishda hukmdor xonadon Sharqning qadimiy davlat boshqaruvi an'alariga suyanib, muntazam soqchi armiya va kuchli harbiy qo'shinlarga ega bo'lgan markazlashgan boshqaruv mahkamasini tashkil qildi. O'rta asrning bu yirik davlati o'zining boshqaruv tizimi jihatidan, shubhasiz, O'rta Osiyoda o'rta asrlar davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyoti tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

²⁰ Муҳаммаджонов А.Р. Ўзбекистон тарихи. Т.: Ғафур Ғулум нашриёти, 2004, -105б.

Ulug'ova Mug'niyo
SamDU "Tarixshunoslik va manbashunoslik"
kafedrası magistranti
(Samarkand, Uzbekistan)

BUXORO AMIRLIGIDA JADID MAKTABLARI RIVOJINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligida jadid maktablari rivojining o'ziga xos xususiyatlari tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Buxoroyi sharif, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifati, «Tarjimon» gazetasi, Ahmad Donish, Abduqodiriy Shakuriy maktabi, Ahmadjon Hamdiy, Abdulvohid Munzim, Hamidxo'ja Mehriy, Sadridii Ayniy, «Turon» gazetasi.

Аннотация. В данной статье представлена ценная информация об истории особенностей развития джадидских школ в Бухарском эмирате.

Ключевые слова: Бухара Шариф, образование, духовность и просвещение, газета "Тарджимон", Ахмад Дониш, школа Абдукодирий Шакури, Ахмаджон Хамди, Абдулвахид Мунзим, Хамидходжа Мехри, Садридии Аини, газета "Турон".

Annotation. This article provides valuable information about the history of the peculiarities of the development of the Jadid schools in the Bukhara Emirate.

Key words: Bukhara Sharif, education, spirituality and enlightenment, "Tarjimon" newspaper, Ahmad Donish, Abduqodiriy Shakuri school, Ahmadjon Hamdi, Abdulvahid Munzim, Hamidkhodja Mehri, Sadridii Aini, "Turon" newspaper.

Necha-necha asrlar davomida Buxoro musulmon olamining ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifati, ilm-fan o'chog'i bo'lib qolgan tarixdan ma'lum. XX asr boshlarida musulmon olamida mashhur bo'lgan «Sho'ro» jurnalining muharriri, ulug' ma'rifatparvar Rizoiddin Faxriddin o'zining ko'p jildlik «Asar»ida Buxoroyi sharifda ta'lim olgan necha o'nlab tatar mutafakkirlarini nommanom sanab o'tadi: Abdurahim O'tiz Emani, Abunavr Qursaviy, Shihobiddin Marjoniy, Abdumanih Bistaviy... Ammo Rizoiddin Faxriddin XIX asrdagi Buxoroni eskilik va sxolastikaning o'chog'i sifatida keskin tanqid etadi: «Xalqimizning Buxoroga borib tahsil eta boshlaganlariga endi o'n yildan oshdi. Shu muddatda o'z iste'dodlarini saqlab qaytuvshilari juda oz bo'ldi. Kitob deboshalari, sharh va hoshiyalar, ma'nisiz bahslar o'qib, ko'pining iste'dodi shu Buxoro maktablarida halok bo'ldi. Bizga esa iste'dodsiz gavdalari qaytib keldi. Bu gavdalar xalqimizning ortga ketuvlariga xizmat qirdilar».

1904 yilda Rossiyaning Yaponiya bilan bo'lgan urushda engilib mustamlaka Turkiston o'lkasida ham xalq ahvolining keskin og'irlashuviga sabab bo'ldi. 1905 yil Rusiyadagi inqilobiy voqealar Buxoro amirligiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. 1908 yil yoz faslida Ismoilbey Gasprali ikkinshi marta Buxoroga kelib, bu safar ziyolilar bilan ushrashdi, maktab va madrasa islohot masalasiga alohida e'tibor berdi. Buxoro amirligi hududid ham «Tarjimon» gazetasi keng tarqala boshladi, «usuli savtish metodiga asoslangan tatar maktablari ham birin-ketin ochila boshladi. Shu paytdan boshlab Buxoroda ham «jadid» va «qadi» nizolari boshlandi.

Ahmad Donish vafotidan keyin uning muosirlari, shogirdlari va hammaslklari Sharif Maxzum, Inoyat maxzum, Abdulmajid qori Zufunun, Abdulvohid Munzim, Sadridin Ayniy boshqalar maktab va madrasa islohoti borasidagi qarashlarin: amaliyotda davom ettirdilar.

Buxoro amirligi hududida dastlabki «usuli savtiya» - usul jadid maktablarining ochilishi Sadridin Ayniy va Mirzo Abdulvohid Munzim nomlari bilan bogliq. Sadridin Ayniy ma'lumotlariga ko'ra, Buxoroda tatar muallimlari ochgan usuli jadid maktablari mavjud edi. Ayniy va Munzim ushbu tatar maktablaridagi o'qitish usullarini o'rganadilar va o'z maktablariga tatbiq qiladilar. «Shunday qilib, 1326 yil hijriyda shavvol oyining o'nida(1908 yilning oktyabrida) Buxoro shahrining ichida Darbozai Sallohxona guzarida Mirza Abdulvohid uyida tojik tilida birinchi martaba buxoroliklarga maxsus usuli jadida maktabi ochdik. Bu maktabda ikki oy muddatida o'quvshilarning adadi 12 taga etishdi. Lekin ta'lim tartibi nihoyat darajada buzuq va bizning barchamiz usul va qavoidlan (yangicha o'qitish qoidalaridan) xabarsiz edik. Ishimiz ta'lim va isloh o'ga bilan yonmoqda edi».

Maktabdorlar Mirza Abdulvohid Munzim, Sadridin Ayniy Ahmadjon Hamdiy Buxoroda faoliyat ko'rsatayotgan tatar muallimi Xolid Burnashev maktabiga boradilar, ta'lim qoidalaridash tortib, darsxona tartibigacha, o'qitiladigan ilmlardan tortib,; kitob va darsliklarigacha tanishadilar, ma'lumotlar oladilar. 1908 yil Buxoroda ilk bor tashkil etilgan «Birodari Buxoroyi sharif» xayriya shirkatining topshirig'iga binoan Sadridin Ayniy Samarqandga keladi va bir necha yillardan beri jadid maktabi ochib, faoliyat ko'rsatayotgan Abduqodiriy Shakuriy maktabi, uning o'qitish usullari bilan tanishadi. A.Shakuriy S.Ayniyga usuli savtiya maktablari uchun Ismoilbei Gaspralining «Xo'jai sibyon»iga o'xshagan darslik-alifebsi yaratishni maslahat beradi. Ushbu usuli savtiya maktablari uchun kitoblar-darslik va qo'llanmalar juda zarur edi. S.Ayniy A.Shakuriy taklifiga amal qilib, «Birodari Buxoroyi sharif» shirkatining muassisligida usuli jadid maktablari uchun «Tahzib us-sibyon» («Pokiza bola») qiroat darsligi (o'qish kitobi)ni yaratdi, kitob 1909 va 1917 yillarda ikki qatla nashr qilindi. S.Ayniy va A.Munzim maktabi ancha muvaffaqiyat qozondi, o'quvchilar soni kun sayin ortib bordi.²¹ 1909 yilning oktyabrida Buxoro tarixida birinchi marta ushbu maktabda o'quvchilardan imtihon olish tantanasi bo'lib o'tdi. Yosh-yosh bolalar berilgan darslarni burro-burro o'qidilar, domlarning savollariga bulbulday javob berdilar. O'quvchilarning bilimidan, maktabning tartib-qoidalaridan imtihonda qatnashganlar juda mamnun bo'ldilar, ma'rifatli boylar maktabni durustroq binoga ko'shirish haqida fikr bildirdilar. Hatto, mufti domla Ikrom mudarrislarni, eski va yangi maktabdorlarni, imtihon ahlini, mullalarni bu ulug' voqea bilan tabrikladi. Buxoroning ochiq fikrli keksa ziyolilaridan to'qson yasharli Bo'riboy afandi ko'ziga yosh olib, majlis ahliga shunday murojaat qildi: «Men umidvormanki, o'n yilgacha Buxoroda inqilob voqe' bo'lur, vatan bu kungi razolat va safolatlardan qutulur. Esizki, u kunni men ko'ra olmayman, siz yoshlar, ko'rsarsiz. Ming qatla shukurkim, ishning boshlanganini ko'rdim».²²

Bu ulug' xayrli ish ham necha-necha o'n yillar davomida taraqqiyot ildiziga bolta urib kelayotgan, millatni jaholatga, qorong'ulikka sudrayotgan, mustamlakachilar qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qolgan mutaassiblar – «qadimchi»larning keskin qarshiligiga uchradi. Birinchi usuli jadid maktabi Buxorodagi Rossiya elchixonasi xodimlarining aralashuvi bilan yopildi. Bu ishda

²¹ Ayniy Sadridin. Buxoro inqilobi tarixi ushun materiallar. Asarlar, 8 tomlik, 1-tom. T. 1SH63.. 210-bet.

²² Ayniy Sadridin. Yuqorida tilg'a olingan asar. 233-bet.

Rossiya hukumati oxrankasining yashirin a'zosi, qozonlik tatar Mulla Qamar domla hamda Rossiyaning Buxorodagi agentligi xodimi, poraxo'rlikda nom shiqargan Shulga ismli kimsa katta faoliyat ko'rsatdi. E'tiborli tomoni shundaki, birinshi usuli jadid maktabining Buxoroda ta'qib ostiga olinishi, uning yopilishi, maktabdorlarning quvg'in qilinishi Rossiya imperiyasidagi turkiy qardoshlar gazeta va jarnallarida aks sado berdi. «Mulla Nasriddin» hajviy jurnali Buxoro mutaassiblarini fosh etuvchi hajviy rasmlar va maqolalar e'lon qildi.

Usuli jadid maktabdorlari bunday to'siqlar, ta'qib va tazyiqlardan cho'chimadilar, ular o'z faoliyatlarini doirasini kengaytirib bordilar: Toshkent, Samarqand, Farg'ona vodiysi shaharlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutafakkirlar bilan aloqa» bog'ladilar, Qrim, Turkiyaga talabalar yuborish, o'z saflarini o'sib kelayotgan bilimli yoshlar hisobiga mustahkamlashga kirishdilar. Buxoroning ilg'or kushlarini birlashtirish ushui jamiyat kerak edi. 1909 yilda Buxoro jadidlari: Ahmadjon Hamdiy, Abdulvohid Munzim, Hamidxo'ja Mehriy, Sadriddii Ayniy, Xoja Rofe', Mukammal Burhon «Tarbiyai atfol» («Bolalar tarbiyasi») nomli yashirin jamiyat tuzdilar. Bu jamiyatning sa'yi harakati bilan usuli jadid maktablari yana birin-ketin ochila boshladi. Jamiyat nizomida siyosiy masalalar o'z ifodasini topmagan bo'lsa-da, unda Buxoro amirligi siyosiy tuzumini isloh qilish, davlat ma'muriyatiga ilg'or yoshlardan kiritish va shu yo'l bilan davlat siyosiy tuzumida ilg'or o'zgarishlar yasash ko'zda tutilgan edi. Jamiyatning birlamshi masalasi Buxoro o'qish muassasalarini tubdan isloh qilish edi. Buxoro eski maktablarini isloh qilish ishi amalda boshlangan bo'lsa-da, oliy o'quv yurti hisoblangan madrasalar islohi boshlanmagan, ular ilmi malakali mutaxassislar tayyorlashdan yiroq edi. Shuning ushuv «Tarbiyai atfol» jamiyati iqtidorli yoshlarni Orenburg, Ufa Qozon, Bog'shasaroy, Istanbul kabi shaharlarga o'qishga yuborishni birinshi vazifa sifatida belgiladi. Buning uchun mablag' kerak edi. Xalq istiqboli, ma'rifati uchun jon kuydiruvchi mulkdorlar ham, iqtisodiy yordam beruvchi ziyolilar, davlat arboblari hai topildi. Jamiyatning katta sa'y-harakati natijasida uni dastlabki yiliyoq bir guruh yoshlar Istanbulga o'qishga yuboridi. Sadriddin Ayniy bu haqda quyidagilarni yozadi: «Ikmloli tahsil uchun Usmonxo'ja Polatxo'ja o'g'li (1878 – 1968), uning birodarlari Atoxo'ja (1894-1938), Mazhar Mahzum Burhon Mahzum o'g'li Abdurauf Fitrat, Muqimbek Istanbulga safar qildilar. Fitrat mazkur talabalarning eng iste'dodlisi va eng fozili edi».

Turkiyaga o'qishga kelgan yoshlar Istanbulda Abduraf Fitrat boshchiligida «Tarbiyai atfol» jamiyatining «Buxoro ta'mili maorif jamiyati» nomi bilan sho'basini ochdi. Bu sho'baning asosiy vazifasi Buxoro va Turkistondan Turkiyaga o'qishga kelgan yoshlarga ham iqtisodiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatish edi. 1912 yilga kelib Istanbul o'quv yurtlarida tahsil olayoggan buxorolik va turkistonlik talabalar soni o'ttizga etdi.

Buxoro jadidlarining, «Tarbiyai atfol» jamiyatining o'z oldiga qo'ygan ulug' maqsadlaridan yana biri o'z matbuot organiga ega bo'lish edi. 1905 yilgi rus inqilobi Rossiya imperiyasini vahimaga soldi, Nikolay podshoh bir oz chekinib, 17 oktyabrda Monifest e'lon qilishga majbur bo'ldi. Ushbu manifestga binoan demokratik islohotlar bilan bir qatorda, matbuot erkinligi rasman e'lon qilingan edi. Bundan foydalangan Turkiston jadidlari «Taraqiiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Tujjor», Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona» kabi qator gazetalar nashr qildilar. Ular Buxoro mutafakkirlariga ham kuchli ta'sir ko'rsattan edi. Jamiyatning sa'y-harakati bilan 1912 yil 11 martida tojik tilida «Buxoroyi sharif», 1912 yil 14 iyuldan o'zbek tilida «Turon» nomli gazeta nashr qilina boshlandi. Bu ikki nashrga nafaqat Buxoroda, balki butun Turkiston o'lkasida ham katta e'tibor qozondi. 1912 yil sentyabrdan «Turon» gazetasi

muharririyati Istanbul dorulfununi bitirib kelgan G'iyos mahzum Husayniy qo'liga o'tdi. Gazeta endi haftada 3 marta muntazam chiqib turdi. Bu ikki gazeta ma'rifat ahliga kushli ta'sir ko'rsatdi, ilm-ma'rifat yo'lini mash'al kabi yoritdi. Buxoroning hamma guzarlarida yangi maktablar qayta ochila boshladi, bunga asosiy sabab shu ikki gazeta bo'ldi. Bu hol mustamlakachi ma'murlarga ma'qul emas edi, gazetalarni yopish uchun esa sabab topa olmas edi. Bunday vaziyatlarda ular mahalliy hukumat nomidan ish ko'rar edilar. 1913 yil 2 yanvarda Buxorodaga rus elchixonasidan uchinshi darajali amaldor Petrov imzosi bilan shunday farmoyish keldi: «Buxoro amiri janobi oliyning xohishlari bilan ushbu kundand e'tiboran «Buxoroyi sharif» va «Turon» gazetalari nashri to'xtatildi Rossiya hukumati Buxoroda nafaqat amirlik davlat tuzumi islohotiga, hatto maktab va madrasalar islohotiga ham tish-tirnogi bilan qarshi edi, shu bilan birga, omma o'rtasida amirga qarshi nizo uyg'otish uchun kurashar va bu bilan o'zini «oppoq» qilib ko'rsatishga urinar edi.

1913yilning bahorida Istanbulda o'qiyotgan bir guruh yoshlar—Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'gli, Atoxo'ja, Fitrat, Homid-xo'ja vatanlariga qaytib keldilar. Ularning sa'y-harakati bilan «Ma'rifat kutubxonasi» va «Barakat shirkati» ochildi. Bu kutubxonalarning asosiy maqsadi «usuli savtiya» maktablarini kitoblar, darsliklar bilan ta'minlash edi. Shu maqsadda jadiya ziyolilari Turkiyada tahsil ko'rayotgan buxorolik yoshlar bilan aloqa bog'ladilar: har bir yangi chiqqan kitoblar, darsliklar, Tatariston, Qrim, Ozarbayjonda chiqadigan nashrlar kutubxonaga kelib turdi. 1913 yilda Homidxo'ja va Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'gli Buxoroda, Atoxo'ja va Fitrat Shahrisabzda maktab ochdi, maktab ishlari ancha rivoj topdi. Usmonxo'ja maktabida 200 nafar, Homidxo'ja maktabida 100 dan ortiq o'quvchi ta'lim ola boshladi. O'qituvchilarga ayniqsa, «usuli savtiya» metodini biladigan o'qituvchilarga ehtiyoj nihoyatda ortdi.

Jadid mutafakkirlari ilm-ma'rifat yo'lida qanchalik sa'y harakat qilmasinlar, ularning faoliyati Buxoro sharoitida shunshalik qattiq qarshiliklarga ushradi, hatto ular aziz aaliyolarini xavf ostiga qo'yib islohot ishlarini amalga oshirdilar. Jadidshilik harakatining ashaddiy dushmanlaridan bo'lmish Burhoniddin Buxoro qozikaloni mansabini egallagash, dastlabki harakati «usuli jadid» maktablarini yopish bo'ldi. «Usuli jadid» maktablarining birinchi bor 1909 yilda yopilishida va bu maktablarning bunyodkorlari Sadriddin Ayniy va Mirzo Abdulvohid Munzimning Buxorodan quvg'in qilinishida ham shu Burhoniddiy bosh-qosh bo'lgan edi.

Buxoro hududida usuli jadid maktablarining keng qulosh yozishida ayniqsa Mulla Ikrom (1848 - 1928)ning xizmatlari katta bo'ldi. Bu inson hali jadidshilik harakati Buxoroga kirib kelmasdan ansha oldin Ahmad Donishning islohotchilik g'oyalari ta'sirida bo'lgan, bir necha bor Turkiyada bo'lgan, u erdagi ta'lim-tarbiya tizimi bilan chuqur tanishgan, usuli savtiya metodini o'rgangan, Buxoro ulamosi o'rtasida katta mavqe'ga ega bo'lgan mudarris edi. U bilan hatto usuli jadid maktablarininya ashaddiy dushmani, 1910-1920 yillarda Buxoroda qozikalon vazifasini bajargan Burhoniddin ham hisoblashishga majbur edi.²³

1914 yil 4 iyulda Burhoniddin qozikalon jadid maktablarini badnom qiluvchi va bu maktablarni tezda yopishga qaratilgan mazmunda amir Olimxonga ariza yozadi. Shu sabab usuli jadid maktablari ikkinchi marta yopildi. Birinshi jahon urushi yillarida «usuli savtiya» maktablari soni birmuncha ko'paydi, maktablar islohoti masalasi yana ko'tarildi. Buxorodagi rus elshixonasining boshlig'i B.V. Miller, elshixona mas'ul xodimlari P.P. Vvedinskiy, Shulga va

²³ Rustam Sharipov «Trukiston jadidshilik harakati tarixidan». T. «O'qituvshi», 38-bet.

Buxoroda Rossiya polisiyasi boshlig'i Vilman islohotchilarga qarshi ochiq kurashga o'tdilar. Ayniqsa, Vilman polisiyashilar bilan birga xohlagan buxorolikning uyiga kirib, islohotchilarni qidirar, tintuv o'tkazar, odamlarga zulm qilar edi.

1917 yil fevral inqilobidan keyin Buxoro amirligi hukmronligini saqlab qolish uchun birmuncha islohotga rozilik bildirgandek harakat qildi. Shu munosabat bilan 1917 yil 7 aprel kuni «Arki oliy»da amirning oliy farmoni e'lon qilinli Farmoni oliyga bag'ishlangan katta yig'inda Samarqanddan buxoroliklarni muborakbod qilib, Turkiston jadidchilik harakatining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy ma'ruza qildi. Ertasi kuni Buxoro jadidshilik harakati namoyandalari islohotchilar qamoqqa olindilar: S. Ayniy va Mulla Nazrullo Lutfiy 75 tayoq jazosiga hukm qilindilar. Mulla Nazrullo Lutfiy ushbu jazo tufayli halok bo'ldi. Bu mash'um voqea munosabati bilan hamdardlik izhor qilgan yoru birodarlarga S. Ayniy «Vaqt» gazetasi orqali minnatdorshilik bildargan edi: «Buxoroning ma'lum hodisalari vaqtida Buxoro hukumati tarafidin 75 tayoq bilan urilgan o'lim Kogon hastaxonasiga keltirilub o'runlashtirish munosabati ila har tarafdin tanish-bilish, do'st-oshnolarim maktush ila iyodat qildilar. Bu muhtaram zotlarning qayg'usina xususiy javob yozishga iqtidorim erishmaganligi ushun samimiy tashakkurlarimni arz qilurg'a mazkur gazetangizning vositasi bo'luvini o'tinaman. Ehtiram ila mudarris S. Ayniy. Yangi Buxoro, hastaxonasi Jadidshilik harakati Buxoro amirligida Turkiston o'lkasiga nisbatan kech vujudga keldi. Buning ob'ektiv sabablari Buxorodagi mutaassiblik va uni rag'batlantirgan mustamlakachilik o'lka taraqqiyotining dushmanlari edi. Shunga qaramasdan, jadidshilik harakati Buxoroda shiddat bilan rivojlandi. Bu jarayonda, ayniqsa, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaevlar katta faoliyat ko'rsatdilar. Shu ma'noda, Buxoro amirligida usuli jadid maktablarining keng qulosh yozishida Fitratning «Munozara» asari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Abdurauf Fitrat «Munozara» asarini 23 yoshida – Turkiya dorilfununida talabalik yillari yozib tugatdi. Asarning to'la nomi «Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususinda qil'gon munozarasi» bo'lib, 1909 yilda yozib tugatildi va 1911 yilda Istanbulda nashr etiddi. Muallif asarni fors-tojik tilida yaratgan. 1912 yilda «Turkiston viloyatining gazet»da Hoji Muin tarjimasida bosildi, keyin Mahmudxo'ja Behbudiyning so'ng so'zi bilan alohida kitob holda nashr etildi. «Munozara» butun O'rta Osiyo ziyolilari o'rtasida katta shuhrat qozondi. Toshkentda Pushkin jamiyatining raisi polkovnik Yagello ushbu asarni rus tiliga 1911 yildayoq tarjima qilib, 1912 yilda alohida kitob holda nashrdan chiqardi. Asarning nomlanishidan ko'rinish turganidek, farangi Buxoroning mudarrisi - ziyolilarning etakshisi bilan munozara qiladi. Munozara «usuli jadid» va «usuli qadim» ustida ketsada, asar Buxoro amirligining iqtisodiy, ma'naviy, ta'limiy, manzarasini to'la namoyon qiladi.

XX asr - ilm-fan, kashfiyotlar asri. Jahonga 400 dan ziyod buyuk olimlarni hadya etgan Buxoro bugun zulmat qa'rida. Nega bunday? 200 dan ortiq madrasasi, 400 dan ortiq maktabu kutubxonasi, o'nlab qiroatxonayu qorixonalari va bu o'quv yurtlarini bemalol iqtisodiy ta'minlashga qurbi etadigan million tangaga yaqin vaqfi bo'la turib, buyuk badbaxtlik iskanjasida azob chekmoqda. Buxoroning bechora mardumlari dunyoning izzati va oxiratning sharafi bo'lmish ilm-ma'rifatdan mahrum bo'lganlar. Mudarris, umuman, taraqqiyotdan, dunyo sivilizasiyasidan bexabar, hatto jug'rofiya kabi ilmlarni chuqur tasavvur eta olmaydi. Mudarris aqidasisha: «hamma odamlar tahsili ilmga rag'bat qilsalar, boshqa ishlar egasiz qoladi». Demak, hamma ilm bilan mashg'ul bo'lsa, boshqa kasbu korlar qolib ketadi, dunyo xarob bo'ladi.

Mudarris javoblaridan shu narsa ayon bo'ladiki, Buxoro ulamolari hatto Qur'oni karim va Hadisi sharif da'vatlaridan nihoyatda uzoqlashib ketganlar. Ular Muhammad (s.a.v.) payg'ambarimizning «Ilmi Chindan bo'lsa ham izlang», «Beshikdan qabrgasha ilm izlang», «Ilm dunyoning izzati va oxiratning sharafidir» kabi muborak so'zlari bilan ummatlarini ilm-ma'rifatga da'vat etanliklarini idrok qilishdan mahrumdilar. Ularning ko'pi hatto biror oyat yoki hadisni to'g'ri o'qib, to'g'ri sharhlab bera olmaydilar. 25-30 yil madrasada arab tili o'qib, bu tilda erkin gaplasha olmaydilar. Buxoro ruhoniylarining nodonligi, islom ahkomlarini buzib talqin qilishlari, «har kuni bir Abu Ali, Forobiy, Ulug'bek, Muhammad ibn Ismoil Buxoriy kabilarni jahonga hadya etib, shu tariqa o'z sharafli dovrug'ini jahon xalqlari qulog'iga zirak qilib taqqan» Buxoroyi sharifni zulmat qa'riga mahkum etdi. Shuning ushun ham ular oxundlik, a'lamlil va mudarrislik mansablarini egallash ushun har qanday qabihlikdan, noshar'iy yo'llardan qaytmaydilar.

Farangi (Farangi qiyofasida ko'proq Fitratning o'zi ko'zga tashlanadi) Buxoroning o'tmishda ikki million aholigi ega bo'lganligi, amir Muzaffarning mag'lubiyatiyo johil ulamolarning, «nodonlik sahrosi uyqushilarining g'afleti dastyorligida» aholisi ush barobar, hududi o'n barobar kamayib kettanligini, amirlik Rusiya vassalligiga tushganini, bu g'aflet, bu jaholat yana bir oz muddat davom etsa, «jahongir Temur bobokaloningiz sha'ni-izzatiga xiyonat qilsangiz, nom-nishonsiz sharafsiz, izzatsiz rohat uyida azal-abad uxlayajaksiz»,. Degan achchiq haqiqatni aytadi.²⁴

Farangining bu haqiqat so'zlari hatto Buxoroyi sharifning «zabardast» ulamolari haqida iftixor bilan so'zlayotgan mudarrisni ham dahshatga soladi: «Birodar, meni vahimaga ko'ydingaz! So'zlaringizning haybatidan jonim tan qolibidan chiqib, parvoz etib ketishiga oz qoldi. Azbaroyi xudo, ayting, bizning ilojimiz nima? Bu dardi bedavoning chorasi qaysi? Qaerga boraylik? Nima qilaylik? Qaysi tuproqni boshimizga soshaylik? Qashon bu falokat holatidan va istiqbol mushkulliklaridan dimog'imizga xalos bo'lishlik bo'yi etib keladi?»

Bu savollarga javoban, Farangi bu qadar g'aflet va tanballikdan, jaholat va mute'likdan qutulishning birdan-bir yo'li sifatida jadid maktablari ochish zarurligini aytadi. «Usuli jadid» maktabi xabarini eshitishi bilanoq mudarris yana jazavaga tushadi. U Buxoroda «usuli jadid» maktabi bir qatla ochilganiyo bir yil faoliyat ko'rsatgani, Rusiya fuqarosi tatar mudarrisining ko'rsatmasiga muvofiq «ulamoi buzruvorlar» bu maktabni tezda yoptirganliklari to'g'risida gapiradi. Bu o'rindva mudarris 1908 yil oktyabr oyida Buxoro shahri ichida - Darbozai Sallohxona guzarida Mirza Abdulvohid Munzim Sadrididdin Ayniy bilan birgalikda o'z uyida ochgan birinshi «usuli jadid» maktabi haqida gapiryapti. Darhaqiqat, bu maktab katta shuhrat qozondi, tantana bilan imtihonlari ham o'tkazildi. Ammo Rusiya elshixonasi xodimlarining aralashuvi bilan yopildi. Bu ishda Rusiya hukumati oxrankasining maxfiy a'zosi, qozon tatar mudarris Mulla Qamar hamda elchixonona xodimi, poraxo'rlikda nom shiqargan Shulga ismli kimsa katta faoliyat ko'rsatdilar.

Farangining «usuli jadid» maktablarining nimasi harom, noshar'iy ekan? Bolalardan birortasi nafatangiz harakat «qildimi? Kitoblarida birorta kufr kalima yozilgan ekanmi? Bolalarning og'zidan birorta noshar'iy so'z chiqdimi? «Usuli jadid» bolalari tahorat va namozda sustlik qildilarmi? Usul Muallimining bilimi etuk emasmi? kabi savollarga mudarris «usuli jadid»

²⁴ Firat Abdurauf, Tanlangan asarlar, 2 jildlik, 1-jild, T. «Ma'naviyat», 2000 yil. 68-bet

maktabi bolalari bilimda yuqori darajada ekanliklari, muallim Buxoroning ilmda tanho olimi hamda islom jonkuyarlaridan ekanligini aytadi. Mudarris «usuli jadid» maktabi va muallimi haqida shunday ijobiy fikrlarni aytsa-da, uning o'zi bu maktabni yopishda ishtirok etgan. Bunday mutaassiblikdan hayratga tushgan Farangi bu maktabni yopish nasroniylar ishi ekanligini, maktabni yopishda faoliyat ko'rsatgan tatar - no'g'oy mudarrisi ularning odami ekanligini ta'kidlaydi:... Bu yolg'on gapni no'g'ay odam islom dushmanlari tarafidan turib yoyganini fahmlamadingizmi?»²⁵

Fitrat xalq o'rtasida ilm-ma'rifatni keng tarqatish, ulamolarning musulmon dini ahkomlarini chuqurroq tushunib etishlari uchun «Qur'oni karim» oyatlaridan va «Hadisi sharif»dan namunalar keltiradi, ularni sharhlaydi. Ayniqsa «Qur'oni karim»ni o'qib, savobini ota-onalari arvofiga bag'ishlashdan nariga o'tmaydigan ba'zi bir din peshvolarini qattiq qoralaydi. «Qur'on» o'liklar uchungina emas, ayniqsa, tiriklar uchun hayotda jamiyat taraqqiyoti uchun dasturul amal ekanligini Farangi tilidan bayon etadi: «Agar ilmga rag'bat dunyo xarobalig'iga va ba'zi ishlarning egasiz qolishiga sabab bo'lsa, Payg'ambaringiz hikmatlari bilan o'zining barcha ummatlarini ilm tahsiliga da'vat etmagan bo'lar edi. Binobarin, Buxoro ishlari shu qadar jaholatga botganki, aholi ilmi bo'lg'onidan keyingina tartibga tushadi... Taassufki, siz musulmonlar toifasi Qur'on va Hadisning ma'nolaridan juda yiroqlashib ketgansiz. Shu alfozi bilan Qur'onni o'qib, savobini faqat ota-onalaringiz ruhig'iga bag'ishlab o'rganib qolgansiz. Boshqacha fikr qilmaysizki, bu muborak majmua (Qur'oni karim)ni Hazrati Hakim Azal (Alloh o'zining buyuk farishtasi orqali olamning oqillariga bekorga jo'natmagan edi. U (Alloh)ning amrlarini amadda qo'llaydi, uning taqiqlaridan saqlanaylik. Biz faranglar ditingiznin; dushmani esakda, diniy xusumatlarimiz taqozo qilganidek, Qur'on va Hadislaringizni kuydirish o'rniga ulardan o'z manfaatimiz nuktai nazaridan foydalanmoqqa, chanqog'imizni qondirmohha o'rgandik. Uning amrlarini amalga oshirdik va favkulodda tarakqiyotga erishdik. Va sizlar g'aflatda qolib, Qur'onning saodatli hukmlaridan hamda hikmatli xabarlaridai bahra ololmay, tanazzul tubiga tushdingiz. Demak, Fitrat shunday xulosaga keladi: musulmon Sharqiy Evropa taraqqiyotining asosini tashkil qiladi.

Abdurauf Fitrat asarning «Xotima»sida Buxoro amiri Said Olimxonga ochiq murojaat qiladi.²⁶ Muallif amirni musulmonlarni qaro asirlikdan, zulmdan, haqoratlardan, muqaddas Vatanimizni jaholat botqog'idan, dini sharifimizni tahqirlardan qutqarishga da'vat etadi. «Ey, Buxoro millatining mehribon otasi raiyat holig'a tushunib rahm qilg'in, muborak vujudingga Haq taolo tarafidan topshirilgan Muhammadning nurli shariatig'a xizmat qilib, yiqilgan millatning nurli fikrlarig'a va maorif taraqqiyotining tavsiyasig'a iqdom qil»²⁷.

Fitrat vatandoshlariga, dindoshlariga murojaat qiladi, ularni g'aflat og'ushidan tezroq qutulishga, «otash aroba», «o'q kema», «teleg'raf», «tipograf» kabi ming turli hunarlar zohir qilayotgan ovro'poliklar bilan qadam-baqadam bo'lishga, musulmonlarning shia, sunniy, zaydiy, vahhobiylar ixtilofiga barham berishga, buning uchun birdan-bir najot yo'li - ilm-ma'rifatga keng yo'l ochishga, jadid maktablari tarmoqlarini kengaytirishga da'vat etadi. Butun jadid adabiyotida bo'lganidek, Fitrat ijodi davomida ayol zotini yuqori ko'tardi, uning ilm nuridan

²⁵ Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar, 2 jildlik, 1-jild, T. «Ma'naviyat», 2000 yil. 77-78 betlar.

²⁶ Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar, 2 jildlik, 1-jild, T. «Ma'naviyat», 2000 yil. 82 bet

²⁷ O'sha asar. 95 bet

bahramand bo'lishiga katta ahamiyat berdi. Chunki ayollarga e'tibor necha-necha asrlar mobaynida jamiyat e'tirofida bo'lib kelgan. Besh, asr muqaddam buyuk Alisher Navoiy o'zining «Saddi Iskandariy» dostonida etti olimga dono maslahatshi hisoblangan, podsho Iskandarning onasi Bonu timsolini yaratgan.

Afsuski, XX asr boshlariga kelib, ayol zoti ilm-ma'rifatdan bebahra qoldi, unga faqat «tavallud va tanosul», ya'ni tug'ish va nasl qoldirish yuklatildi. Mudarrisning fikrisha, 37 yoshgacha davom etadigan o'qish tufayli «silsilai tanosul» (nasl qoldirish silsilasi) buziladi. Mudarrisning bu fikrlari asossizligini Fitrat Hadisi sharifning «Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir» da'vatini keltiradi va mushkul damda nuqsonli tahsil usulini butunlay o'zgartirish kerakligini ta'kidlaydi. «Usuli jadid» taxsilida bekorga sarf bo'ladigan vaqt keskin qisqartiriladi, qiz bolani olti yoshida maktabga berib, o'n sakkiz yoshida tahsil oxiriga etkaziladi. Bunday tahsil Islom uchun zarar emas, behad foydadir. «Usuli jadid»ga muvofiq oson usul bilan qisqa muddatda ayollar ham, erkaklar ham olim bo'ladilar. Umuman, «Munozara» asari Buxoro amirligida jadidshilik harakatining yanada jonlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Sadridin Ayniy ta'biri bilan aytganda, Fitrat ushbu «sarida shariat yo'lida «usuli jadid»dan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berdi. Natijada, Buxoroda «usuli jadid» maktablari qaytadan ochila boshladi, hatto usuli qadim maktabdorlar ham o'z faoliyatlarida birmuncha ijobiy o'zgarishlar yasadilar.

Yusupov Baxtiyor Bahodirovich
(Tashkent, Uzbekistan)

XIX ASRDA G'ARBDA XRISTIANLIK DOIRASIDA YUZAGA KELGAN YANGI DINIY HARAKATLAR

Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra, XIX asrning ikkinchi yarmida xristianlik, buddaviylik, islom va boshqa dinlar doirasida yuzlab sektalar paydo bo'lgan²⁸. Bu shunday jarayonlar kelajakda davom etishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi.

XIX asrning o'rtalaridan. Angliyada yirik sanoatning o'sishi, ishchilar harakatining ko'tarilishi, cherkovning inqiroz yoqasiga kelib qolishi, turli xil ijtimoiy nazariyalar va jamoaviy harakatlarning shakllanishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida turli yo'nalishlarni birlashtirdi. Shunday vaziyatda yuzaga kelgan, sotsialistik oqimlar doirasida "xristian sotsializmi" deb nomlangan katta tendensiyaning rivojlanishini alohida ajratib ko'rsatish mumkin²⁹.

Xristian sotsializmi – Yevropa va amerikada katolik va protestant cherkovlari doirasida shakllangan diniy-ijtimoiy harakat. Ijtimoiy-siyosiy sahnada xristian sotsialist namoyondalari Anglikan cherkovi puritan qanotining vakillari bo'lgan bir qator ingliz ilohiyotchilari tomonidan ilgari surilgan va mazmunan Oksford harakatiga qarshi bo'lgan harakat dasturi orqali omma e'tiborni o'ziga tortgan³⁰.

Ayni vaqtda, xristian sotsializmi g'oyalari nafaqat katolik va protestant ruhoniylari, balki dunyoviy tarixchilar, siyosatchilar, faylasuflar, iqtisodchilar, shoirlar, yozuvchilar va rassomlar ham qabul qilgan. Bunga misol tariqasida ingliz shoiri "prerafaelitar" ikkinchi avlodining eng yirik vakili "Common weal" jurnali muharriri, Sotsial Demokratiya Federatsiya (Social Democratic Federation) a'zosi, "Yo'q joydan xabarlar" utopik romanining muallifi Uilyams Morris (1834–1896) misol bo'la oladi. U san'atshunos, publitsist, Oksford universiteti professori

²⁸ <https://hozir.org/dinshunoslik-v2.html?page=11>

²⁹ Qarang: Берг А. История социализма в Англии. М., 1924. Т. 1–2; Вейш Я.Я. Религия и церковь в Англии. М., 1976; Волгин В.И. История социалистических идей. М.; Л., 1928; Гиббинс Б. Английский народ в XIX в. СПб., 1901; Брентано Л. Социально-христианское движение в Англии. М., 1906; Новиченко И.Ю. Чарльз Кинсли и английский социализм середины XIX века. М., 2001; Шейнман М.М. Христианский социализм. М., 1969; Cort J. Christian socialism. N.Y., 1988; Dorrien J. The democratic socialist vision. N.Y., 1997; Gloyne C. The Church in the social order. L., 1942; Hunter L. Church strategy in the changing world. L., 1950; Headlam S. Christian socialism. L., 1899; Sykes N. Church and state in the XVIII century. Cambridge, 1930; Temple W. Christianity and social order. N.Y., 1987; Webb S. Socialism in England. L., 1893; Woodworth A. Christian socialism in England. L., 1963.

³⁰ Oksford harakati XIX asrning birinchi yarmida Angliya cherkovi tarkibida paydo bo'ldi. Uning asoschilari orasida J. Nyuman, E.B. Pusey, J.Kumble, R.Freyd va boshqalar bor edi. Ular "Hozirgi davr uchun risolalar" deb nomlangan bir qator risolalarini nashr etishgan, shu sababli bu harakat a'zolari "traktarianlar" deb ham nomlanadi. Ushbu risolalarda anglikan ilohiyotining asoslarini katolikcha talqin qilish va bundan ijtimoiy doktrina ishlab chiqishga harakat qilingan. Traktarianlar cherkovning ilohiy asosga ega ekanini hadmda uning davlat va jamiyatdan ustun ekanligi g'oyasini ilgari surdi. Shu bilan birga, jamiyatdagi adolatsizlik va yovuzlikni ijtimoiy islohotlar orqali o'zgartirish imkonsiz ekanligini ta'kidlaganlar. Shunga asosanib, Oksford Harakatining ijtimoiy doktrinalari dindorlarni o'zlarini "gunohkor yer" dan ajratishga va butunlay "Xudoning Shohligi" ga bag'ishlashga chaqirgan.

Jon Raskin (1819-1900) g'oyalarining izdoshi edi. 1877-yilda birinchi sotsialistik tashkilotlardan biri bo'lgan Avliyo Matvey Gildiyasi (Guild of St. Matthew) aynan Styuart Hedlem (1847-1918) boshchiligida va anglikan cherkovi ruhoniylari Skot Golland (1847-1918), Genri Shatlvort (1850-1900) ko'magida tashkil etilgan. Avliyo Matvey Gildiyasining bosma nashr organi "Cherkov islohotchisi" gazetasi edi. Shuningdek, XIX asrning so'nggi choragida S. Hedlem tomonidan Avliyo Edmund Gildiyasi (Guild St. Edmund) tashkil etilgan. 1884-yilda Angliya ishchilar ligasi tashkil topdi, unga Uels, Shotlandiya va Irlandiyadan ishchilar qo'shildi. 1881-yilda Demokratik Federatsiya, 1883-yilda Fabian Jamiyati va Leyboristlar cherkovi tashkil etildi. 1889-yilda Xristian Sotsialistik Ittifoqi tashkil etildi, uning rahbarlari M.A. Gobson, R. Blechford, S. Goland, D. Veskot, P. Dermer va boshqalar edi. Bu ittifoq asosan anglikan cherkovi ruhoniylaridan iborat bo'lib, ularning vazifasi ijtimoiy masalalar bo'yicha da'vatchilarni tayyorlashdan iborat bo'lgan. Shu bilan birga xristian sotsialistlari Uilyam Nyuton va Uilyam Allen boshchiligidagi Birlashgan muhandislar jamiyati ish boshlagan.

XIX asr oxiri - Xristian ijtimoiy ittifoqi tashkilotining paydo bo'lishi va rivojlanish davri bo'ldi. Uning taniqli a'zolari Charlz Gor (1853-1902), yepiskop G. Chesterton (1874-1936), Konrad Noel (1869-1942) edi. "Cherkov tarixidagi sotsializm" asari muallifi Konrad Noel dinni siyosatdan ajratishni talab qildi va shuningdek, Xudoning Shohligini er yuzida qurish mumkin deb ishonar edi. Uning ijtimoiy qarashlarini belgilaydigan asosiy tamoyil quyidagicha edi: "Sotsializm - bu yer, ham sanoat kapitali ham hamma uchun umumiy teng bo'lgan prinsipdir va kooperativ tamoyillari yer yuzida Xudoning Shohligini barpo etish uchun asosdir"³¹. Ushbu sotsialistlar faoliyatiga iqtisodchi, faylasuf, "Ijtimoiy iqtisod tamoyillari", "Siyosiy, falsafiy va tarixiy fikrlash hamda tadqiqotlar" asarlari muallifi Jon Styuart Mill (1806-1973) ham qo'shildi. Tarixchi A.Meten sotsialistlar faoliyatini umumiy baholab, quyidagilarni ta'kidlaydi: "... ingliz sotsializmi bu demokratik davlat sotsializmi bo'lib, radikal qarashlar va xristian axloqning murakkab mahsuli"³².

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, nasroniy sotsializmining ijtimoiy asosini 1848 yilda Yevropadagi inqilobiy harakatlar, sanoat inqilobi, chartizmning³³ ko'tarilishi va qulashi tashkil etgan. 1836 yilda chartistlar umumiy saylov huquqini, yashirin ovoz berishni va mulkiy xususiyatlarni bekor qilishni talab qiluvchi "Xalq xartiyasi" ni e'lon qilgan London ishchi erkaklar assotsiatsiyasini tashkil qilgan. Bundan tashqari, unda quyidagi qoidalarni o'z ichiga olgan: «Hech qanday diniy aqida hukmronligi o'rnatilmasligi kerak;... Barchaga so'z erkinligi teng ravishda kafolatlanishi kerak; ... Cherkovni davlatdan to'liq ajratish;... ilmiy, aqliy va axloqiy tarbiya va ta'lim milliy miqyosda barchaga berilishi kerak"³⁴. Ushbu Xartiya Angliya parlamentiga taqdim etilgan, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

Xristian sotsialistlarning g'oyaviy yetakchilaridan biri Uilyam Morrisda ham shunga o'xshash ijtimoiy qarashlarni kuzatishi mumkin. Uning asosiy g'oyasi - "Erkin uyushmadagi erkin individ" bo'lib - "O'zgarish harakatlari" asarida, shuningdek 1878-1881-yillarda Birmingem

³¹ Noel C. Socialism in Church History. - London, 1899, p. 18.

³² Метен А. Социализм в Англии. СПб., 1898 25 с.

³³ Chartizm - bu XIX asrning 30-yillari o'rtalarida Angliyada shakllangan ishchilar harakati, uning faoliyati aholi ishchi sinfining fuqarolik erkinliklarini rivojlantirish va umumiy saylov huquqini o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan.

³⁴ Шлютер Г. Чартистское движение. М., 1915. с. 385.

universitetida o'qigan ma'ruzalarida kuzatiishi mumkin. U.Morrisning fikriga ko'ra, inson to'liq axloqiy va intellektual erkinlik, shu jumladan diniy erkinlikka ega bo'lishi kerak³⁵. Ushbu qarashlar uning "Yo'q joydan xabarlar" romanida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Angliyada nasroniy sotsializmining mafkuraviy kelib chiqishi haqida gapirganda, Robert Ouen (1771-1858) va Uilyam King (1786-1865)³⁶ qarashlarini ham ta'kidlab o'tish joiz.

R. Ouen o'zining "Yangi axloqiy dunyo" asarida ijtimoiy inqirozlarning birlamchi sabablarini tahlil qilib shaxsning jamiyatdagi yo'nalishini va jamoalarning o'zaro munosabatini belgilaydigan uch asosiy "xatoni" aniqlaydi:

- 1) go'yo odam o'zini o'zi yaratgan;
- 2) go'yo u istaganicha ishonish yoki ishonmaslik qudratiga ega;
- 3) istaganidek sevishi va nafratlanishi mumkin.

Ushbu xatolar jamiyatni qayta qurishga xalaqit beradigan "uch yovuzlik" ka to'g'ri keladi: xususiy mulk, din hamda oila va nikoh hukmron shakli³⁷.

E'tiborlisi shundaki, R.Ouen ham, U.King ham o'zlarining g'oyalarini kooperatsiya va ta'lim asosida jamiyatni isloh qilish mumkinligi bilan asoslaydi. Biroq, ularning qarashlarini taqqoslaganda, aniq farqlar mavjud. Ouen uchun kooperatsiya vosita, odamlarni qayta tarbiyalash esa maqsad. King uchun, aksincha, kooperatsiya maqsad, ta'lim esa vositadir. Ouen barcha odamlarni va shunga ko'ra barcha dinlarning tengligini talab qiladi, lekin katoliklar va ateistlar uchun istisno qiladi. U.King, o'z navbatida, din va ateistik qarashlarning mavjudligidan qat'i nazar, universal tenglikning mavjudligini ta'kidlaydi. Davlat va din munosabatlarga kelsak, Ouen Angliyaning davlat diniga qarshi chiqmaydi, King esa, aksincha, cherkovni davlatdan to'liq ajratish zarurligini takidlaydi. Bu davrda yashab ijod qilgan ko'plab ilmiy doira vakillari diniy qarashlar borasida o'zlarining fikrlarini ilmiy tarzda isbotlashga uringan. Bu esa ularning tarafdorlari va tanqidchilari vujudga kelishiga olib kelgan. Har bir yangi shakillangan jamoa o'zining haqligini turli usul va dalillar bilan isbotlashga harakat qilgan. Manashu tarzda XIX asr G'arb dunyosi uchun xristian dining turli oqim va yo'nalishlarga bo'linib ketish davri bo'ldi.

XIX asrda G'arbda yangi diniy harakatlarning, xususan Novoapostol cherkovining paydo bo'lishida jamiyat hayotidagi turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sabablar muhim ahamiyat kasb etgan. Bunday sabablarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

– Marifatchilik davri o'zining ratsionalizm va skeptisizm g'oyalari bilan an'anaviy dunyoqarash tizimlarini alg'ov-dalg'ov qilib yubordi bu esa diniy-falsafiy va ilohiyotshunoslikka oid masalalarni hal qilishda yangicha yondashuvlarni qidirish istagini vujudga keltirdi;

– Yevropadagi inqilobiy qo'zg'olonlar, feodal asoslarning darz ketishi jamiyatning siyosiy asoslari hamda davlatchilik tizimining muqaddaslik tamoyillarini qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'dirdi. Bularning barchasi protestant axloqining burjua dunyosining yangicha demokratik va liberal qadriyatlarini bilan uyg'unlashtirishni talab qildi;

³⁵ Трофимова З.П. Христианский социализм в англии в хix веке. Вестн. моск. ун-та. сер. 7. философия. 2015. № 2. 35–45 с.

³⁶ Uilyam King - shifokor, Qirollik shifokorlar kolleji a'zosi, iqtisodchi, Braytonga nashr etilgan "Kooperator" jurnalining muharriri, "Fikrlar va qarashlar" asari muallifi.

³⁷ Оуэн Р. Избр. соч. М., 1951. Т. I. с. 40.

– G'arbda kapitalizmning rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyot, urbanizatsiya - bularning barchasi ijtimoiy uyg'unlashuvga yordam bermadi. Aksincha, bu jarayonlar faqat kapitalistik jamiyatning yanada chuqurroq tabaqalashuviga olib keldi. Dindorlar bu kabi ijtimoiy muammolarga javobni ijtimoiy adolat va nasroniylarning dastlabki davrlardagi axloqiy tamoyillariga rioya qilishni targ'ib qiluvchi yangi diniy harakatlardan qidira boshladilar.

Turli protestantlik harakatlarini tahlil qilib, Novoapostol cherkovining paydo bo'lishi va rivojlanishiga eng katta ta'sirni "asl havoriylar cherkovi" ning ma'naviy tiklanishi harakati deb nomlanuvchi Revivalizm harakati ko'rsatgan³⁸. Revivalizm harakati diniy "uyg'onish" va "qayta tug'ilish" ning barcha umumiy xususiyatlariga ega bo'lib. U diniy tuyg'ularni jumbushga keltiruvchi hissiy namoyishlarga ega edi. Revivalizmda "murojatlarni" rag'batlantirishning asosiy vositasi da'vatchilik va vazhonlik bo'lib, bu dindorlarga alohida ta'sir ko'rsatadigan tashqi omildir. Revivalizm da'vatchiligining o'ziga xos muhim xususiyati shunda ediki, u tinglovchilarni turli g'oyalari bilan ilhomlantirmaydi, u ichki inqiroz holatini yanada kuchliroq namoyish qiladi va uni hal qilishning axloqiy usullarini taklif qiladi. Ammo eng muhimi shundaki: xristianlik ta'limotiga kiritilgan asosiy qadriyatlar tizimi inson ongida uning keyingi faoliyati uchun psixologik jihatdan qo'zg'aladigan majburiyatlar sifatida belgilanadi. Revivalizm rivojlanib borishi bilan bir qatorda dindorlarning ichki faol xavotirlanish potentsiali hamda uning tarafdorlari yig'ilishlarining yuqori psixologik intensivligi tobora bosilib bordi.

Novoapostol cherkovining mafkuraviy g'oyalari shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan yana bir yo'nalish "Muqaddaslik harakati"³⁹ edi. Muqaddaslik da'vatchilari, qutilish va Xudoning haqiqiy ulug'vorligi uchun ibodatlarning an'anaviy shakllari etarli emas deb hisoblashgan. Ular najot jarayoni ikki eng muhim o'tish davridan iboratligini ta'kidlaydi. "Murojaat" ("oqlanish") lahasida odam sodir etilgan gunohlardan poklanadi. To'liq "muqaddaslanish" ("najot") lahasida u o'zining axloqiy tabiatiga xos gunohga moyilligidan xalos bo'ladi. Ikkala holatda ham dindorning ichki xolatiga alohida ahamiyat berildi.

"Muqaddaslik harakati" diniy faollikni saqlab qolish va davom ettirish uchun kurashning yangi, yanada kuchliroq ma'naviy vositalarini izlashga turtki berdi, bu "uchinchi marhamat" yoki Muqaddas Ruhning cho'qintirilishi haqidagi petidesyatniklik ta'limotining paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu ta'limot Novoapostol cherkovida tomonidan qabul qilingan muqaddas marosimlardan biri - muhrlanish yoki Muqaddas Ruh bilan cho'qintirish marosimida o'z ifodasini topdi.

Novoapostol cherkovi ta'limotiga katta ta'sir ko'rsatgan yana bir g'oyaviy oqim Arminizm bo'ldi. Xususan, Arminizm kontsepsiyasiga muvofiq, oldindan belgilash muammosi, ya'ni ruhdagi "shartli taqdir" masalasi hal etilgan. Shu sababli, Novoapostol cherkovini alohida aqidaviy ta'limot sifatida ko'rmasdan, balki umumiy protestantizmga bog'lash mumkin⁴⁰.

Ba'zi tadqiqotchilar ishlarida, Novoapostol cherkovining tug'ilishi XIX asrda G'arbiy Yevropa va Qo'shma Shtatlardan boshlangan deya ta'kidlanadi. Shu bilan birga, yangi tashkil etilgan cherkovning izdoshlari boshidanoq premillenarizm konsepsiyasiga amal qilishadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, "Masihning podshohligi" dahshatli kataklizmlardan darak beradi. Ular

³⁸ Якуба О.В. Новоапостольская церковь как социально-религиозный феномен. – М., 2005. – С. 10.

³⁹ Muqaddaslik harakati (ing. *Holiness Movement*) –XIX asr oxirida vujudga kelgan protestantlikdagi oqim.

⁴⁰ Якуба О.В. Новоапостольская церковь как социально-религиозный феномен. – М., 2005. – С. 18.

Masih yerga qaytishini bildiruvchi alomatlar - urushlar, ocharchilik, zilzilalar, murtadlik, Dajjolning paydo bo'lishi, katta musibat bo'ladi, va shundan so'nggina Xushxabar barcha xalqlarga yetkaziladi deb ishonishadi. Ushbu voqealar Ikkinchi kelish bilan yakunlanadi, shundan so'ng tinchlik va adolat hukm suradi. Shu munosabat bilan, Novoapostol cherkovi ruhoniylari ularning ishlari "Masihning Ming yillik Shohligi" ni yanada yaqinlashtiradi, deb hisoblashadi.

Novoapostol cherkovining dogmatik asoslarini protestantlikning ba'zi an'anaviy qoidalari, shuningdek G'arbiy Evropa va AQSH ga xos bo'lgan XVIII-asrning ikkinchi yarmi - XIX-asrning birinchi yarmidagi "uyg'onish" harakati g'oyalari deb aytish mumkin.

Абдуллаев Зоҳиджон Абдисаматович
Имом Мотуридий халқаро илмий тадқиқот
маркази катта илмий ходими,
Ўзбекистон халқаро ислом академияси магистранти
(Ташкент, Ўзбекистон)

ИСЛОМ ТАЪЛИМОТИДА “АВЛАВИЙЁТ ФИҚҲИ” АТАМАСИ

فقه الألويايات

Шариатда устун турадиган нарсалар фиқҳига нисбатан қўлланиладиган атама

Ислом таълимотида “Авлавийёт фиқҳи” атамаси араб тилидаги “أولى – Авло” сўздан олинган бўлиб, исм тафзил (солиштирма ёки орттирма даражадаги сифат) шаклидадир. Бу сўзнинг луғавий ишлатилиши икки хил маънода келади. Биринчиси: энг ҳақдор ва энг муносиб маъносида бўлса, иккинчиси: энг яқин деган маънода келган. Ибн Манзурнинг “Лисан ал-ъараб” китобида шундай келган: “Фалончи бу ишга фалончидан кўра авло (муносиброқ)дир, яъни унга ҳақлироқдир. Бунга фалончи авлодир, яъни унга энг маъқул, энг муносибдир дейилади. Ҳадиси шарифда:

عَنْ ابْنِ عَبَّاسٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمَا عَنِ النَّبِيِّ ﷺ قَالَ: «الْحَقُّوا الْفَرَائِضَ بِأَهْلِهَا، فَمَا بَقِيَ فَهُوَ لِأَوْلَى رَجُلٍ نَكَرٍ».
رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ.

Ибн Аббос розияллоху анхудан ривоят қилинади:

“Набий соллаллоху алайҳи васаллам: **“Фаризаларни ўз аҳлига беринглар. Қолгани эса энг яқин эркак кишигадир”**, дедилар” (Бухорий ривоят қилган).

“Tāжуl ʔarūс”да айтиладики: “У бунда авлодир яъни, унга энг маъқул ва энг муносибдир”.

“Ал-Муъжам ал-васит”да: “الأولى Ал-авло: Афъалу тафзийл (яъни, солиштирма ёки орттирма даражадаги сифат шакли) бобидан бўлиб, энг ҳақли, энг муносиб ва энг яқин маъносидадир”.

“Ал-Муъжам ал-ъарабий ал-асасий”да эса: “Ундан ушбуда авлодир, афъалу тафзийл бобидан қиёслаш учундир. Масалан: У (қиз) ушбу совғага у (бола)дан авло (арзирли)роқдир. Энг муносиб бўлиш энг маъқуллик юзасидандир. Ал-Вуляёт (الْوَالِيَّةُ) афъалу тафзийл бобидан бўлиб, мутлақликни ифода этади ва энг ҳақли, энг муносиб ва энг яқин маъноларини англатади”.

“Авло” (أولى) моддасининг булардан бошқа истемолда бир неча кўринишлари бор. Лекин уларнинг барчаси сўзнинг асосий маъноси бўлмиш ҳақлилик ва муносиблик маъносини четлаб ўтмайди. Масалан:

1. أولاد على النبي: .Етимга уни валий этди; яъни, унга етимни васият қилди. -

2. أولاد مغزوفاً: . Унга яхшилик қилди. -

3. أولى فلاناً الأُمْن: . Фалончини ишга бошлиқ этди.

4. وأولى لك: . Таҳдид ва кўрқитиш сўзи; Огоҳ бўл сенга ёмонлик яқинлашди.

Асмаъий (р.а.): “Унга уни ҳалок этувчи нарса яқинлашди”, деган. Аллоҳ таолонинг ушбу сўзи шу маънони англатади.

{أولى لك فأولى} {٣٤}

“Ҳолингга вой бўлсин сенинг, вой бўлсин!”, (“Қиёмат” сураси, 34-оят).

Ушбу оят таҳдид ва қўрқитув маъносида келган бўлиб, “ёмонлик сенга ўта яқиндир” деган маънони англатади.

Юқоридаги кўринишларининг ўртасини муштарак бир маъно боғлайди. У ҳам бўлса сўзнинг асосий аслий маъносидир.

“Авлавийя” (أَوْلَوِيَّةٌ) ясама масдар (сўз ўзаги) бўлиб, унинг кўплик шакли (أَوْلَوِيَّاتٌ) “авлавийёт”дир. Шунга кўра, бирор иш юзасидан (لَهُ الْأَوْلَوِيَّةُ) “унда устунлик яъни, унда имтиёз (ҳақлилик) бор”, дейилади.

“Авлавий” (أَوْلَوِيٌّ) сўзидаги يَاءِ يَاءِ (iyā) ҳарфи “Аво”га мансубликни билдиради.

Авлавийёт (أَوْلَوِيَّاتٌ) атамасининг истеъмолда ишлатилиши 21-асрда намоён бўлди. Хусусан, ижтимоий ўзгаришлар тарафдорлари ва яна ҳам хосроқ қилиб айтсак, Исломиё қонуншунослар тарафидан кўп такрорланадиган бўлди. Охириги вақтларда ушбу атамани зикр қилмасдан, Исломиё бир ишга ёки уни кўтариб чиқишга қаратилган китоб ёки мақола топиш жуда нодир ҳолат. У ҳақида келган гап-жумла (контекст)лар турли хилдир. Бунга қуйидагиларни мисол қилиш мумкин:

Комил Шарифнинг *“Ал-Фикр ал-Исламий байна ал-мисалийяти ват-татбийқ”* асарида шундай дейилган: “Зарурий эҳтиёжларни ва Исломда **устун турадиган нарсалар**ни аниқлаш шартдир”. Доктор Тоҳа Жобир ал-Алвоний айтади: **“Устун турадиган нарсалар**нинг тартибини қайта тиклаш Ислом олимлари олдидаги катта масаладир”.... Ва “Ислом қўйган мезонлар ва **устун турадиган нарсалар**нинг парокандалиги, тартибсизлиги муслмон ақлнинг танг аҳволда қолишининг энг муҳим аломатларидан бўлиб саналади”. Муҳаммад Ятийм авлавийёт фикҳи ҳақида қуйидагиларни айтган: **“Устун турадиган нарсалар** мезонининг ислоҳотларга эҳтиёжмандлиги Исломиё чақириқни кўпинча ўз тоқати ва имкониятларидан каттароқ майдонларда ҳаракатланишига олиб келмоқда”. Доктор Набийл Субҳий ат-Говийл айтади: “Бахтга қарши муслмон оламида **устун турадиган нарсалар**имиз тескаридир”. Сайид Ҳаванинг сўзларида ҳам авлавийёт фикҳининг муҳимлигига эътибор қаратилган: **“Устун турадиган нарсалар** мавзуси одамларнинг хилма-хиллиги, атроф-муҳит, жамият ва замонларнинг ўзгаришига кўра ўзгаради”.

Хуллас, авлавийёт, яъни **устун турадиган нарсалар** масаласи тарғибот-ташвиқот ишлари майдонида кенг ёйилди. Аксар дин пешволари ва воизлар уни аниқ ва интизомли назорат қиладиган фикҳга диққат-эътибор қаратиш кераклигини айтиб чиқишди.

Ушбу атаманинг янгича тушунчаси билан қадимги уламолар ўртасида истеъмолда бўлмаган. Бу ҳолат луғат уламолари ўртасида ҳам ва шариат уламолари ўртасида ҳам баробардир. Демак, ушбу истилоҳ янги атамандир. Шунга кўра қадимий луғат қомусларида келмаган балки, баъзи замонавий янги қомусларда келган. Унга мисол қилиб, адиб ва мутафаккир Бутрус Бўстонийнинг “Ал-Муҳйит” қомусини ёки “Ал-Муъжам ал-ъарабий ал-асасий”ни келтиришимиз мумкин. Қадимги асрларда яшаб ўтган шариат уламоларидан бирортаси ушбу атамани ишлатмаган. Балки исми тафзил шаклидаги “أَوْلَى - Авло” сўзини тез-тез ва кўп қўллаганлар. Одатда бу сўзни, қилиниши афзал ва энг муносиб бўлган ишларни амалга оширишга ундаш маъносида қўллаганлар. Бунга Имом Шотибийнинг “Ал-Иътисам” китобидаги ушбу сўзини мисол қилишимиз мумкин: “Қилиш авло (афзал) бўлган ишга риоя этмасликни келтириб чиқармаса, баъзи

мандубот (яхши кўрилган ихтиёрий амал)ларни лозим тутишда таъқиқ йўқ. Итоат ва амал қилишда авло (афзал) ишга бўлган танбех, шаръий аҳкомларга нисбатан муносабатларда тартибсизликлар намоён бўлганда кўпайди. Чунки баъзилар фарз амалларини бажариш ўрнига нафл амаллар билан, энг муҳим бўлган иш ўрнига муҳим билан машғул бўлдилар.

Ҳозирги кунда олимлар, хусусан шарият ва даъват соҳаларида ушбу истилоҳ билан нимани назарда тутадилар? Ушбу атаманинг истилоҳий таърифини излаш, маълумотлар тўплаш ва уларни ўрганиш жараёнида, бошқа баъзи атамалар каби хилма-хил истилоҳий таърифларга дуч келмайсиз. Эҳтимол унга истилоҳий таъриф беришликдаги эътиборсизликнинг сабаби, ҳеч қандай фактларсиз ундан келган маънони тушуниш осонлигида бўлиши мумкин. Уни эшитган инсон маъносини тушуниб фаҳмлашда луғавий ёрдамга эҳтиёж сезмайди. Фақат, ундан зехнга келадиган биринчи маъно луғавий маъносидир. Иккинчиси эса, ҳамма соҳа ва мутахассисликларда истеъмол қилишга яроқли умумий маъносидир. Сўзимиз шарият соҳасига хос авлавийёт ҳақида кетар экан, албатта, бу атама (шак-шубҳасиз) муайян бир хусусийликка эга бўлади. Шунга кўра, биз унга ўзимиз устида турган соҳамизга хос истилоҳий таъриф бермоғимиз лозим. Маълумотларга кўра биргина истилоҳий таъриф билан таърифланган бўлиб, у доктор Юсуф Қарзовийнинг таърифидир. Фақат у ҳам изофий таърифидир. Чунки у икки сўздан таркиб топган мураккаб изофа “Фикҳул авлавийёт”ни таърифлаган. Авлавийёт атамасини алоҳида таърифламаган.

Агар дин арбобларининг ушбу истилоҳни ишлатиш ва фойдаланиш ҳолатларини мулоҳаза қиладиган бўлсак, уч ҳолатда чегараланганини кўрамиз:

Биринчиси: Назарий даражага кўра; бу билан шаръий амаллар даражаларининг эҳтиромини назарда тутадилар. Улардан энг аҳамиятлисини муҳим бўлганидан афзал кўрмоқ ва ҳар бир ишни ўз ўрнига шаръий доирасига кўра қўйиш. Чунки ҳар бир уни қилишга буюрилган ёки қилишдан қайтарилган амалнинг бошқа амалларга нисбатан шарият соҳиби наздида ўзига яраша муайян аҳамият ва қийматга эга. Шунга кўра, шарият соҳиби ўрнатган чегарадан ошиб, амалнинг даражасини пасайтириш ёки уни ҳаддан ташқари мавқени кўтариб юбориш ҳам жоиз эмас.

Ушбу ҳолатга юқорида зикр қилинган Тоҳа ал-Алвонийнинг “Ислоҳ қўйган мезонлар ва **устун турадиган нарсалар**нинг парокандалиги, тартибсизлиги мусулмон ақлнинг танг аҳволда қолишининг энг муҳим аломатларидан бўлиб саналади” деган гапини мисол қилишимиз мумкин.

Юқоридаги ва унга ўхшаш бошқа ибораларда авлавийёт маъноси назарий йўналишга қаратилган. Ва бундан мақсад шаръий қадриятларни, шунингдек, уларнинг даражалари ва ўрталаридаги бор тафовутни чиройли идрок этишдир.

Иккинчи ва учинчи ҳолатлар: Амалий даражага кўра:

Улардан бири: Даъват соҳасида ишлатилади ва у билан бирламчи даражага ҳақли бўлган амални ва даъват ишларини бажариш асносида ишни нимадан бошлаш лозимлигини билишни назарда тутадилар. Яъни, шаръий аҳкомларни даража ва мартабаларини олдиндан билиш, у ҳақда маърифат ҳосил қилиш ва шароит нимани талаб қилса ўша асосга кўра иш юритишдир. Бу биринчи назарий ҳолат билан иккинчи

амалий ҳолатни ўртасидаги фарқдир. Амалга оширишда эса умуман ўрталарини ажратувчи фарқ йўқ.

Иккинчиси эса: танг ҳолда ёки икки иш бир вақтга тегилишчи бўлиб қолган ўринларда ишлатилади. Бу билан бўйсунуш ва итоат этиб бажариш керак бўлган икки шаръий ҳукм бир вақтга тўғри келганда биринчи ўринда қилиниши керак бўлгани ҳақида билимга эга бўлишни назарда тутадилар.

“Авло – لأولى” атамасининг истеъмомдаги барча кўринишларини “Энг ҳақли бўлган иш бошқаларидан олдинга қўйилади”, деган бир маъно ўзида жамлайди. Шаръий бир ҳукмни бошқасига нисбатан олдинга қўйиш дейилгани, бу эътиқодий ишларга кўра эмас, балки амалда бажариладиган шаръий аҳкомларга кўра эканлиги маълум. Шунга кўра, авлавийётни иймоний ва эътиқодий тарафдан тасаввур қилинмайди. Чунки иймон бўлакларга бўлинмайди, шариат мукаммал бўлган ва ҳаммасига иймон келтириш вожибдир. Лекин шариат аҳкомларини бажаришлик ирода қилинганида эса, баъзи тўсиқлар борлиги уларни барчасини бирданга бажаришликка қийинчилик туғдиради. Ва тўлиқ татбиқ этишни амалга оширишдан умидвор бўлган ҳолда, кетма-кетлик ва даражама-даражалик услубида ҳаракат қилишга мажбур бўламиз. Ушбу услуб ва йўл авлавийёт яъни, олдинга қўйилишга ҳақли бўлганни олдинга қўйиш асосига суянган бўлади. Мақсад эса кечиктириб амалга ошириш зарар қилмайдиган ишларда вақтни ва куч-қувватни сарф қилиб зое қилинмаслигидир.

Шариат доирасида қўлланиладиган авлавийёт:

Биринчидан: шаръий соҳа бўйича; иккинчидан: воқелиқда шариат аҳкомларининг феълан амалга оширилиши бўйича қўлланилади. Шундай экан, юқорида зикри ўтган ўша яъни, воқелиқда ҳукмни жойлаштириш вақтида олдинга қўйиш ва амалга ошириш маъносини қайд этиш вожиб бўлади.

Шунга кўра диний ташвиқот-тарғиботларда қўлланиладиган авлавийёт истилоҳини қўйидагича таърифлаш мумкин:

Авлвийёт бу – итоат этилаётган ёки бажарилаётган вақтда бошқасига нисбатан олдинга қўйилишига ҳақли бўлган шаръий амаллар. Бошқача қилиб айтганда, авлавийёт – бажарилиши керак бўлган шаръий устунликлардир. Ушбу истилоҳий маъно ва луғавий маъно ўртасидаги фарқ йўқ. Фақат ундан кўра хосроқдир. Чунки истилоҳий маъно бирор шаръий ҳукмни бажараётганда бошқа бир ҳукмдан олдинга қўйиш ва бажарилишга бири иккинчисидан кўра ҳақли эканида чегараланган. Аммо луғавий ҳақлилик умумий бўлиб барча нарсани ўз ичига олган.

Маълумки, фикҳ сўзидан бир нарсани билиш ва уни тушуниш англашилади. Мисол учун: "فَقِيحٌ الشَّيْءُ أَوْ الْكَلِمَةُ أَيُّ فَهْمَهُ" яъни, “бу нарсани ёки гапни тушуниб англади” дейилиши мумкин. Демак, «Фикҳ» сўзи луғатда дақиқ фаҳми, яъни бир нарсани нозик жойларигача тушунишни англади.

“Фақиҳа фақоҳатан” дегани, билди ва фақиҳ бўлди деганидир. Яна “Фикҳ” деганда ўта юқори малакали билим ва ўта зийрак ақл фаросатга ҳам ишлатилади. Шариат истилоҳида эса «шаръий далиллардан фаръий ҳукмларни чиқариш»га фикҳ дейилади. Ушбу таърифдаги «шаръий далил» деганимизда, асосан, Куръони карим ва Муҳаммад (с.а.в.) суннатлари тушунилади.

«Фаръий ҳукмлар» эса аслининг тескараси, яъни шаҳобча, кичик аҳамиятли, деса ҳам бўлади. Шариятда эса, ибодатлар ва муомалотни ўз ичига олувчи ҳукмлардир.

Авлаийёт фикҳининг таърифи: маълумотларга кўра, “Авлавийёт” истилоҳи бирор олим тарафидан таърифланмаган, аммо “Авлавийёт фикҳи” таърифланган. Энг биринчи таърифлаган олим доктор Юсуф Қарзовий бўлиб, ўзининг “Авлавийёт ал-ҳарака ал-ислаъийа фи-л-марҳала ал-қадима” китобида, “Ва аммо “авлавийёт фикҳи” (“устун турадиган нарсалар фикҳи”) деганда, ҳар бир нарсани мартабасига кўра ўз ўрнига қўйишни назарда тутамиз. Биринчилардан бўлиб қилишга ҳақли бўлган нарса кечиктирилмайди ва кечиктириб қилишга ҳақли бўлган нарса олдинга қўйилмайди. Катта аҳамиятга эга иш кичик саналмайди, кичик иш эса катта кўрилмайди” деган сўзи билан таърифлайди.

Аммо ушбу таъриф муаллифи умумий қабул қилинган таърифлаш услуби яъни, аввал жузъий сўнгра изофий таърифлаш услубига амал қилганда, ўта аниқ ва мукамал таъриф берган бўларди. Ушбу изофий бирикмадаги энг аҳамиятли сўз “Авлавийёт” сўзидир. Биринчи бўлиб шу сўзга диққат-эътибор билан аниқ таъриф бериб, кейин унинг фикҳи яъни, уни англаб етишдаги мақсадга изоҳ берса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Юқорида қайдлаб ўтилган “Авлавийёт – устун турадиган нарсалар”нинг маъноси фақат бажаришда чегараланган бўлса, албатта, ушбу авлавийётларнинг фикҳи яъни уларни билиш ва тушуниб англашлик бу йўналишда чекланиб қолмайди. Балки у анча кенгроқ тушунчадир. Чунки бажарилиши керак бўлган шаръий устунликлар ушбу фикҳнинг мевасидир. Бир ҳукми бошқа бир ҳукмдан олдинга қўйиш қуйидагиларга биноан амалга оширилади:

А) Шарият аҳкомлари ва уларни мартабаларини, энг муҳим билан муҳимни, қатъий ва зоннийсини, асосий билан жузъийни, улар ичидан каттаси ва кичигини ва ҳоказо, қисқа қилиб айтганда аҳкомларнинг шаръий харитасини билиш, яъни шуларни барчасида фақиҳ бўлиш.

Б) Тартибга соладиган қоидаларни билиш; ўша қоидаларга биноан икки ҳукм ёки ундан кўпи бир жойда тўпланганда ёки тўпланмаганда, бир ҳукми бошқасига нисбатан устун кўра билиши.

В) Мусулмон дин пешвоси ҳаракат қилаётган воқелик ва шароитни яхши тушуниши ва билиши.

Мана шу нарсаларнинг барчасини билиш ва англаб етиш, мусулмон учун бир ҳукми бошқа биридан олдинга қўйиш ҳуқуқини беради.

Буларнинг барчаси қуйидаги таъриф берилиши мумкин бўлган авлавийёт фикҳини шакллантирадиган омиллардир. Демак, “Авлавийёт фикҳи – шаръий ҳукмларнинг қайси бирини мартабасига ва воқеийлик тақозосига кўра олдинга қўйиш илмини билишдир”. Хулоса шуки, авлавийёт фикҳи шаръий далилларга биноан устунлик ҳаққи собит бўлган ишларни билишдир.

Авлавийёт фикҳининг пайдо бўлиш сабаблари. Икки асосий сабабга кўра авлавийёт фикҳи пайдо бўлди дейишимиз мумкин. Сўнгра уларнинг ҳар иккиси бир неча қисмларга бўлинади. Ўша икки сабаб қуйидагилардир:

1. Шаръий амалларнинг мартабаларида кўпгина тартибсизликларнинг пайдо бўлиши.

2. Дин ишларидаги зарурат Ислом олимларини Исломий ишларда даражама-даража ва авлавийёт асосига кўра йўл тутмоқга мажбур қилиши. Ушбу икки нуқтанинг бир неча бўлимлари бўлиб, улар ҳақида батафсил маълумот олиш учун авлавийёт фикҳи манбаларига муурожаат этиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Қуръони каримда амалларнинг ҳукмлари ва уларнинг мартабаларидаги тафовутга далолат қилувчи кўпгина оятлар келган бўлиб, улар ушбу ҳукмлар ва мартабалар ўртасидаги авлавийёт (устунликлар)ни аниқлашда ёрдам берадиган фикҳ ҳақида излашга чорлайди. Улар орқали улуғ фазилатларга етишиш ва энг ёмон ишлардан четда бўлишга эришилади. Куйида шундай оятлардан баъзилари билан танишиб ўтамиз:

(أَجَلْتُمْ سِقَايَةَ الْحَاجِّ وَعِمَارَةَ الْمَسْجِدِ الْحَرَامِ كَمَنْ آمَنَ بِاللَّهِ وَالْيَوْمِ الْآخِرِ وَجَاهَدَ فِي سَبِيلِ اللَّهِ لَا يَسْتَوُونَ عِنْدَ اللَّهِ وَاللَّهُ لَا يَهْدِي الْقَوْمَ الظَّالِمِينَ ١٩)

“Ҳожиларга сув беришни ва Масжидул Ҳаромни обод қилишни, Аллоҳга, охират кунига иймон келтирган ва Аллоҳнинг йўлида жиҳод қилган каби қилдингизми?! Улар Аллоҳнинг ҳузурида тенг эмаслар. Аллоҳ зolim қавмларни ҳидоят қилмас” (“Тавба” сураси, 19-оят).

Оятнинг маъноси шуки: “Эй қавм! Ҳожиларга сув бериш ва Масжидул Ҳаромни обод қилиш ишларини бажаришингизни (бу ишлар аслида солиҳ ишлардан) Аллоҳга ва охират кунига иймон келтирган ва Аллоҳнинг йўлида жиҳод қилган кишининг иймонига тенг қилдингизми? Аллоҳнинг ҳузурида иккиси баробар бўлмас! Чунки амаллар барчаси зарурийлигига қарамасдан, Аллоҳ таолони ҳузурида бири-биридан фазилатда устундир. Демак, Аллоҳ таолога ва охират кунига иймон келтириш энг олий даражадаги амал бўлиб, ҳожиларга сув бериш ва таомлантириш, Масжидул Ҳаромни обод қилиш ишлари у (Иймон) билан тенглашмас!” Шунингдек, Аллоҳнинг йўлида қилинган жиҳод ва унга қилинган инфоқ билан ҳам ҳожиларга сув бериш ва Масжидул Ҳаромни обод қилишлар тенг эмаслиги таъкидланмоқда.

(يَوْمًا يَسْتَوِي الْأَعْمَىٰ وَالْبَصِيرُ ١٩ وَلَا الظُّلُمَاتُ وَلَا النُّورُ ٢٠ وَلَا الظِّلُّ وَلَا الْحَرُورُ ٢١ وَمَا يَسْتَوِي الْأَخْيَاءُ وَلَا الْأُمَوَاتُ إِنَّ اللَّهَ يُسْمِعُ مَن يَشَاءُ وَمَا أَنتَ بِمُسْمِعٍ مَّن فِي الْقُبُورِ ٢٢)

“Кўр билан кўзи очик тенг бўлмас. Зулумотлар билан нур ҳам. Соя билан жазирама ҳам. Тириклар билан ўликлар тенг бўлмас. Албатта, Аллоҳ хоҳлаган кимсага эшиттирур. Сен қабрлардаги кимсаларга эшиттиргувчи эмассан” (“Фотир” сураси, 19–22-оятлар).

Яъни, Аллоҳ таолони динидан қалби сўқир бўлган (маънавий кўрлар) билан ҳақ йўлни топиб унга эргашганлар тенг бўлурми?! Йўқ асло! Иймон нури ила куфр зулматлари, соя-салқин ва иссиқ шамол асло тенг бўлмас! Иймон билан тирик қалблар ва куфр залолати билан ўлик бўлган қалблар тенг бўлмас!

(أَمْ مَنْ هُوَ قَائِمٌ أَنَاءَ اللَّيْلِ سَاجِدًا وَقَائِمًا يَحْذَرُ الْأَخْرَةَ وَيَرْجُو رَحْمَةَ رَبِّهِ قُلْ هَلْ يَسْتَوِي الَّذِينَ يَعْلَمُونَ وَالَّذِينَ لَا يَعْلَمُونَ إِنَّمَا يَتَذَكَّرُ أُولُو الْأَلْبَابِ ٩)

«Йўқса, у кечалари ибодат қилиб, сажда этган, бедор ҳолида охиратдан кўрқиб, Робби раҳматидан умидвор бўлган одамга тенгми?! Сен: «Биладиганлар билан билмайдиганлар тенг бўлармиди?!» деб айт. Албатта, ақл эгаларигина эсларлар» (“Зумар” сураси, 9-оят).

Аллоҳга куфр келтирган, Унга ибодат қилмаган, Унга бўйин эгмаган, кечалари Унинг розилигини йўлида бедор бўлмаган, охиратдан кўрқмаган, Робби раҳматидан умид этмаган одам, албатта, ушбу кечалари Аллоҳга ибодат қилган, Аллоҳнинг Ўзигагина

сифинган, Аллоҳ таолонинг розилигини топиш учун бедор бўлган, охиратдан қўрққан ва Робби раҳматидан умидвор кимсага тенг бўла олмайди”.

Эй Муҳаммад соллаллоҳу алайҳи васаллам! Роббиларини, ҳақ динларини, дунё ишларини динларига мувофиқ яхши билганлари билан шулардан бирортасини ҳам билмаганлар тенг бўла оладиларми? Тенг бўлмаслар! Булар ўртасидаги фарқни соғлом ақл эгаларигина биладилар ва ёдда тутадилар.

Аллоҳ таолонинг ҳузурда амаллар бир хил даражада эмаслиги балки, баъзи амаллар борки баъзи бошқа амаллардан олдинда туриши ҳақида бир қанча ҳадиси шарифлар суннати набавий орқали ворид бўлган:

عَنْ أَبِي مُوسَى رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ: قَالُوا: يَا رَسُولَ اللَّهِ، أَيُّ الْإِسْلَامِ أَفْضَلُ؟ قَالَ: «مَنْ سَلَّمَ الْمُسْلِمُونَ مِنْ لِسَانِهِ وَبَدَنِهِ». رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ.

Абу Мусо розияллоҳу анҳудан ривоят қилинади:

“Эй Аллоҳнинг Расули, Исломдаги қайси (амал) афзал?” дейишди. У зот: **“Қўли ва тилидан мусулмонлар омонда бўлган киши(нинг амали),”** дедилар” (Бухорий ривоят қилган).

عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ: أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ سُنِلَ: أَيُّ الْعَمَلِ أَفْضَلُ؟ فَقَالَ: «إِيمَانٌ بِاللَّهِ وَرَسُولِهِ». قِيلَ: ثُمَّ مَاذَا؟ قَالَ: «الْجِهَادُ فِي سَبِيلِ اللَّهِ». قِيلَ: ثُمَّ مَاذَا؟ قَالَ: «حَجٌّ مَبْرُورٌ». رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ.

Абу Хурайра розияллоҳу анҳудан ривоят қилинади:

“Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васалламдан: “Қайси амал афзал?” деб сўрашди. Шунда у зот: **“Аллоҳ ва Унинг Расулига иймон”**, дедилар. “Сўнг нима?” дейишди. У зот: **Аллоҳ йўлидаги жиҳод**”, дедилар. “Ундан сўнг нима?” дейишди. **“Мабрур ҳаж** (барча арконларига риоя этиб адо қилинган мақбул ҳаж)”, дедилар” (Бухорий ривоят қилган).

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ عَمْرٍو: أَنَّ رَجُلًا سَأَلَ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ: أَيُّ الْإِسْلَامِ خَيْرٌ؟ قَالَ: «تَطْعَمُ الطَّعَامَ، وَتَقْرَأُ السَّلَامَ عَلَى مَنْ عَزَفَتْ وَهِيَ لَمْ تُعْرِفْ». رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ.

Абдуллоҳ ибн Амр розияллоҳу анҳумодан ривоят қилинади:

“Бир киши Расулulloҳ соллаллоҳу алайҳи васалламдан: “Қайси Ислом (амали) яхшироқ?” деб сўради. У зот: **“Таом беришинг ҳамда таниган-танимаганингга салом беришинг”**, дедилар” (Бухорий ривоят қилган).

عَنْ عَبْدِ اللَّهِ بْنِ مَسْعُودٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ: سَأَلْتُ النَّبِيَّ ﷺ أَيُّ الْعَمَلِ أَحَبُّ إِلَى اللَّهِ؟ قَالَ: «الصَّلَاةُ عَلَى وَفْيَتِهَا». قَالَ: ثُمَّ أَيُّ؟ قَالَ: «تُحْمُ بِرُ الْوَالِدَيْنِ». قَالَ: ثُمَّ أَيُّ؟ قَالَ: «الْجِهَادُ فِي سَبِيلِ اللَّهِ». رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ.

Абдуллоҳ ибн Масъуд розияллоҳу анҳудан ривоят қилинади:

“Набий соллаллоҳу алайҳи васалламдан: “Аллоҳ учун қайси амал сеvimлироқ?” деб сўрадим. **“Намозни вақтида ўқиш”**, дедилар. “Сўнгра қайсиниси?” дедим. **“Сўнгра ота-онага яхшилик қилиш”**, дедилар. “Сўнгра қайсиниси?” дедим. **“Аллоҳ йўлида жиҳод қилиш”**, дедилар” (Бухорий ривоят қилган).

Мазкур ҳадисларнинг маъно-мазмунига эътибор берсак, саволлар бир хил бўлиб, амалларнинг қайсиниси афзаллиги ҳақида кетмоқда. Аммо жавоблар ҳар-хил. Чунки авлавийёт бир инсондан иккинчи бошқа инсонга нисбатан фарқли бўлади. Расулulloҳ (с.а.в.) қайси инсонга қайси амални қилиши афзал эканини билиб, авлавийётфиқҳига биноан жавоб берганлар. Бу ҳадисларда, мусулмон олим ёки фақиҳ жавоб беришда савол берувчининг аҳволини билиши ва унинг авлавийёти ва ҳолатига биноан жавоб беришига ишора бор. Негаки, кимгадир намозни ўз вақтида ўқиб сўнгра ота-онага яхшилик қилиш энг афзал иш бўлса, кимгадир иймон келтириб сўнгра ғазот қилиш энг афзал иш бўлиб саналади.

Шунингдек, олим ва фақиҳлар ўз жамиятлари ва уларнинг эҳтиёжларини яхши билиши керак, шунга биноан уларга тушунтириш ишлари олиб бориши шарт бўлади. Масалан: агар халқи ўзига тўқ ва бой бир минтақада гапирмоқчи бўлса, албатта, уларга хайрия ишларни амалга ошириш ва шундай ишларга тарғиб қилишга чақириб, шунинг билан бирга исрофгарчилик, меъёрдан ортиқ сарф-харажатлар қилиш ҳаром эканлиги ҳақида сўз юритиб, тушунтириш ишлари олиб боради. Унинг бундай йўл тутиши, айнан ўшандай бой жамиятда, муҳим мавзу бўлса ҳам “Қийинчилик вақтида сабр қилиш” ҳақида гапиришдан кўра афзал бўлиб саналади. Аммо, фақир, камбағал жамиятда эса, “Тўкин-сочин, шод-хуррамликка шукр қилиш” муҳим мавзу бўлса ҳамки, “Сабрли бўлиш ва унинг фазилати” мавзусида сўз юритиши афзал ва муносиб бўлади. Чунки авлавийёт – олдинга кўйиш мартаба даражаси шахслар, минтақалар, жамиятлар ва мамлакатлар ҳамда шаҳарларга кўра фарқланади.

Демак, юқорида зикри ўтган оят ва ҳадислар ва келтирилган баъзи мисолларнинг маъно-моҳиятидан англаб тушуниш мумкинки, албатта, инсонлар амалга ошираётган ишларнинг ўртасида шахслар, минтақалар, жамиятлар ва мамлакатлар ҳамда шаҳарларга кўра тафовут бор бўлиб, бири-биридан фарқ қилади. Яъни, уларнинг ҳар бирини шариятга кўра ўз ўрни, мартабаси бор ва шу мартабага мувофиқ унинг устунлиги бор. Шунга кўра, ҳар бир амални ўз ўрнига яъни, олдин турадиганини олдинга кейин турадиганини кейинга қўйиб бажариш биз мўмин-мусулмонларнинг олдимизда турган энг муҳим вазифалардан бўлиб саналади.

Хулоса қилиб айтганда, Ислом шариятини тадқиқ қилиш ва ўрганишлар асносида, унда авлавийётлар борлиги ва Ислом дини уларга бошқасидан кўра кўпроқ аҳамият бериб, эътибор қаратганини кўрамиз. Шундай экан, ким батафсил маълумот олишни истаса “Фикҳул авлавийёт” китобларига мурожаат этишлари тавсия қилинади.

Олтин силсила: Саҳиҳул Бухорий 8-жуз, 149-бет: Тошкент: Nilol-Nashr 2018. (Ал-Фикр ал-Исламий байна ал-мисалийяти ват-татбийк, Камил Шарийф, Визаратул авқоф ваш шуъунил исламийя, 1-нашр, 1404х-1984м, Иордания, 39-бет). (Др. Тоҳа Жобир ал-Алвонийнинг Др. Аҳмад ал-Райсуний ёзган “Назарийятул мақосид инда ал-Имам аш-Шотибий” китобига ёзган муқаддимасидан, Дарул байдзоъ, 1-нашр, 1411х-1990м, Марокко). (Ал-Амалу ал-Исломию вал-ихтияру ал-ҳазорий, Муҳаммад Ятийм, Матбаъату Дар Куртубатил байдзоъ, 1-нашр, 1409х-1989м, 58-бет). (Др. Набийл Субҳий ат-Товийл, “Ал-Ҳирман ват-тахаллуф фий диярул муслимийн” мақоласидан. Китаб ал-Уммату ас-саабъ, Риосатул маҳааким аш-шаръийя ваш-шуъун ағ-динийя, Доҳа, 1984й, 126-бет). (Саийд Ҳава, Тарбиятуна ар-руҳийя Дарул кутубул илмийя, 2-нашр, 1401х-1981м, Байрут, 86-бет). Имом Шотибий. “Ал-Иътисām” (1-жуз 321-бет эркин ҳолда Дарул маърифат литтибаъати ван нашр, Байрут). (<http://www.fiqh.uz/maqola/336>). Юсуф Қарзовий. “Авлавийят ал-ҳарака ал-исламийя фи-л-марҳала ал-қадима” (34-бет). (Др. Муҳаммад Ал-Вақийли “Фикҳул авлавийёт диросатун физзовабит”, Ал-Маъҳад Ал-Алами лилфикрил Исламий, Ҳерндон Виржиния 1-нашр. 1997м/1416х). (<https://www.alukah.net/sharia/0/121756/>). Шайх Муҳаммад Соғиқ Муҳаммад Юсуф/ «Куръони Карим» ва ўзбек тилидаги маънолари таржимаси/ “Nilol” нашриёт – матбааси/ Тошкент, 2018). (<https://www.alukah.net/sharia/0/121756/>). Олтин силсила: Саҳиҳул Бухорий 1-жуз, Иймон китоби ва Намоз вақтлари китоби: Тошкент: Nilol-Nashr

2018. (Др. Муҳаммад Ал-Вақийли "Фиқҳул авлавийёт диросатун физзоваабит", Ал-Маъҳад Ал-Алами лилфиқрил Исламий, Ҳерндон Виржиния 1-нашр. 1997м/1416х). (<https://sy-sic.com/?p=8273>). "Олтин силсила" Саҳиҳул Бухорий, 1-жуз, 132-бет. 1-жуз, 140-бет. 1-жуз, 142-бет. 1-жуз, 453-бет.

Абдуллаев Джамол Джамшедович
Жиззах политехника институти таянч докторанти,
Тангяриков Нормурод Сайитович
Илмий раҳбар
(Джизак, Узбекистан)

ПОРФИРИНЛАРНИНГ МУТАГЕН ФАОЛЛИГИ ВА АНТИБАКТЕРИАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация. Порфиринларнинг кислороднинг актив шакллари ҳосил қилиши мумкинлигини топилганлиги уларга антибактериал таъсир бўлиши мумкинлиги кенг қўламда ўтказилган тажрибалар ПҚЧ хлорофилл экстрактивнинг кучли бактерицид таъсири борлигини кўрсатди.

Калит сўзлар: порфирин, метоксифинил, тетрасульфофенил, *staphylococcus aureus*, *bacillus subtilis*, *proteus vulgaris*

Истиқболда табиий ва сунъий порфинларнинг тиббиётда, биологияда, саноатда кенг қўлланиши кўп организмларнинг жумладан инсонларнинг улар билан тўқнаш келишига туғри келади. Шунинг учун ҳам бу бирикмаларнинг биологик фаоллиги ва мутаген таъсирини ўрганиш талаб қилинади. Бу масала, вақтида СССР фанлар академиясининг умумий генетика институтининг космик генетика лабораторияси ходимлари билан ўтказилган тажрибаларда ўрганилди [7-8] металсиз порфиринлар ва уларнинг металл комплексларини ҳар хил биологик муҳитда хлореллани тез система қилиб ўрганилди. Хлорелла учун ишонарли натижалар ёрдамида таъсир қилганда унга бўлган спонтан ва индуктивланган мутагенез жараёнлари ўрганилган. Бундан кўриниб турибдики, порфиринларнинг захарлилиги уларнинг супероксидланиш реакциясини яхши корриляциялайди. Уларнинг ичида юқори токсикликни кобальт комплекси намоён қилди. [2, 5] Бу бирикма адреналиннинг супероксидланиш имодул реакциясини самарали катализлаш қобилиятига эга. Бошқа металл комплекслари ва металсиз порфиринлар сезиларли паст токсиклик намоён қилади. Бу металл комплексларнинг адреналиннинг супероксид оксидланиш реакциясини катализлашмаслиги маълум. Аммо, бу қоидада истисно бор. (лизо-тетра п-метоксифинил) порфириннинг кобальт комплекси яқин структура нологи СоТФР. Қарийиб 4 баровар кам токсикликка эга. Бу ходиса комплексларнинг ҳар хил дисперс суспензияларга эга бўлиши билан боғлиқ.

Металсиз тетрасульфофенил таъсири ўрганилди [1]. Бу бирикмаларнинг таъсири қуйидаги кўрсаткичлар билан баҳоланди: тирик қолиш, мутабиллиги, аутоспораларнинг ўртача сони ва ривожланишнинг ҳар хил даврларида хужайраларнинг ҳалок бўлиши киради. Бунинг учун 1, 3, 7, 10 суткаларда тажрибадан намуна олиниб табиий аралаштирилган муҳитга экилди. Микроколлонияларнинг яшовчанлиги, хужайраларнинг ўлиш ҳарактери ва аутоспораларнинг ўртача сони макроколлониянинг мутабиллик методи бўйича аниқланган.

Хлорелла СоТ СФП-нинг экспозицияси ва концентрацияларидаги яшовчанлик қобилиятининг таҳлили шуни кўрсатдики СоТСФП-нинг олинган концентрацияларида хлорелла культураларининг яшовчанлиги назорат гуруҳи билан тенг бўлиб бу унинг

хлорелла яшовчанлигига таъсир кўрсатмаганлигини билдиради. (1. Жадвал). Худди шундай аҳволни хужайраларга кобальт иони ва СоТФП-нинг 10^{-5} м эритмаси билан таъсир этганда ҳам кузатиш мумкин. (1. Жадвал) озуқа муҳитига H_2 ТСФП ($2 \cdot 10^{-4}$ м) қўшилган тажриба вариантларида яшовчанлик минимал даражада бўлиб ўстиришнинг 1-3 кунлари ҳаётий қобилятини камайиш қилган хужайралар кузатилмаган. 7-сутканинг охирларига келиб тирик қолган хужайралар 90%, 10-суткада эса 16,29% кўпроқ бўлган. Вақт ўтиши билан препарат бузилади ёки метаболизм маҳсулотлари, хлорелла хужайраси парчаланиш маҳсулотлари билан реакцияга киришиб ўзининг токсик хусусиятини йўқотади (1. Жадвал). Тажрибанинг бу натижалари порфиринларнинг қопловчи ўсимталарга қарши таъсири билан яхши ҳамоҳанг.

Турли омилларнинг сув ўсимликларнинг хужайраларига таъсири хлорелларга ҳам генетик ва ҳам цитоплазматик таъсир кўрсатиб ҳалокатга учратиши аниқланди. Ёш хужайранинг ўсмасдан ҳалок бўлиши цитоплазматик ҳалок бўлишдан, йирик хужайралар босқичида ҳалок бўлиш нуқтали мутациялар ва хромосом аберрациялари учун характерли [6].

Цитоплазматик ўлиш H_2 ТСФП $2 \cdot 10^{-4}$ м концентрация вариантларида 1-3 суткаларда юқори бўлиб тегишлича 82,35% ва 89,13%-ни ташкил қилди у 7-10 суткаларда камаяди шу билан бирга генетик ҳалок бўлиши ошади (1. Жадвал). Бошқа вариантлар хужайралар ҳалокати назорат гуруҳи даражасида бўлади.

Озуқа муҳитига $2 \cdot 10^{-4}$ м концентрациядаги СоТФП қўшилган вариантларда кўринадиган мутациялар фоизи уларнинг 1-3 суткаларда ошишини 7-10 суткаларда камайишини кўрсатади.

Озуқа муҳитига $2 \cdot 10^{-4}$ м ва 10^{-5} м концентрацияли СоТФП қўшилган вариантларда кузатиладиган мутациялар фоизи 1-3 суткаларда ошиши ва 7-10 суткаларда камайишини кўрсатади. Муҳитга 10^{-5} м концентрацияли H_2 ТСФП қўшилган вариантларда мутациялар сони 1 ва 3-суткаларда ошади. (1. Жадвал).

Концентрацияни $2 \cdot 10^{-4}$ м оширилганда мутация тезлиги ошади. Бу аслида хужайраларни порфиринлар иштирокида ўстириш билан боғлиқ. Аммо, таҳлил учун бу хужайраларнинг кам яшовчанлиги ва коллориялар сонининг камлиги таҳлил учун аниқ хулоса чиқаришга имконият бермайди. Со ионлари назоратга нисбатан деярли ўзгаришсиз бўлади. (1. Жадвал).

Хужайраларнинг синтезланиш ва бўлиниш активлигини характерловчи асосий сезгир тестлардан бири, автоспораларнинг ўртача сони бўлиб ҳисобланади. Бу кўрсаткич озуқа муҳитига Со сульфатнинг H_2 ТСФП (10^{-5} м), СоТФП (10^{-5} м) қўшилганда бу кўрсаткич ўзгармайди.

Хлорелларни СоТФП ($2 \cdot 10^{-4}$ м) қўшилган муҳитда ўстирилганда уларнинг ўрта автоспора сони кўпайса бу хужайра културасининг фаоллигидан далолат беради. 7-10 суткаларда хужайраларнинг яшовчанлиги сақлаб қолинган ҳолда назорат гуруҳига қараганда автоспораларнинг ўртача сони сезиларли даражада (2 марта) камайиши кузатилади. шу билан бирга хужайра бўлинишининг секинланиши ҳам кузатилади.

Икки сутка ўтгач, назорат вариантыда бўлинмаган хужайралар 28%, тажриба гуруҳида 80% қолади. Уларнинг яшовчанлиги эса, бир-бирдан фарқ қилмайди (1. Жадвал). Бу препаратнинг узоқ муддат салбий таъсирга эга эканлигини кўрсатади.

2·10⁻⁴м Н₂ТСФП концентрацияли варианларда ҳужайраларнинг ўлиш фоизи юқори бўлганлиги учун уларнинг спора ҳосил қилиш динамикасини аниқлаб бўлмайди. Бироқ, ўртача автоспоралар сонининг камлиги ва цитоплазматик ўлимнинг юқорилиги ҳужайра синтезининг пасайганлигини кўрсатади (1. Жадвал).

Озуқа муҳитига порфиринлар ёки кобальт сульфат қўшилган варианларда Н₂ТСФП (2·10⁻⁴м) қўшилган муҳитда юқори цитоплазматик ўлим мутациялар тезлиги ўрта автоспоралар ўрта сонининг камайганлиги яшовчанликнинг кескин камайганлигини кўрсатади. Н₂ТСФПнинг концентрациясини 10⁻⁵м гача камайтириш бу кузатилган эффектларни йуққа чиқаради.

1. Жадвал

Хлорелла культурасига лизо-тетро (п-сульфонил) порфирин кобальт комплексининг таъсири.

Ўсиш вақти, сутка	Модда концентрацияси	Яшаши %±М	Ўлим		Автоспоранинг ўртача сони	Мутациянинг кўриниши
			Цито логик	Генетик		
1	Назорат	93,03±0,70	5,16	2,22	8,64±0,11	0,00±0,10
	Со ²⁺	95,47±0,91	5,04	0,75	8,57±0,10	0,92±0,10
	СоТСФП 2·10 ⁻⁴ М	95,57±0,88	4,85	2,03	8,51±2,18	1,07±0,10
	СоТСФП 10 ⁻⁵ М	95,99±0,86	3,75	1,89	10,72±0,14	1,29±0,10
3	Назорат	98,38±0,56	2,99	2,27	8,84±0,11	0,62±0,10
	Со ²⁺	96,35±0,10	2,27	2,59	8,63±0,12	0,97±0,10
	СоТСФП 2·10 ⁻⁴ М	98,21±0,10	1,25	2,07	8,61±0,12	1,79±0,14
	СоТСФП 10 ⁻⁵ М	98,25±0,10	4,97	1,81	9,61±0,13	2,37±0,14
7	Назорат	94,74±0,97	0,64	0,99	6,82±0,13	1,17±0,10
	Со ²⁺	95,14±0,89	1,72	1,93	8,89±0,10	0,96±0,04
	СоТСФП 2·10 ⁻⁴ М	96,86±0,74	1,79	-	8,68±0,18	0,90±0,07
	СоТСФП 10 ⁻⁵ М	95,33±0,56	1,75	-	4,74±0,19	0,72±0,07
10	Назорат	92,62±1,13	1,95	1,03	7,83±0,11	0,85±0,07
	Со ²⁺	94,21±1,02	1,48	3,05	8,21±0,12	0,96±0,08
	СоТСФП 2·10 ⁻⁴ М	93,28±1,08	1,48	2,40	7,03±0,10	0,57±0,07
	СоТСФП 10 ⁻⁵ М	94,36±1,00	2,09	0,46	4,40±0,15	0,54±0,07

2. Жадвал

Бирикмаларнинг бактерицид таъсири.

Культуранинг номи	Богланиши, унинг конценрацияси, моль															
	СоТСФП				Н ₂ Труп				Н ₂ ГП				Экстракт ПҚЧ дан Хл			
	1	0,5	0,25	К	1	0,5	0,25	К	1	0,5	0,25	К	1	0,5	0,25	К
<i>Staphylococcus aureus</i> 209 P	+	+	+	+	-	-	+	+	-	+	+	+	-	-	+	+
<i>Bacillus subtilis</i> штамм 720	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
<i>Proteus vulgaris</i> штамм 1	+	+	+	+	+	+	+	+	-	+	+	+	-	-	+	+

<i>Escherichia Coli</i> №335	+	+	+	+	-	-	+	+	-	+	+	+	-	-	+	+
<i>Bact.</i> <i>Pyocyanum</i> штамм 165	+	+	+	+	+	+	+	+	-	+	+	+	-	-	+	+
<i>Aspergillus niger</i> штамм 1-с	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+

Со ионлари хлорелла культураларига таъсир кўрсатмайди. СоТСФП-нинг $2 \cdot 10^{-4}$ М концентрациясида хлорелла культурасининг яшовчанлигига таъсир кўрсатмайди. Аммо, экспозия муддатининг узайтирилиши автоспора ўрта сони ва мутациялар қайтарувчанлигини камайтиради. Шундай қилиб, H_2 ТСФП-нинг $2 \cdot 10^{-4}$ М концентрацияли эритмаси хлорелла культураларининг ҳаётий фаолиятига салбий таъсир кўрсатади. Унинг молекуласига кобальт ионининг киритилиши, эса порфирин эффектини камайтиради.

Микроорганизмларнинг кенг спектрида ўтказилган тажрибалар (2. жадвал) кутилмаган натижалар берди: СоТСФП ва H_2 ТРуП амалда антибактериал таъсирга эга эмас экан. Шу билан бир вақтнинг ўзида ПҚЧдан олинган хлорофилларда яққол ифоланган бактериоцидлик хусусиятлари бўлади. Уларнинг биктериоцидлик таъсири ёруғлик таъсирида сезиларли ошиши мумкин.

Биз порфиринлар иштирок этганда яққол ифодаланган фотодинамик эффект мавжудлигини аниқладик. Бу хлорофиллинларнинг антибактериал таъсирининг кескин. Қуввати 100Вт бўлган ксенон лампада порфиринлар иштирокида ўстирилаётган микроорганизмлар 10 дақиқа ёритилганда препаратнинг таъсир этувчи концентрациясини 10 баробар камайтиради. Бу тажрибаларнинг натижалари 3. жадвалда келтирилган. Назорат гуруҳида шу дозадаги нур билан ёритилганда микроорганизмларнинг ўлмаганлиги кузатилади.

3. жадвал

ПҚЧдан олинган хлорофилларнинг микроорганизмларга фотодинамик таъсири.

Культуралар	Концентрациянинг порфиринларга таъсири						
	$1 \cdot 10^{-2}$	$5 \cdot 10^{-3}$	$2,5 \cdot 10^{-3}$	$1 \cdot 10^{-3}$	$1 \cdot 10^{-4}$	$5 \cdot 10^{-5}$	$1 \cdot 10^{-5}$
<i>Staphylococcus aureus</i> 209P	-	-	-	-	-	-	+
<i>Bacillus subtilis</i> штамм 720	-	-	-	-	+	+	+
<i>Proteus vulgaris</i>	-	-	-	-	-	+	+
<i>Escherichia Coli</i> №335	-	-	-	-	-	+	+
<i>Bact. pyocyanum</i>	-	-	-	-	-	+	+
<i>Aspergillus niger</i>	-	-	+	+	+	+	+

Фотодинамик эффектининг таъсир механизми фаол сигмент кислород ҳосил бўлиши асосланган бўлиб, улар ҳужайра мембраналарини емиради [3-4-9-10]. Шунга ўхшаш механизми ПҚЧдан олинган хлорофилл ва порфирин ҳосилаларида ҳам кузатиш мумкин. Ҳозирги вақтда хлорофиллга ўхшаш бирикмаларнинг бу хусусияти

фотосенсирилизаторлари яратиш мақсадида ўрганилмоқда. Порфиринлар олишнинг арзон хомашё базаси топилганлиги уларни тиббиётнинг турли соҳаларида жумладан хафвли ўсмаларни фотодинамик йўл билан даволашда қўлланилиши мумкин [11-12].

Хулоса. ПҚЧ компонентларидан фойдаланишнинг бирнеча йўналишларини фарқ қилиш мумкин. Унинг таркибидаги оксиллар ва аминокислоталардан чорва моллари озукасига қўшимча сифатида фойдаланиш мумкин. Бунда бу компонентларнинг энгил ҳазм бўлишини ҳазм назарда тутиш керак. ПҚЧ таркибидаги оксилни фақат ўтхўр ҳайвонлар учун эмас гўштхўр ҳайвонлар рационага ҳам гўшт ва балиқ маҳсулотлари ўрнига ишлатиш мумкин. Биологик фаол моддалари ажратиб олинган ПҚЧ кунжарасини (шрот) витаминлар ва макроэлементлар билан бойитиб бериш янада истиқболли кўринади.

Хлорофилларнинг антибактериал таъсири (амалдаги концентрацияда) биообъектлар ёруғликда бўлганда 1000 бараварга ошади яъни порфиринларнинг фотодинамик таъсиридан ҳосил бўладиган сингмент кислород микроорганизм ҳужайра қобикларининг емирилишига олиб келиб уларнинг ўлимига сабаб бўлади. Умуман олганда порфиринларнинг кислород билан боғлиқ каталитик жараёнларни фаоллаштириш хусусияти борлигини кўрсатди. Бу ўз навбатида порфиринларни бу маҳсулотларда биологияда, тиббиётда йишлоқ ҳўжалигида истиқболда қўллаш имкониятини туғдиради.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Куно Е. II J. Sericult. Sci. Jap. 1984. Vol. 53. N 3. P. 198.
2. Аскарлов К.А., Бельговский И.М., Быстрицкая Е.В. и др. // Докл. АН СССР. 1981. Т. 258. С. 1383.
3. Изучение и применение лечебно-профилактических препаратов на основе природных биологически активных веществ. СПб: «Эскулап», 2000. С. 92.
4. Bonnett R. Chemical Aspects of Photodynamic Therapy. GB: Gordon and Breach Science Publishers, 2000. 306 p.
5. Аскарлов К.А., Быстрицкая Е.В., Ташматова Р.В. и др. // Докл. АН СССР. 1982. Т. 262. С. 635.
6. Беленький М.Л. Элементы количественной оценки фармакологического эффекта. Рига: изд-во АН Латв. ССР, 1959. С. 115.
7. Аширова В.Э., Аскарлов К.А. // Тез. докл. III Всес. конф. по химии и биохимии порфиринов. Самарканд, 1982. С. 206.
8. Аскарлов К.А., Ваулина Э.И., Аширова В.Э. Исследование влияния порфиринов на культуру хлореллы. // Деп. в Узб. НИИТИ. Самарканд, 1984. № 9489-Д-84.
9. Cox G.S., Whitten D.G. // Chem. Phys. Letters. 1979. Vol. 67. P. 511.
10. Stevens B. II Acc. Chem. Res. 1973. Vol. 6. N 3. P. 90.
11. Vicente M. G. H. // Curr. Med. Chem. - Anti-cancer Agents. 2001. Vol. 1, N 2. P. 175.
12. Chin W., Heng P., Bhuvanewari R., Lau W., Olivo M. // Photochem. Photobiol. Sci, 2006, Vol. 5. P. 1031.

**Байджанов А. К., Сейитниязова А. А.
(Ургенч, Узбекистан)**

ДРЕВНИЙ ХОРЕЗМ. ИСТОРИЧЕСКИЕ ПАМЯТНИКИ КУНЯ -УРГЕНЧА

Ургенч, несомненно индоевропейское название, о чем свидетельствует исторические названия города.

Рост роли торговли с Восточной Европой выдвигает на первое место в Хорезме город, сделавшийся естественным центром этой торговли. Ургенч крайний северо-западный форпост хорезмской цивилизации, выдвинутой к началу разветвления путей, идущих через пустынный Устюрт на западе к пристаням Мангышлака на северо-запад на Волгу и на юг через Каракумы в Джурджан, и таким образом находящейся на кратчайшем пути Ирака и Ирана в Восточную Европу.

Мамун провозгласил Ургенч столицей 955 и превратил его в крупный культурный центр.

Архитектурные памятники раннего периода (до 12 в) не сохранились, археологические раскопки не дали результатов. Наибольшего расцвета Ургенч достиг в XII веке но в 1221 г орды Чингисхана почти полностью уничтожили город.

Некоторые исследователи находят сообщения Йакута об Ургенче восторженными. Однако слова Истахри и других авторов определенный оттенок восхищения этим городом Хорезма.

Отголосок мольбы о великолепии столицы Хорезма по сей день сохранился в памяти народа.

Кутлуг-Тимур и его жена, дочь Узбек-хана Турабек-Хоним, надо полагать содержали город в порядке. В конце XIV- начале XVII вв. столица Хорезма была перенесена из Ургенча.


В 1646 г. спустя год после воцарения, Абул Гоzi хан сын Араб-Мухаммада построил крепость Таза Ургенч (Новый Ургенч) и переселил туда немного численное, но оппозиционное по отношению к нему население.

После прорытия обводнительного канала Хан-яб в 1831 г. в Куня-Ургенч начало возвращаться население увеличившейся из года в год.

В 1900 г. у основания минарета Кутлуг-Тимура найдена свинцовая плита с датой строительства и именем заказчика. Текст исполнен в стиле куфи и размещен в четыре ряда одинаковой длины.

Надпись на плите гласит: «Господин Эмир, справедливый властелин, хорезмшах Абул-Аббас Маъмун ибн Маъмун приказал построить этот минарет и лично заботился и руководил закладкой его основания, покорившись вере и приблизившись к Аллаху, да будет превознесено Его упоминание, и да введет Он его в двери обоих миров. И это (произошло) в течение (нескольких) месяцев четырехста первого года» XIV в.

Минарет Кутлуг-Тимура виден издали, и является как бы ориентиром на Ургенч, а также на все памятники, находящиеся в развалинах городища и в него он расположен ближе к северной части и представляет собой очень высокую конусообразную башню.



Минарет утратил купол балкона и почти все украшения верхней части ствола. И ныне это самое высокое здание в средней Азии – его высота 60 м.

Сооружение средневековья со стороны больше напоминает поврежденную временем заводскую трубу наших дней. Только вблизи можно получить определенное представление о чрезвычайно сложной художественной форме и конструкции утраченных частей. О минарете Кутлуг-Тимура в литературе имеются скудные сведения. Вход в минарет с западной стороны приблизительно в семи метрах от уровня земли.

Его внутренняя часть представляет собой уходящую в высоту крутую спираль ступенек. Специалисты считают, что вход в минарет начинался с крыши двухэтажного здания которое не сохранилось. Из этого входа 144 ступенки винтовой лестницы, кое где освещенные пятью узкими оконными проемами, приводят ко второму дверному проему расположенному на высоте 50 м. Время преодоления всего пути вверх занимает около пяти минут.

Снаружи весь ствол минарета выстроен из обожженного шлифованного кирпича высокого качества и имеет 18 декоративных поясов.

Все части минарета, потерявшие декор кирпичной кладки – пустующие пояса, места, которые имели сталактитовое убранство, фонарь и купол нуждаются в реставрации (фото Мавзалея Тюрабек-Ханым.)

Это одно из трех наиболее крупных сооружений развалин Ургенча, расположено северо-западнее минарета Кутлуг-Тимура. Тюрабек-Ханым является дочерью золотоорденского хана Узбека (1312-1343) и женой правителя Ургенча Кутлуг-Тимура, который умер 1345 году. Мавзолеем несмотря на разрушенный купол потерявший

большую часть и отсутствие северной завершающей стороны, от которой сохранилось только основание, величественен


Портал с южной стороны не только высок, он и имеет мощные пилоны образующие под аркой глубокую нишу, которую можно принять за открытую прихожую. Проем в нише имел двери не дошедшие до наших дней.

В глубине ниши дверной проем с деревянной перемычкой, бруска которой из Азии под софитом Арки на щеках пилонов и над дверью были богатые украшения из сталактитов, декоративное панно из кашина и по ганчу, но от них остались небольшие фрагменты.

За порталом находится дахлиз небольшой вестибюль, купол которого также разрушен. Частично сохранились сталактиты, облицованные кашинном: аппликация растительного орнамента листовым золотом. Стены из шлифованного кирпича.


«Мавзолей Тюрабек-Ханым Суфидов является высшим архитектурно-строительным и художественным достижением мастеров хорезмского искусства XIV века превзойти которое не удалось никому. В Средней Азии все по следующие времена» (фрагмент).





Мавзолей Тюрабек-ханым

Мавзолей Нажим-Ад-Дина Ал Кубра дошел до наших дней весьма обветшалым, вызывает сильные опасения отклонения его портала хотя укрепительные работы были проведены. В помещениях, укрепивших купола, не сделаны временные кровли. Кроме того прекрасные майоликовые плиты ныне слабо держатся на местах, некоторые из них во время дождей выпали. Эти и другие обстоятельства делают вопрос о проведение срочных и широкомасштабных реставрационных и укрепительных работ на мавзолее, нижи Аддина Ал-Кубра. Из легенды связанной с памятником некоторый интерес представляет то место, где говорится о расположении его на «старом кладбище хорезмшахов» вполне возможно, что Нажмаддин Ал-Кубра похоронили на почитаемом городском кладбище, находившемся «за городом», как это не забыл упомянуть Ибн Баттута. По видимому, над прахом шейха к моменту назначения Кутлуг-Тимура правителем Ургенча уже был возведен мавзолей. Укрепительные работы коснувшиеся только наружных частей мавзолея султана Али не могут способствовать дальнейшей сохранности памятника. Купола и портал, не говоря уже о ремонте стен изнутри, нуждается в срочном укреплении.



В более худшем состоянии оказался мавзолей Пирйар Вали хотя расположен он значительно выше остальных мавзолеев. Ближайшими по времени и месту неизвестному надгробие XIVв. является надгробия в мавзолее Ибн Хаджиба и Наджмиддина Кубра в мавзолее Мазлумхан Сулу в соседнем Миздахкане. Все они имеют над собой помещения. Вдальнейшем изучении нуждаются памятники Куня Ургенча: мавзолей Азизона Али Ромитани, Мухаммад-Карим ишана, а также медресе Ибн Хаджиба. Находясь в таком же состоянии как и мавзалеи Пирйар Вали, эти памятники окружены без порядочными захоронениями сильно затрудняющими не только их изучения но и укрепительно консервационные работы.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Назар Халимов "Памятники Ургенча" Ашхабат Туркменистан 1991 г.
2. Гулямов Я.Г."История орешения Хорезма".1957 г
3. Толстов С.Р."Работы Хорезмской экспедиции»1949-1953гг. ТХАЕЕ, Т.2 М., 1958

Исаев Йўлдошхон Мусахонович
Қўлёзмалар билан ишлаш ва музей бўлими илмий ходими
Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази
(Самарқанд, Ўзбекистон)

АБУ ЗАЙД ДАБУСИЙ ВА УНИНГ “АМАДУЛ АҚСО” АСАРИНИ ИККИ
НОДИР ҚЎЛЁЗМА НУСХАСИ

Аннотация. Абу Зайд Дабусий ҳаёти, илмий мероси ва тасаввуф илмига оид “Амадул ақсо” асарининг Туркиядаги Сулаймония кутубхонасига қарашли Лалели фондига № 1337 рақам остида ва Роғиб пошо фондига № 647 рақам остида сақланаётган нодир қўлёзма нусхалари борасига қисқача тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: Абу Зайд, Дабусия, амадул ақсо, тасаввуф, қўлёзма, етти қози, фонд, илмий мероси.

Исаев Йулдошхон Мусахонович
Научный сотрудник отдела работы с рукописей и музей Международный
научно-исследовательский центр Имама Бухари
(Самарканд, Узбекистан)

АБУ ЗАЙД ДАБУСИ И ДВЕ РЕДКИЕ РУКОПИСИ ЕГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ «АМАДУЛ АҚСА»

Аннотация. В статье кратко рассматривается жизнь и научное наследие Абу Зайда Дабуси, а также включены редкие рукописи произведения по тасаввуф «Амадул Ақса» хранящихся в Тюльпановом фонде библиотеки Сулеймании в Турции под № 1337 и в Фонде Роғиб-паши под номером № 647.

Ключевые слова: Абу Зайд, Дабусия, Амадул Ақса, мистицизм, рукопись, семь сугей, фонд, научное наследие.

Isaev Yuldoshkhon Musakhonovich
Researcher of the Department of Manuscripts and Museum
Imam Bukhari International Scientific-Research Center
(Samarkand, Uzbekistan)

ABU ZAYD DABUSI AND TWO RARE MANUSCRIPTS OF HIS WORK "AMADUL AQSA"

Abstract. The article briefly examines the life and scientific heritage of Abu Zayd Dabusi, and also includes rare manuscripts of the tasawwuf "Amadul Aqsa" kept in the Tulip Fund of the Sulaymaniyah Library in Turkey under No. 1337 and in the Rogib Pasha Fund under No. 647.

Keywords: Abu Zayd, Dabusiya, Amadul Aqsa, tasawwuf, manuscript, seven judges, foundation, scientific heritage.

Мовароуннаҳрда бундан бир неча юз йил аввал, яъни IX-XII асрларда биринчи ренессанс рўй берди. Айнан ўша даврда давлат юритишдаги сиёсат ўзгариши билан бир қаторда илм-фаннинг турли соҳаларидаги ютуқлар яққол кўзга ташланди. Айниқса янги соҳалар – тафсир, ҳадис, калом, фикҳ, тилшунослик, математика, астрономия, кимё, тиббиёт, ҳуқуқ, геодезия ва географияга қизиқиш кучайди. Натижада турли соҳаларда ижод қилган Имом Бухорий, Имом Термизий, Имом Мотуридий, Муҳаммад Мусо Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Аҳмад Фарғоний, Абу Наср Форобий, Маҳмуд Замашарий, Абул Муин Насафий, Юсуф Хос Ҳожиб, Маҳмуд Қошғарий каби юзлаб аждодларимиз серқирра истеъдод соҳиблари бўлиб етишдилар.

Шундай алломалардан бири Абу Зайд Дабусий бўлиб, унинг тўлиқ исми Абу Зайд Убайдуллоҳ ибн Умар ибн Исо Дабусийдир (Баъзи манбаларда Абу Зайд Абдуллоҳ, ибн Умар ибн Исо Дабусий деб келтирилган. Жумладан, Абу Зайд Дабусийнинг тасаввуф илмига оид “Амадул ақсо” асарининг Лалели фондида № 1337 рақам остида сақланаётган ва Роғиб пошшо фондида 1745 йилда кўчирилган № 647 рақам остида сақланаётган кўлөзма нусхаларида). У 367/978 йили Самарқанд сугди худудидаги Дабусия шаҳрида туғилиб, 430/1039 йил Бухорода вафот этган.

Аллома ҳанафий мазҳабининг йирик вакили, фақиҳ, Бухоронинг етти машҳур қозиси (қузоти сабъа)дан бири бўлган. У бошланғич таълимни Дабусиядаги олимлардан олган. Сунгра Бухоро ва Самарқанд шаҳарларига бориб, у ердаги олимлар қўлида таҳсилни давом эттирган.

Абу Зайд Дабусийнинг фикҳ илми соҳасидаги устози Абу Жаъфар Муҳаммад ибн Амр Шаъбий Уструшанийдир. Ўз навбатида Абу Жаъфар Уструшаний фикҳ илмини Бухоро фикҳ мактаби вакили Абу Бақр Муҳаммад ибн Фазл Каморий Бухорий ва Ироқ фикҳ мактаби вакили Абу Бақр Жассос Розийдан ўрганган. Шундай қилиб, Дабусий устози Уструшанийдан Мовароуннаҳр ва Ироқ мактабларининг усул ва аналарини мукаммал ўзлаштирган. Натижада Бухорода қози вазифасига тайинланган ва етти қози қаторидан ўрин олган.

Абу Зайд Дабусий ўзидан бой илмий мерос қолдирган. Унинг “Тақвимул адилла фи усулил фикҳ” (“Усулул фикҳдаги далилларни тўғирлаш”), “Таъсисун назар” (“Қарашларни асослаш”), “Амадул ақсо” (“Энг олис мақсад”), “Асрор фил усул вал фуру” (“Усул илми ва тармоқларининг сирлари”), “Анвору фи усулил фикҳ” (“Усулил фикҳдаги нурлар”), “Хизанатул ҳуда” (“Ҳидоятга элитувчи хазина”), “Шарҳул Жомийул акбар” (“Катта тўплам шарҳи”), “Тажнису Дабусий” (“Дабусийнинг тажниси”) ва “Нузуму фил фатаво” (“Фатаволардаги тартиб қоидалар”) номли асрлари бўлган.

Унинг асарлари кейинги даврларда яшаб, ижод қилган алломалар учун дастуруламал бўлиб хизмат қилган, десак, адашмаган бўламиз.

Бугунги кунда аллома асарларининг кўлөзма нухалари Шарқ ва Ғарб мамлакатлари китоб фондларида сақланмоқда. Бу борада Зафар Нажмиддинов ўзининг “Абу Зайд ад-Дабусий меросининг мовароуннаҳр фикҳ илми ривожига тутган ўрни” номли монографиясида батафсил маълумот бериб ўтган.

Алломанинг ҳаёти ва илмий меросини ўрганиш борасида дунёнинг турли минтақаларидаги олимлар томонидан кўплаб тадқиқотлар олиб борилган. Жумладан, америкалик Жорж Макдисий, Арон Зайсов ва Браннон Вилер, саудиялик Абдурахим

Солиҳ Муҳаммад Ёқуб ва Шарафиддин Али Ғалай, туркиялик Юсуф Зиё Кавакчи, Бунжай Башоғлу, Ҳакки Айдин, Абдуллоҳ Севим, Фуад Сезгин, А.Ақгундуз, Юсуф Килич, Шукру Ўзен ва Ферҳат Кожа каби тадқиқотчиларни санаб ўтиш мумкин [1:31]. Юртимизда мустақилликдан сўнг тадқиқотлар олиб борган юридик фанлари доктори Абдулҳаким Жузжоний ва Зафар Нажмиддиновни ҳам келтириб ўтиш мумкин. Абдулҳаким Жузжонийнинг “Бухоролик буюк фақиҳ – Абу Зайд Дабусий” номли рисоласи (Тошкент 2007 й.) ва Зафар Нажмиддиновнинг “Абу Зайд ад-Дабусий меросининг мовароуннаҳр фиқҳ илми ривожига туган ўрни” номли монографияси (Тошкент 2019 й.) шулар жумласидандир.

Шу ўринда Абу Зайд Дабусийнинг тасаввуф илмига оид “Амадул ақсо” асарининг Туркиядаги Сулаймония кутубхонасининг Лалели фондида № 1337 рақам остида ва Роғиб пошо фондида № 647 рақам остида сақланаётган қўлёзма нусхалари ҳақида қисқача тўхталиб ўтишни лозим топдик.

Мазкур асар нисбатан кам ўрганилганлигига қарамай, унинг илмий-тарбиявий аҳамияти жуда юқоридир. У ўзига хос услуби билан тасаввуфга ва одоб-ахлоққа оид бошқа асарлардан алоҳида ажралиб туради.

Қўлёзма насх хатида қўчирилган. Асар 138 варақдан иборат бўлиб, унинг мистараси 21 қаторни ташкил этади. 3^а саҳифасида китоб ва муаллифнинг номи кўйидагича келтирилган:

... كتاب الامد الاقصى للقاضى الامام الزاهد ابى زيد عبدالله بن عمر بن عيسى الدبوسى...

Қозий, имом, зоҳид Абу Зайд Аббуллоҳ ибн Умар ибн Исо Дабусийнинг “Амадул ақсо” китоби... [2:3^а].

Ундан сўнг асарнинг феҳристи – мундарижаси қизил сиёҳ билан ёзилган. Мундарижадан билиш мумкинки, асар 11 та китобдан иборат бўлиб, унинг 7-китоби 3та, 9-китоби 4та, 10-китоби 1та фаслга бўлинган. Қолган китоблар эса фаслларга ажратилмаган.

Мундарижадаги китоб ва фасллар тартиби кўйидагича:

“Амадул ақсо” китобининг феҳристи - فهرست كتاب امد الاقصى

1. Ҳаққига қарши курашиш (жиҳод қилиш) китоби - 3- كتاب جهاد النفس
2. Яратишнинг аслидаги ҳикматлар китоби - 4- كتاب حكم اصل الخلق
3. Тўрт фасл китоби - 8- كتاب الفصول الاربعة
4. Бандалик китоби - 14- كتاب العبودية
5. Фақирлик китоби - 18- كتاب الفقر
6. Буйруқ китоби - 30- كتاب الامر
7. Зиндон ва подшоҳлик китоби - 42- كتاب السجن و المملكة
 1. Дунёни зикр этиш фасли - 49- فصل نكر الدنيا
 2. Тижорат фасли - 53- فصل التجارة
 3. Муомалалар фасли - 58- فصل المعاملة
8. Тарози китоби - 59- كتاب الميزان
9. Одамларнинг диний нуқтаи назардан бўлиниш китоби – 62- كتاب اقسام الناس في الدين
 1. Доимо рост гапирувчилар фасли - 77- فصل الصديقين
 2. Вазир ҳақидаги фасл - 79- فصل في الوزير

3. *فصل في الزاهد* - 80 - Зоҳид ҳақидаги фасл
4. *فصل في الراغب ما سعى* - 81 - Қизиққан нарсани ўрганиш ҳақидаги фасл
10. Қийинчилик ва ҳийла (унинг чораси) китоби - 83 - *كتاب المحنة والحيلة*
1. *فصل الحيلة* - 92 - *Хийла қилиш фасли*
11. Даъват, туш кўриш ва башорат қилиш китоби [2:3^а] - 93 - *كتاب الدعوة والرؤية والنبشارة*

Асардаги китоб ва фаслларнинг номлари ҳам матндан ажралиб туриши учун қизил сиёҳ билан ёзилган.

Роғиб шошо кутубхонасида № 647 рақам остида сақланаётган қўлёзма 1158/1745 йили насх хатида кўчирилган бўлиб, умумий ҳажми 207 varaқдан иборат. Мистараси 19 қаторни ташкил этади. Асар муқаддимасининг 2^а саҳифасида китоб ва муаллифнинг номи куйдагича келтирилган:

...كتاب الامد الاقصى للقاضي الامام الزاهد ابى زيد عبدالله بن عمر بن عيسى الدبوسى...

Қозий, имом, зоҳид Абу Зайд Аббуллоҳ ибн Умар ибн Исо Дабусийнинг “Амадул ақсо” китоби... [3:6^а].

Ушбу саҳифанинг ҳошиясида асар ичидаги китоб ва фасллар феҳристи келтирилган. Мундарижа билан асар матнидаги китоб ва фасллар номида бироз фарқ бўлгани учун биз куйида уларни матндаги тартиб бўйича келтирдик. Асар 11 та китоб, 9 та фаслдан иборат бўлиб, унинг 7-китоби 4 та, 9-китоби 4та, 10-китоби 1 та фаслга бўлинган. Қолган китоблар эса фаслларга ажратилмаган. Асардаги “Ўз нафсига қарши курашиш (жиҳод қилиш) китоби”дан то “Буйруқ китоби”гача бўлган китоб ва фасллар номи матндан ажралиб туриши учун қизил сиёҳ билан ёзилган. Аммо “Зиндон ва подшоҳлик китоби”дан то охириги “Даъват, туш кўриш ва башорат қилиш китоби”гача бўлган китоб ва фаслларнинг номлари ёзилмай, ўрни бўш қолдирилган. Мазкур китоб ва фаслларнинг номларини мундарижада келтирилган тартиб бўйича ва Лалели кутубхонасида № 1337 рақам остида сақланаётган қўлёзма нусхасига таққослаган ҳолда келтириб ўтдик.

Асар матнидаги китоб ва фасллар куйидаги тартибда келтирилган:

“Амадул ақсо” китобининг феҳристи - *فهرست كتاب امد الاقصى* -

1. *كتاب جهاد النفس* - 5 - Ўз нафсига қарши курашиш (жиҳод қилиш) китоби
2. *كتاب اصل الخلق* - 9 - Яратишнинг асли китоби
3. *كتاب الفصول الاربعة* - 12 - Тўрт фасл китоби
4. *كتاب العبودية* - 21 - Бандалик китоби
5. *كتاب الفقر* - 28 - Фақирлик китоби
6. *كتاب الامر* - 45 - Буйруқ китоби
7. *كتاب السحن و المملكة* - 65 - Зиндон ва подшоҳлик китоби
 1. *فصل نكر الدنيا* - 76 - *Дунёни зикр этиш фасли*
 2. *فصل نكر الدنيا* - 80 - *Дунёни зикр этиш фасли*
 3. *فصل التجارة* - 82 - *Тижорат фасли*
 4. *فصل المعاملة* - 89 - *Муомалалар фасли*
8. *كتاب الميزان* - 91 - Тарози китоби
9. Одамларнинг диний нуқтаи назардан бўлиниш китоби - *كتاب اقسام الناس في الدين* - 95

1. Доимо рост гапирувчилар фасли - 96 – فصل الصديقيين
2. Вазир ҳақидаги фасл - 120 - فصل في الوزير
3. Зоҳид ҳақидаги фасл - 121 - فصل في الزاهد
4. Қизиққан нарсани ўрганиш ҳақидаги фасл - 122 – فصل في الراجب ما سعى
10. Қийинчилик ва ҳийла китоби - 126 - كتاب المحنة و الحيلة
1. Ҳийла қилиш фасли - 138 - فصل الحيلة
11. Даъват, туш кўриш ва башорат қилиш китоби -
139 - كتاب الدعوة و الرؤية و البشارة

Мазкур нусхалардаги фаслларнинг адади ва номланишида бироз фарқ борлигини кўриш мумкин. Албатта, бу асарнинг мазмун-моҳиятига таъсир қилмайди.

Нусхаларнинг биринчи китоби “Ўз нафсига қарши курашиш (жиҳод қилиш) китоби”, деб бошлашида ҳам ўзига хос ҳикмат бор. Чунки, нафс деганда кўпроқ ёмон сифатларни ўзида жамловчи нарса кўзда тутилади. Шунинг учун ҳам нафсга қарши мужоҳада қилиш, уни синдириш зарурлиги тез-тез тақрорланиб туради.

Мазкур нусхалар басмала ва яратган Зотга ҳамду сано, Пайғамбар алайҳиссаломга салават билан бошлаган. Ундан сўнг: “Пайғамбар алайҳиссаломнинг: “Жиҳоднинг афзали нафсга қарши курашиш (жиҳод қилиш)дир”, деганлар. Негаки, ҳар биримизнинг жисмимиз тўртта нарса билан имтиҳон қилинган. Улар руҳ, нафс, қалб ва бош (ақл)дир. Нафс бошга ўз ҳис-туйғуларини ишга солиш билан жисми дунё манфаати учун бир ишга буюриб, бир ишдан қайтаради. Руҳ охиратнинг фойдаси учун қалбни ишга солиб, инсон ақлини бир ишга буюради ва бир нарсдан қайтаради”, [2:4^а; 3:6^а] дея давом этдирган.

Дарҳақиқат, мазкур асарнинг бугунгача етиб келган қўлёзма нусхаларининг асосий қисми X/XVI асрларда кўчирилган. Шунга асосланиб, Дабусийнинг диний-фалсафий қарашлари айнан шу даврда оммалашганини хулоса қилиш мумкин [1:110]. Асарнинг Лалели ва Роғиб пошо фондларида сақланаётган қўлёзмаларининг электрон нусхалари Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази манбалар хазинасининг электрон базасида сақланмоқда.

Алломанинг илмий меросини ўрганиш ҳар барчамизга маънавий озуқа бериб, келажакда ҳар томонлама баркамол инсон ва аждодларимизга муносиб бўлишимизда ишончли манба бўлиб хизмат қилади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Зафар Нажмиддинов. Абу Зайд ад-Дабусий меросининг мовароуннаҳр фиқҳ илми ривожига тутган ўрни. –Т.: Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2019.
2. Абу Зайд Дабусий. Амадул ақсо. қўлёзма. Лалели фонди. № 1337.
3. Абу Зайд Дабусий. Амадул ақсо. 1745. қўлёзма. Роғиб пошо фонди. № 647.

Қурбонов Мухторжон
Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви
академияси тингловчиси
(Ташкент, Ўзбекистан)

МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТ ОРГАНЛАРИ ТАРИХИ, ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА БУГУНГИ КУНДАГИ ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСИЙ МЕЗОНЛАРИ

Тарихнинг зарварақларида “Андижон лафзи асли Андигон бўлган. Бу Форсистондан қўшулгондур. Чунончи, «бандигон» ёки «мардигон» дегандек, форсийда «гон» – «лар» ўрнида, «мардлар» ёки «озодагон» - «озодалар» деган сўздек, «Андигон» - «андилар» деган сўз. «Анд» турк уруғини(нг) ўзбекларини айтур. Бул ҳам форсийлар тарафидин айтилгон бўлиб, асли Андижон форсийлар, яъни эронийлар кулига ўтмасдан аввал ҳам бор эди. Чунончи, тарихи «Қутадғу билик»да ёзибдурки, Ўғузхоннинг Ҳиндустонга юргонининг зикрида айтур. Ўғузхон тамоми лашкари мўғуллар илан Талас ва Сарём келди. Тошканд ва Самарқанд ва Бухоро подшоҳлари саф тортиб уруша билмайдилар. Улуғ шаҳар ва маҳкам қалъаларга беркиндилар. Ўғузхон Тошканд ва Сарёмни ўзи қамаб олди. Туркистон ва Андижонга ўғлонларини юборди. Онлар 6 ойда Туркистон бирлан Андижонни олуб, атоси хизматиға келдилар, дейдур. Яъни Ўғузхон замонида ҳам Андижон шаҳар экан. Бу исм ила машҳур экан. Ўғузхон Бўқухонни(нг) саккизинчи бобосидур. Яъни Бўқухон Афросиёбни(нг) мўғулча исмидир. Афросиёб лақаби фарран осие деган сўздур. Фарғонани Афросиёб бино қилди. Фарғонадан аввал Қубо бино бўлди, Қубодни(нг) вақтида. Аммоки Андижонни(нг) қайси подшоҳни(нг) биноти эканлигига мўътамад тарих ва маълумотимиз бўлмагандан бул тарихларға иктифо қилинди.

Тарихи «Қутадғу»дан мустафод бўлурки, Андижон тўрт минг йилдан муқаддам, яъни Ўғузхон вақтида шаҳар бўдса андан аввал ҳам ободон шаҳар экан. Уғузхон ҳазрати Нух алайҳиссаломни(нг) тўққузунчи ўғилларидур. Валҳосилки, Андижон Фарғона шаҳарлари ичинда энг аввалги ва қадимийдур. Андин Афросиёб вақтига келганда, Афросиёб Турон подшоҳи бўлиб, Андижонни пойтахт қилиб, Кўниқдар шаҳридин гоҳо Тошканд ва Андижон келур экан. Аммоки, афвоҳи носда қариялар сўзидурки, Андижон асли Одинажондур. Одинажон Афросиёбни(нг) қизидурки, анга ўрда ва боғ бино қилиб бериб, ани(нг) исмига тасмия қилиб эди. Одинажонни тилда бузуб, ағлоти авом ила Андижон қилган, дейдурлар. Бар ҳар боб бир эски шаҳар бўлуб, неча мартаба бузулуб, яна обод бўлуб, табодули замон ва инқилоби овон илан тузалуб, бузулуб, обод бўлган эски шаҳардур. Аммоки, «Тарихи фаришта»да ёзилибдур-ки, Умаршайх ўғли Бобурхон Андижонга саккиз юз тўқсон тўққузунчи ҳижрийда ўн икки ёшида подшоҳ бўлди. Тарихи валодатиға шул тариқа назм қилибдур. 1030 ҳижрийдаги зилзилада Ахсикент бузулган. Зилзилада Андижон ҳам бузулган эди. Яна андин буён Русия тасарруфига ўтгандан сўнг тезроқ ободликка қадам қўйган эдики, 1316 ҳижрийда бўлган зилзила ҳаммани(нг) маълумидур. Анда яна зилзила бўлуб, бузулуб, ҳукуматдан имдодлар бўлиб, аввалгидан неча даража обод бўлган. Мундан аввалги ободлики билмак бўлган киши «Бобурнома» тарихини кўрса бўлур. Ерларини(нг) ҳосилдорлиги, саноатлари ҳаммаси Фарғона бобида

ёзилиб ўтди, тақдорга ҳожат кўрулмади. Бинобарин, сўзимиз татвил этмай, қаноат этдук” – дейди Исҳоқ тўра Ибрат домла "Тарихи Фарғона" асарида.

Тарихда ҳам қадимги давр (милоддан аввалги биринчи минг йиллик-милоднинг V асри). Бу даврда мамлакатимиз ҳудудида Бақтрия, Сўғдиёна, Катта Хоразм каби давлат бирлашмалари бўлган. Кейинчалик заминимизда аҳамонийлар ва македонияликлар ҳукмронлиги ўрнатилган. Сўнг Хоразм ва Довон давлатлари бўлган. Милоднинг бошларидан илк ўрта асрларгача Ўзбекистон ҳудуди Кушон подшолиги, Эфталлийлар давлати таркибида бўлган. Ушбу даврда Аҳамонийлар давлати қонунлари ва «Авесто» ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи асосий манба сифатида хизмат қилган.

Ўрта асрлар даври(VI асрдан XIX асрнинг ўрталаригача). Бу даврда мамлакатимиз ҳудуди Турк ҳоқонлиги, Араб халифалиги, Сомонийлар, Қорахонийлар, Ғазнавийлар, Салжуқийлар, Хоразмшоҳлар давлатлари, Мўғуллар салтанати, Темур ва темурийлар, Шайбонийлар давлатлари таркибида бўлган. Кейинчалик Ўзбекистон ҳудудида Хива, Бухоро ва Қўқон хонликлари ташкил топган. Ўрта асрларда ҳуқуқнинг манбаи сифатида урф-одат нормалари, шариат қонунлари, Чингизхон яссилари, Темур тузуклари, давлат бошлиқларининг фармонлари хизмат қилган⁴¹.

Википедия маълумотларига қараганда, “Андижон шахрининг пайдо бўлиши ва номининг келиб чиқиши ҳақида турли хил афсона ва ривоятлар мавжуд. Айрим манбаларда шаҳар номи „анди“, „адоқ“ („азоқ“) каби уругу атамалари билан боғуликлиги кўрсатилган. Бир вақтлар бу ерда андилар (ҳиндлар) яшаган ва шаҳарнинг номи „Андукон“ деб аталган, деган ривоят ҳам бор. Андижоннинг Арк қисмида (ҳозирги Бобур маҳалласи) ва Шаҳрихонда олиб борилган археологик қазилар натижасида 7-8 - асрларга оид буюмларнинг топилиши унинг Ўрта Осиёдаги кўҳна шаҳарлардан бири эканлигини тасдиқлайди. Ўрта асрларда шаҳар Арки мудофаа деворлари билан ўраб олинган. Араб халифалиги даврида Андукон дейилган. Андижон илк бор ёзма манбаларда 10-аср араб сайёҳлари Ибн Ҳавқал ва Муқаддасий асарларида Андукон шаклида қайд этилган. 11 – асрда шаҳар қорахонийлар ҳукмронлиги остига ўтган. 11-12 - асрларда Фарғўна водийсининг йирик савдо ва хунармандчилик марказига айланган.

Шаҳар мўғуллар истилоси даврида вайрон этилган ва манбаларда қайд этилишича, 13-аср охирида мўғул хонлари бўлмиш Тува ва Хайду томонидан қайта тикланган. 14-аср 70-йлариди Фарғона водийси билан бирга Амир Темур давлати таркибига кирган. 15-аср 2- ярмидан А. Темурийлар давлатига қарашли Фарғона вилоятининг пойтахти бўлган. Айниқса, Умаршайх Мирзо ва унинг ўғли Заҳириддин Муҳаммад Бобур даврида шаҳарда ҳўжалик, фан, маданият ривож топган.

Хусусан, Бобур ўзининг машҳур „Бобурнома“ асарида Андижонни шундай таърифлайди: „Ошлиғи вофир, меваси фаровон, қовун ва узуми яхши бўлур. Қовун маҳалида полиз бошида қовун сотмоқ расм эмас... Андижон ношпотисидан яхшироқ ношпоти бўлмас. Мовароуннаҳрда Самарқанд ва Кеш (ҳозирги Шаҳрисабз) кўргонидин сўнгра мундин улўроқ кўргон йўқтур. Уч дарвозаси бор... Тўққиз тарнов сув кирар. Бу ажабдурким бир ердан ҳам чиқмас... Эли турқдур“ 1504 йилдан Андижон шайбонийлар

⁴¹ Ҳ.Б. Бобоев, юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон давлат ҳуқуқи ва тарихи. Тошкент давлат юридик институти, 2009 йил.

қўл остига ўтган. 1710-йилда Қоўқон хонлиги таркибига кирган ва Россия Қўқон хонлигини бутунлай босиб олгунига қадар (1876 йил гача) беклигининг қароргоҳи бўлган. Шаҳарда маҳаллий халқдан ташқари Шарқий Туркистон (Синсзян)дан келганлар ҳам яшаган. Шаҳар ўзининг хунарамандчилик буюмлари, ип ва ипак газламалари билан шуҳрат қозонган. 19-аср ўрталарида Андижон 4 даҳага бўлинган эди. Ҳар бир даҳанинг қозиси, мингбошиси бўлган. Даҳалар оқсоқол бошлиқ маҳаллаларга бўлинган. 1877-йилда шаҳарга ёндош Хоқон (Хақан) қишлоғи аҳолиси кўчирилиб ўрнида рус босқинчилари учун янги шаҳар қурила бошлади.

Тарихдан маълумки, Андижон вилояти ўзига хослиги билан шаҳарчилик, бошқарувда ўз тажрибаси ва ютуқларига эга бўлган.

Бугунги кунда ҳам мамлакатимизда “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида давлат бошқаруви органлари тизимини тубдан такомиллаштириш, марказий ва ҳудудий ҳокимиятлар фаолиятини яхшилаш, уларни юқори профессионализмга ва замонавий тафаккурга эга бўлган малакали кадрлар билан таъминлаш масалалари устувор йўналиш сифатида белгиланган.”⁴²

Шу боисдан, турли зиддиятлар кучайиб бораётган бугунги дунё манзараларида ёшларимизнинг маънавий иммунитетини кучайтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказиш ҳар қачонгидан ҳам долзарброқ эканини инobatга олиб мамлакатимизда ёшлар масаласида Президентимиз томонидан муҳим беш ташаббус ғоясининг ёшларни касб-ҳунарга ўргатиш ҳамда бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш, соғлом муҳит ва соғлом тарбияни шакллантириш, ахборот технологиялари ва мўсиқага ошно қилиш, китобхонлик маданиятини оширишга катта эътибор қаратилди.

Юртимизда 1992 йил 4 январда “Ўзбекистон Республикасининг маҳаллий ҳокимият идораларини қайта ташкил этиш тўғрисида”ги Конституциявий қонуни қабул қилинди. Шу қонун маҳаллий миқёсда вакиллик ва ижро ҳокимияти бўлишини белгилаб, ижро ҳокимияти бошлиғи сифатида “Ҳоким лавозимини ўрнатди. Ҳоким-миллий давлатчилик тарихимизда олдин ҳам мансабдор шахс сифатида фаолият кўрсатган, ammo кейинчалик социалистик тузум таъсирида бу лавозим тузулган эди. Айнан шу даврда бошқарувнинг миллий хусусиятларини акс этган самарали меҳанизмни жорий қилиш муҳим аҳамият касб этар эди ва бу жараёнда ҳокимлик институтининг ўрнатилиши тўғри танланган қадам бўлди. Шу даврда ҳокимиятнинг янги тизимига тамал тоши қўйилди.

Эътибор қаратилиш лозимки, маҳаллий давлат ҳокимиятининг таркибий тузилиши, унинг элементлари давлат ва жамият ривожининг ҳозирги босқичида олдида турган мақсади ва вазифаларига боғлиқ ҳолда шаклланади. Шу билан бир қаторда, ҳар бир ҳокимият тармоғининг институтциявий асосларига мос ҳуқуқий асоснинг мавжудлиги ушбу соҳадаги ижтимоий муносабатларга, бошқа органлари билан ўзаро муносабатга аниқлик, тартиблилик бағишлайди. Шундан келиб чиққан ҳолда, маҳаллий вакиллик ва ижроия ҳокимияти органларининг вужудга келиши ва ривожланиши билан боғлиқ ҳуқуқий асосларга ҳам шундай талаб қўйилади.

⁴² О.Турғунов. Ш. Асадов. Д. Бекжанов Маҳаллий бошқарув дарслик. Тошкент, 2017. 9-бет

Мамлакатимизда 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси маҳаллий давлат ҳокимиятининг асосларини белгилаб берди.

Жумладан, Конституциямизнинг XXI боби “Маҳаллий давлат ҳокимияти асослари” деб номланган бўлиб, мазкур бобда акс эттирилган моддаларда маҳаллий давлат ҳокимияти органлари тизими, ваколатлари, ҳуқуқий мақоми мустаҳкамлаб қўйилган.

Бош Қомусимиздан келиб чиқиб, 1993 йил 2 сентябрда «Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида»ги, 1994 йил 5 майда «Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгашларига сайлов тўғрисида»ги, 2004 йил 2 декабрда «Халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар Кенгаши депутатининг мақоми тўғрисида»⁴³ги қонунлар қабул қилинди.

Бундан ташқари, асосий Қонунимизда маҳаллий давлат ҳокимияти таснифи белгилаб берилган бўлиб, унинг маҳаллий вакиллик ва ижроия ҳокимиятига бўлиниши, уларнинг ҳар иккаласини тегишлигига қараб вилоят, туман ва шаҳар ҳокимлари томонидан бошқарилиши мустаҳкамланган.

Ижро этувчи ҳокимият-бу мансабига кўра ягона ва яхлит бўлган давлат ҳокимиятининг ҳокимиятлар бўлиши принципига мувофиқ бўлган бир тармоғи бўлиб, у қонунларнинг ижросини таъминлаш юзасидан ижро этиш ва фармойиш бериш фаолиятини амалга оширадиган давлат органлари ва бошқа давлат тузилмалари мажмуидан иборатдир.

Шў ўринда айтиш жоизки, Ўзбекистонда маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ислухатлари туфайли 1993 йил 2 сентябрда қабул қилинган “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонунида мустаҳкамланганидек, ҳокимлар жойларда ҳам вакиллик, ҳам ижро ҳокимиятига бошчилик қиладилар.

Бундан ташқари, айрим МДХ давлатлари конституцияларда маҳаллий давлат ҳокимиятининг бошқарув органлари ва бу органлар раҳбарларнинг ижро ҳокимияти тизимига кириш-кирмаслик масаласи ҳам ўзига хос хал этилган.

Шу муносабат билан, айрим Марказий Осиё давлатлари конституцияларининг ушбу масалага дахлдор нормаларига бир назар ташлаш мақсадга мувофиқ.

Масалан, қўшни давлатлардан Туркманистон конституциясининг 6-бобида “маҳаллий ижро ҳокимияти” деб номланиб, ушбу бобнинг 80-моддасида вилоятларда вилоят ҳокими, шаҳарларда-шаҳар ҳокими, этрапларда-этрап⁴⁴ ҳокими ва арчинлар жойларда ижро ҳокимиятини амалга оширишлари мустаҳкамланган. Шу конституциявий қоида билан Туркманистон Конституцияси ижро ҳокимияти тизимига маҳаллий ҳокимларнинг кириши белгиланган.

Тожикистон Конституцияси ижро ҳокимиятининг маҳаллий бўғини тўғрисида нормага эга бўлиб, унда маҳаллий ҳокимиятга бағишланган 6-боб 78-моддасида, “Жойларда ижро этувчи ҳокимиятни Президент вакили-вилоят, шаҳар ва туман раиси амалга оширади”, деб мустаҳкамланганлигини кўришимиз мумкин.

⁴³ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2005й. 3-4-сон,20-модда. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 2018.й. 19.04, 03/18/476/1087-сон

⁴⁴ Этрап-Туркманистондаги маъмурий-худудий бирлик

Мамлакатимизда маҳаллий ҳокимият органлари тизимини шакллантириш ва ислоҳ этишда 1992 йилнинг 4 январда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси маҳаллий ҳокимият органларини ислоҳ қилиш тўғрисида”ги қонуни билан бирга 1993 йил 2 сентябрда қабул қилинган “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонун катта аҳамиятга эга бўлди.

Маҳаллий давлат ҳокимияти органларига Конституция ва қонунларга мувофиқ ўзлари маъсул бўлган ҳудудларда ижтимоий-иқтисодий, маъданиймаърифий ривожланишга маъсул бўлишлари юклатилган.

Ижро ҳокимиятининг жойлардаги бўғини ҳам ҳисобланган ҳокимлар фаолиятининг мақсади Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, қонунлари, Президент Фармонлари, Ҳукумат қарорлари ҳамда юқори турувчи Халқ депутатлари туман, шаҳар ва вилоят Кенгашлари ва ҳокимларнинг қарорлари ижросини таъминлашга қаратилган⁴⁵.

Ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларида кенг эркинлаштириш жараёни кетаётган бир пайтда, маҳаллий давлат органлари, жумладан, маҳаллий бошқарув органлари олдида ҳам қатор муҳим, мазмунан янги вазифалар қўйилмоқдаки, бу ҳолат мазкур органлар фаолиятини ҳам такомиллаштиришни, вазифаларни қайта ташкил этишни тақозо қилмоқда. Шу ўринда “Давлат хизмати тўғрисида”ги қонуннинг қабул қилинишига жуда катта эҳтиёж мавжуд.

газета.uz

сайтнинг маълум қилишича Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотининг экспертлари давлат хизматини ислоҳ қилиш бўйича куйидаги тавсияларни илгари сурмоқда:

- Давлат хизмати тўғрисидаги ягона қонунни қабул қилиш ва унинг самарали ижро этилишини таъминлаш;

- Давлат хизматига кадрларни танлов асосида саралаб олиш, шунингдек, шахсий ва касбий фазилатлари асосида уларни лавозимга тайинлаш ва хизмат бўйича мансабини ошириб боришнинг шаффоф тизимини жорий этишни кўзда тутувчи қонун ҳужжатларини қабул қилиш. Маъмурий ва сиёсий мансабдор шахсларни аниқ белгилашни жорий этиш;

- Давлат хизматчилари меҳнатига ҳақ тўлашнинг шаффоф тизимини жорий этиш, жумладан ойлик маошнинг ўзгарувчан қисмини тўлаш тартиблари ва тамойилларини белгилаш;

- Қонунда манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш ва уни тартибга солиш тўғрисидаги асосий меъёрларни белгилаш ҳамда қонунчиликнинг тегишли меъёрларини амалда лозим даражада қўллашни таъминлаш. Манфаатлар тўқнашуви тўғрисида хабар бериш ҳамда уни тартибга солиш бўйича қоидабузарликлар учун маъмурий жавобгарликни белгилаш. Мансабдор шахс томонидан манфаатлар тўқнашувида ўзининг ёки яқин кишиси учун манфаат олиш мақсадида қарор қабул қилингани учун жиноий жавобгарликни жорий этиш имкониятларини кўриб чиқиш;

- Қонунда мансабдор шахсларнинг (жумладан сиёсий хизматчилар, судьялар, прокурорлар) даромадлари, мол-мулклари, мажбуриятлари, харажатлари

⁴⁵ Й. Жумаев. Вилоят, туман ва шаҳар ҳокимларининг ҳуқуқий ҳолати. Автореферат. Тошкент 2014 й

ва манфаатларини мажбурий тартибда декларация қилишнинг ягона тизимини жорий этиш. Унда онлайн ариза бериш, декларацияларни эълон қилиш (қонунда кўзда тутилган баъзи истиснолардан ташқари), декларацияларни хатарлар асосида мажбурий текширувдан ўтказиш, декларация топширмаганлик ёки нотўғри маълумотлар тақдим этганлик учун амалий натижа берувчи чоралар кўзда тутилиши лозим. Шунингдек, мансабдор шахслар декларацияларини йиғиш, текшириш ва эълон қилиш учун жавобгар органи белгилаш (ташқил этиш), бундай органига керакли даражада мустақиллик, ресурслар ва ваколатлар бериш;

- Коррупция ҳолатлари тўғрисидаги хабарларни эълон қилиш амалиётини кенгайтириш, жинойатларни фош қилувчилар ҳимоясини таъминлаш, давлат хизматчилари хабарлари мониторингини юритиш, тренинглари ўтказиш, ахборот каналларини такомиллаштириш, аноним хабарларни кўриб чиқишга рухсат бериш. Жинойатларни фош қилувчилар тўғрисидаги қонунчиликни такомиллаштириш, статистик маълумотларни тўплаш;

- Сиёсий мансабдор шахслар фаолиятида манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш тўғрисидаги меъёрларни амалиётга ишончли қўллаш ва бошқалар.

Шу боис ҳам, давлат бошқаруви соҳасида амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим бир таркибий қисми бўлиб, маҳаллий бошқарув органларининг ва ҳудудий давлат органларининг тузилмасини такомиллаштириш ҳисобланмоқда.

Маҳаллий бошқарувдаги амалиётга эътибор қаратилса, ҳозирги кунда маҳаллий давлат органлари ўз фаолиятларини асосан қуйидаги масалаларнинг ечимига қаратмоқдалар:

- ижтимоий сиёсатни, жумладан, таълим, соғлиқни сақлаш, аҳолини ижтимоий ҳимоялаш соҳаларида амалга ошириш;

- уй-жой, коммунал хўжалигининг ишончли ва самарали ишлашини ҳамда идораларга қарашли аҳоли пунктлари ободончилигини таъминлаш;

- хусусий тадбиркорликни ривожлантириш учун қулай муҳит, аҳоли бандлигини кенгайтириш ва барқарор даромад манбаини шакллантириш учун зарур шароит яратиш;

- ер-сув ресурсларидан оқилоно фойдаланиш;

- бевосита хўжалик субъектларининг жойлашган ўрни ва аҳолининг яшаш жойига кўра бизнесга оид тартиб-қоидаларни амалга ошириш;

- фуқороларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ҳамда фуқоралик жамияти тузилмасининг самарали фаолият юритишига кўмаклашиш.⁴⁶

Бундан кўринадики, бугунги кунда ҳокимият органлари фаолиятини асосий мазмуни ижтимоий соҳага доир масалаларни ҳал этишга йўналтирилган.

Жойларда қонунлар ва қонунга мувофиқ чиқарилган Президент Фармонлари, ҳукумат қарорларининг ижросини таъминлашда маҳаллий ҳокимият органлари ҳал қилувчи рол ўйнайди.

Президентимизнинг 2020 йил 29 декабрда Олий Мажлисга Мурожаатномасида ҳам Андижон вилоятида ташқил этилган “IT-парклар” иш бошлаганини таъкидлаб ўтган

46 “Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида давлат бошқаруви ваколатларини чеклаш ва вазифаларини номарказлаштириш, Халқ сўзи 2004 й. май сони.

эди. Шунингдек, “Биз ўз олдимизга мамлакатимизда Учинчи ренессанс пойдеворини барпо этишдек улуғ мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимиз керак. Бунда, аввало, таълим ва тарбияни ривожлантириш, соғлом турмуш тарзини қарор топтириш, илм-фан ва инновацияларни тараққий эттириш миллий ғоямизнинг асосий устунлари бўлиб хизмат қилиши лозим.”⁴⁷

Бугунги кунда маҳалла нуфузини ошириш, аҳолини доимий даромадга эга қилиш, одамларнинг дарду ташвишини осон қилиш мақсадида “маҳаллабай” янги тизим жорий этилди. Унда уч бўғинли стратегия ишлаб чиқилган бўлиб, маҳалла раиси ва банк ходими (доимий вакил), иқтисодий блок ҳамда туман, вилоятлардаги мувофиқлаштирувчи гуруҳлардан таркиб топган. Президентимиз Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномада “Бундан буён маҳалладаги ишлар аҳолини, маҳалладаги ўсиш драйверини вазирлик, идоралар ва ҳокимликлар ишини баҳолашда бош мезон бўлади” – деб таъкидлаган эди.

Шу ўринда мамлакатни модернизация қилиш шароитида вилоят ҳокимларининг Президент томонидан маҳаллий Кенгашлардаги партия гуруҳлари билан маслаҳатлашган ҳолда тайинланишини амалиёти тугатилиб, ҳокимларнинг сайлаш амалиётини жорий этилишига бўлаётган ҳаракатлар ушбу тизимнинг янада демократлашувини таъминлашга қаратилганлигини таъкидлаш зарур. **Давлатимиз раҳбари: «Бир кунмас бир кун, ҳудуддаги халқнинг ўзи ҳокимни сайлайди», дея таъкидлаган эди.** Маҳаллий кенгаш маҳаллий ижро ҳокимиятидан ажратилгач, қандай одам ҳоким бўлади, деган савол юзага келади.

Бугун профессионал парламентнинг юқори ва қуйи палаталари биргаликда, бу икки бўғинни ажратиш ва маҳаллий кенгаш раисини тайинлаш масалаларини «Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида»ги қонунга киритиш устида Адлия вазирлиги билан бирга иш олиб бормоқдалар⁴⁸.

Ҳокимларнинг лавозимга белгиланиши борасида хорижий давлатлар тажрибасида қуйидаги фактларни келтириш мумкин. Масалан, Россия Федерациясида ҳам 2004 йилдан бошлаб РФ субъектларининг раҳбарлари губернаторлар РФ Президенти томонидан тайинланадиган тартиб жорий этила бошланди. Бундай тартиб, ислоҳат ташаббускорлари фикрича мамлакатнинг бирлигини мустаҳкамланишига хизмат қилиши керак.

Бош Қомусимиз - Конституцияда белгиланган қоидалар 1993 йил 2 сентябрда “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги қонунда ривожлантилиб, унда маҳаллий давлат фаолиятининг иқтисодий, молиявий асослари, маҳаллий давлат ҳокимияти вакиллар органлари структураси ва улар фаолиятининг ташкилий асослари, маҳаллий ижроия ҳокимияти органлари, халқ депутатлари Кенгашлари ва ҳокимларнинг ваколатлари, халқ депутатлари Кенгаши ва ҳокимининг фаолиятида қонунийлининг кафолатларига оид нормалар ўз аксини топди.⁴⁹

⁴⁷ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2020 йил, 30 декабрь сони

⁴⁸ www.kun.uz / 2021 й.

⁴⁹ Маҳаллий давлат органларининг ҳуқуқий асослари. Ш.Х. Файзиев. Ўзбекистон Республикаси

Мазкур ҳужжатларнинг самарадорлигини уларни тайёрлашга ва тажрибада ишлаб чиқилган ва қонунчиликда кўрсатилган маълум талабларнинг бажарилишига кўп жиҳатдан боғлиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, мамлакатимизда вилоят, туман, шаҳар ҳокимлик ва уларнинг ўринбосарлари институниг жорий қилиниши ва унинг фаолиятининг ҳуқуқий асосларининг яратилиши мамлакатимизда маҳаллий давлат бошқаруви тизимини ислоҳ этишининг муҳим босқичи бўлди. Айниқса, ёшлар ва маънавий-маърифий масалаларда ҳоким ўринбосарининг ваколатлари, меҳнат ва самарадорлигини оширишда “маҳаллабай” янги тизимнинг жорий қилингани, маҳаллада яшайдиган ёшлар, уюлмаган ёшларнинг ижтимоий масалаларини ҳам ечимини топишда натижали дастур сифатида хизмат қилмоқда.

Мусахонов Шукуруллохон
магистрант
Самаркандский государственный университет
(Самарканд, Узбекистан)

ЗАРАФШОН ВОҲАСИ МАДАНИЯТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Аннотация. Мақола Зарафшон водийси аҳолисининг полеолит даври тарихи, қазишма ишлари даврида топилган топилмалар асосида уларнинг маданиятини ўрганиш бўйича олиб борилган тадқиқот ишлар ҳақида

Калит сўзлар: Самарканд, Селенгур ғор, макон, археологик топилма, маданий қатлам, меҳнат қурол, маданият, ашёлар, қирғич, пичоқ, ранга, тешгич, найза.

ИЗУЧЕНИЕ КУЛЬТУРЫ ЗАРАФШАНСКОЙ ОАЗ

Аннотация. В статье описывается об истории населения Зарафшанской долины в период палеолита, изучении их культуры по материалам раскопок.

Yana bir ajoyib udumimiz – o'zbekning salomi to'g'risida ikki og'iz gapirish joyizdir. O'ylab qaralsa, o'zbekning «Assalому alaykum» degan kalomida eying ma'no borligini ko'rish mumkin. Albatta, salom berish va mehmondo'stlik barcha millatlarda ham ozmi-ko'pmi bor. Ammo tanishga ham, notanishga ham salom berish, tanishni ham, notanishni ham o'zni kelganda uyga taklif etib, bir eying choy, boshpana berish faqat bizning millatimizga xos bo'lgan go'zal odat edi, desak noto'g'ri gapirmagan bo'lamiz. Afsuski, turg'unlik yillarida bir qator byurokrat mansabdorlar xalqimizning bu go'zal odatlarini o'z g'arazli maqsadlari yo'lida suuiste'mol qildilar. Natijada xalqimizga tuhmat, malomat toshlari otildi, izzat-nafsi yerga urildi. Turg'unlikda o'tgan davr yillaridagi salomlarda ham, mehmondorchiliklarda ham mayda mulkchilik psixologiyasi – amaliga, mavqeiga, cho'ntagidagi puliga qarab turlicha salom berish va turlicha mehmondo'stlik ko'rsatish hollari paydo bo'ldi. Boshqacha aytganda, bu borada ham manfaatdorlik birinchi o'ringa chiqib qoldi. Hozir bu hatto kelin-kuyov tanlashlarda ham o'z aksini topayapti. Tanish-notanishga salom berish, mehmondo'stlik ko'rsatish asli inson qadr-qimmatini yuqori qo'yish natijasida kelib chiqqan odatdir. Endilikda shu go'zal odatlarimiz ham darz ketganligini, ming tilloga arzigulik odam manfaatparastlik oqibatida bir tiyinga arzimas holga tushib qolayotganligini ko'rib ensang qotadi. Qisqasi, stalinizm va uning uzluksiz davomi bo'lgan turg'unlik yillarida milliy urf-odatlar, an'analarga putur yetdi. Masalan, xalqimizga xos bo'lgan xushmuomalalik, andishalilik, bolajonlik, kattani hurmatlash, kichikka muruvvat ko'rsatish singari odatlarimizga, to'y-ma'rakalarimizdagi aslida inson qadr-qimmatini yuqori tutish natijasida kelib chiqqan rasm-rusmlarimizga nazar-pisand qilmay qaraldi. Ularni diniy yoki o'tmish sarqiti, hatto eying tuzum belgilari deb e'lon qilindi. Bu odatlar o'rnini ko'plab sun'iy, turmushimizdan hamon keng o'rin ololmagan yangicha «urf-odatlar egalladi. O'zbeklarda bolalarni tarbiyalashda dasturxon atrofi eng qulay joy sanalgan. Bu yerda kattalar yoshlarga pand-nasihatlar qilib, nima yaxshiyu, nima yomonligini uqtirib borishgan. Bundan tashqari bizda milliy tarbiya asrlar mobaynida diniy tarbiyaga qo'shib olib borilganligi ham sir emas. Ota-ona nasihatini bajarmaslik eyi gunoh hisoblangan, shuning uchun bolalar nima qilib bo'lsada uni bajarishga intilganlar. Yoshlar oqar suvni bulg'amaslikni, daraxt o'tqazishni, non-oshni to'kmay, isrof qilmay yeyishni, jonivorlarga ozor bermaslikni ota-onalaridan o'rganishgan. Tarbiyada ota-onaga munosabat alohida o'rin tutgan. Masalan, otaga tik boqma (u qiblagoh), oxirating kuyib ketadi; ona volida, uni rozi qilish kerak, deb uqtirib borilgan. Hozir esa ota-ona va bolalar o'rtasidagi «parda» ancha ko'tarilib qoldi. Uni bundan 60 yil avvalgisiga qiyoslab bo'lmaydi. Ota-onasini faqat undan moddiy va ma'naviy manfaat ko'rayotganliklari uchun hurmat qiladigan yoshlar tobora ko'payib borayapti. Ota-onaga yuzsizlik qilish, ularni xo'rlab, qarovsiz qoldirish bugungi kunimizning oddiy hodisasiga aylanib qoldi. Islom dinini tanqid qilamiz deb u bilan chirmashib ketgan umuminsoniy qadriyatlarni ham, din umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi ekanligini ham rad qildik. Turmushimizning barcha sohalarida ruslarga va Ovro'pa madaniyatiga ko'r-ko'rona taqlid boshlandi. Buning oqibatida mamlakatdagi aksariyat ittifoqdosh jumhuriyatlarda bo'lganidek, bizda ham milliy o'ziga xosligimiz jadallik bilan yo'qola bordi. 1989 yilda O'zbekistonda ham o'tkazilgan «Go'zallik konkursi»ni olib ko'raylik. Bu konkursdagi eng asosiy nuqson shundaki, unda milliy madaniyat va tarbiyaga xos «mezon» – o'lchov tushib qolgan va qo'pol ravishda buzilgan. Materialistik

dialektika ta'lim berib o'rgatadiki, narsa va hodisalarga, odamlarga baho berishda ularning tashqi ko'rinishiga, shakliga yoki yuzada ko'rinib turgan hodisaga qarab emas, balki ichki mazmunga, mohiyatga qarab baho berish zarurdir. Hodisa tashqarida yashaydi, ko'rinib turadi, mohiyat esa yashiringan bo'ladi. Hodisaga, shaklga ishonib ish ko'rish nazariyada qo'pol chalkashliklarga olib keladi. Tashqi go'zallik bu – shakldir, hodisadir. Ichki go'zallik esa mazmundir, mohiyatdir. Tabiat va jamiyatda, inson tafakkurida va butun jabhada mazmun hodisani belgilaydi. Albatta, shaklni mazmundan ajratib, uni ahamiyatsiz narsa deyish mumkin emas. Biroq mazmun birlamchi va belgilovchi, shakl esa hamma vaqt ikkilamchidir. Sharq xalqlari tushunchasi bo'yicha husnini bozorga solish, o'zini ko'z-ko'z qilish odobsizlik sanaladi, oq bilak tannozlar, oyna oldida soatlab o'tirib pardoz-andoz qiluvchi, o'ziga oro beruvchi ayollarni xalq hurmat qilmagan. Sharq xalqlarining tushunchasi bo'yicha haqiqiy go'zallik mehnatda, shirinsuxanlikda, ichki, keng ma'naviy boylikda, odobli va axloqli bo'lishdadir. Albatta, milliy madaniyatni va tarbiyani mutlaqo o'zgar olmay turadigan narsa deb tushunish yaramaydi. Makon va zamondagi barcha o'zgarishlar tarbiyaga, umuman madaniyatga ham taalluqlidir. Ammo bunda milliy o'lchovni unutmaslik kerak. Shunday qilib millatlararo munosabatlardagi hozirgi muammolar haqiqiy ijtimoiy jarayonlarga to'g'ri baho bermaslik bilan bog'liq. *KPSS Markaziy Komitetining sentyabr (1989 y.) Plenumida milliy masalaga bag'ishlab qabul qilingan harakat dasturida bu haqda shunday deyilgan edi: «Milliy o'ziga xoslikka beparvolik, ko'pgina ijtimoiy muammolarning hal etilmaganligi milliy ongda og'ir aks etdi, ranj-alam tuyg'ularini keltirib chiqardi, bundan ko'pincha vaziyatni keskinlashtirish uchun foydalanildi, milliy ekstremizm uchun hayotbaxsh muhit vujudga keldi. Bularning hammasi mamlakatning bir qancha mintaqalarida milliy muammolarni keskinlashtirib yubordi, bu sohada to'planib qolgan ziddiyatlar boshlangan qayta qurish jarayonini chigallashtirdi».* Milliy jumhuriyatlar tashkil etish bahonasida O'rta Osiyo xalqlarini bo'laklarga ajratib yuborib, aslida ilgari yagona O'rta Osiyoning bir butunligiga raxna solindi. Bu esa bugungi kunda kelib O'sh, Farg'ona voqealari singari noxush hodisalarning paydo bo'lish sabablaridan biridir. Qayta qurish barcha millatlar madaniyatidagi oyoq-osti qilingan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni qayta tiklashga yo'l ochdi. Endilikda bu imkoniyatlardan qay darajada samarali foydalanish har bir millatning uquvi va idrokiga, hissiyotlarga ortiqcha berilmay, amaliy tadbirlar belgilay bilishiga bog'liq. Har bir xalqning rivojlanishida fanning roli alohida ahamiyatga egadir. Fanning kelajagi esa yosh avlodning qanday tarbiyalanishiga va qanday o'qitilishiga bog'liq. Bunda birinchi navbatda maktab ishida ilgari yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishga asosiy e'tiborni qaratish kerak. Eski yozuvda bitilgan tariximizni, yozma merosimizni qiynal olmay o'qiydigan yoshlarimiz qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi. Albatta, eying 70 yil mobaynida tarbiya sohasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni qisqa muddatda bartaraf etish qiyin. Ammo bu xato va kamchiliklarni tuzatish uchun hozirdan g'ayrat bilan kirishish muhimdir.

FOYDALANGA ADABIYOTLAR:

1. "Axloqshunoslik" fanidan mustaqil ta'lim uchun uslubiy qullanma, 1995 yil, Pulatova D.A
2. Islom Karimov –Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, Toshkent –Ma'naviyat 2008-yil.
3. Karimov I.A. «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat». Toshkent: O'zbekiston 1992.
4. Mirqosimov M. Axloqiy tarbiya va qadriyatlar. T.: 1996 y.

Haydarov M. E.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori,
Jabborova Yulduzxon Hasan qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti
(Tashkent, Uzbekistan)

**TA'LIM MUASSASALARINI BOSHQARISHDA RAHBARNING O'RNI,
ROLI VA PEDAGOGIK QOBILIYATI**

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim muassasalarini boshqarishda rahbarning o'ri, roli va pedagogik qobiliyati rivojlantirishga qaratilgan fikr va mulohazalar yoritilgan bo'lib, bunda rahbarning pedagogik, didaktik, nutqiy, tashkilotchilik va kommunikativ qobiliyatlarini hamda rahbar shaxsiga qo'yilgan talablarni ko'rish mumkin.*

Tayanch so'zlar: *Rahbarlikning lug'aviy ma'nosi, pedagogik qobiliyat, didaktik qobiliyat, nutqiy qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyat va kommunikativ qobiliyat, rahbarning umumiy xislatlari, mas'uliyat.*

Аннотация. *В данной статье освещаются размышления и рассуждения, направленные на развитие роли, роли и педагогических способностей руководителя в управлении образовательными учреждениями, в которых можно увидеть педагогические, дидактические, речевые, организаторские и коммуникативные способности руководителя, а также требования, предъявляемые к личности руководителя.*

Ключевые слова: *лексическое значение лидерства, педагогические способности, дидактические способности, речевые способности, организаторские способности и коммуникативные способности, общие качества руководителя, ответственность.*

Annotation. *In this article, the role, role and pedagogical abilities of the leader in the management of educational institutions are reflected in the development of the views and comments, and the pedagogical, didactic, speech, organizational and communicative abilities of the leader as well as the requirements for the leader.*

Key words: *the lexical meaning of leadership, pedagogical ability, didactic ability, speech ability, organizational ability and communicative ability, general qualities of the leader, responsibility.*

Zamonaviy ta'lim tizimi tobora yangilanib borar ekan, tez o'zgarayotgan, murakkablashib borayotgan bu olamda qo'yilayotgan zamonaviy talablar asosida ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatishga to'g'ri kelmoqda. Ayni paytda ta'lim tizimida rahbarlikning ish uslublari, boshqaruv madaniyati va buning natijasida sifat o'zgarishlari uchun imkoniyatlar yaratuvchi pedagogik, boshqaruv yangiliklari paydo bo'lmoqda. Bularning barchasi ta'lim va uning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan sifatini boshqarish masalalarining echilishi murakkablashuviga olib keladi va bu esa muammoni hal qilishning zamonaviy asoslangan usullariga ehtiyoj tug'diradi. Albatta,

bu o'zgarishlar ta'lim muassasasi rahbarlaridan juda keng ko'lamda tashkilotchilik, yaratuvchanlik boshqaruv menejmentini egallaganlikni talab etadi. Shu ma'noda ta'lim muassasasi rahbarlarining o'rni va mas'uliyati juda kattadir.

Rahbarlikning lug'aviy ma'nosi – zaruriy xislatlarni, avvalo, o'zida shakllantirib, so'ngra o'z faoliyatida shu xislatlarni namoyon qilish orqali jamoaga o'rnak ko'rsatib, belgilangan maqsadni amalga oshirishga jamoani jalb etishni bildiradi. Chunki jamoa birinchi galda rahbarlik salohiyatini uning ma'naviyati, yuksak madaniyati va xalqparvarligi bilan o'lchaydi. Shu bois rahbar kadrlarni tanlash, ularni malaka oshirish kurslarida muayyan boshqaruv tayyorgarligidan o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni samarali boshqarish barcha o'quv yurti rahbarlarida pedagogik qobiliyatlarning shakllanganlik zaturiyatini belgilaydi. Chunki pedagogik qobiliyatlar ta'lim jarayonini ishtirokchilari bilan suhbatda turli xil tushuntirish, ko'rsatmalar berish, xodimlarning faolligini oshirishda ularning o'ziga xos hususiyatlarini inobatga olgan holda munosabat bildirish va boshqarish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarlar faoliyatiga tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ijodiy, kommunikativ, boshqaruv hamda boshqa ko'nikma va malakalar qatori pedagogik qobiliyat alohida o'rin tutadi.

Har qanday ta'lim muassasasining asosiy vazifasi ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni takomillashtirish negizi boshqariladigan ob'yekt va boshqaruvchi sub'yek tizimlaridan tashkil topadi. Bu tizim o'qituvchilar, pedagogik xodimlar (ob'yekt) va rahbarlar (sub'yekt) o'rtasidagi aloqa, ya'ni jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi.

Demak, ta'lim muassasasini boshqarish jamoa a'zolarini hamda ularni faoliyatini boshqarishdan iborat bo'lib, ular o'z navbatida ta'lim jarayonini va vositalarini boshqaradilar. Boshqaruv yuqori saviyada olib boriladigan muassasalarda:

Intizom, pedagoglarni mehnat unumdorligi, ta'lim jarayoni samaradorligi, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichi yuqori bo'ladi, jamoa a'zolari faoliyatida majburiy itoatkorlik o'rnini ijodiy yondashuvlar egallaydi.

Ta'lim muassasalarini zamonaviy talablarga javob berishi, rivojlanishi uchun pedagog xodimlar o'rtasidagi ish taqsimotini to'g'ri yo'lga qo'yish, ularni o'z navbatida malakasini oshirish va qayta tayyorlab borish, xodimlar faoliyatini to'g'ri baholay bilish va rag'batlantirib berish, ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga imkoniyatlar yaratish hamda boshqaruv jarayoniga innovatsion yondashuvlar texnologiyalarini loyihalashtirish va joriy etish rahbarlarning bilimi, pedagogik va kasbiy mahoratlari bilan birga ularning boshqaruv qobiliyatlariga ham bog'liqdir.

Qobiliyat – bu rahbarga; intellektual, kasbiy malaka va ko'nikma, chidamliqlik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, tashkilotchilik, o'z fikrini erkin bayon eta olishi, notiqlik, ishontira olish, nazorat, kuzatuvchanlik, talabchanlik, xotirada saqlab qolish, munosabatda faollik, pedagogik ta'sir eta bilishi, boshqaruvchilik, liderlik xususiyatlari shakllangan bo'lishi kerak.

Pedagogik qobiliyat: 1. Didaktik qobiliyat. 2. Perseptiv qobiliyat. 3. Nutq qobiliyati. 4. Tashkilotchilik qobiliyati. 5. Kommunikativ qobiliyatlar.

Pedagogik qobiliyat – bu boshqaruvda rahbar uchun eng zaruriy xususiyatlardan bo'lib, rahbarning pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan shug'ullana olishini, pedagogik jarayonni tashkil eta olishi va boshqarishni belgilaydi.

Didaktik qobiliyat – bu jamoani boshqarishda, turli vaziyatlarda ko'zlangan maqsadga

erishish yo'llarini, vazifalarni ijrochilarga tushunurli qilib yetkaza olish, xodimlarda mas'uliyat hissini uyg'ota olish, maqsadga erishishda hammani jalb eta olish qobiliyatidir. Didaktik qobiliyatga ega bo'lgan rahbarlar ta'limda vujudga kelgan vaziyatlarni hal qilishda ijodiy yondashadi, o'z vakolati doirasida faoliyat ko'rsatadilar. Turli qarorlar qabul qilishda jamoa fikrini o'rganadi.

Perseptiv qobiliyat – jamoa a'zolarini, o'quvchilarni ichki dunyosiga kira bilish, psixolik kuzatuvchanlik, bo'ysunuvchilarning vaqtinchalik psixik xolatlarni nozik tomonlarini tushuna bilish qobiliyatidir.

Nutq qobiliyati – rahbar o'z fikrini, xis – tuyg'ularini nutq yordamida, shu bilan birga mimika va pantamimika yordamida aniq va ravshan qilib ifodalab berish hamda ularni faoliyatini ma'lum yo'nalishda o'zgartirib, kerak bo'lsa tashkil etib berish qobiliyatidir.

Rahbar o'z fikrini yoki topshiriqni mazmunini tushunarli tarzda yetkaza olishi zarur. Ba'zi xodimga bir og'iz so'z kifoya, ayrimiga uzoq tushuntirishga to'g'ri keladi. Rahbarning nutqi jonli, obrazli, aniq – ravshan, intonatsiyali, ifodali, emotsiyaga boy, dona – dona bo'lib, bunda stilistik va gramatik xatolar mutlaqo bo'lmasligi lozim. Shundagina rahbarni xodimlar tinglaydi, eshitadi va tushunadi.

Tashkilotchilik qobiliyati – bu jamoani uyushtira bilishi, jamoada ahillik, birdamlik va xamkorlikni vujudga keltirish, jamoani jipslashtira olishi, o'zining shaxsiyligini to'g'ri tashkillash qobiliyati, rejalashtirish qarorlar qabul qilish va nazorat.

Kommunikativ qobiliyati – xodimlar bilan muloqotda bo'la olishi, muloqotni to'g'ri tashkil etish, xodimlar bilan to'g'ri yo'l topa bilish, pedagogik takti mavjudligiga qaratilgan qobiliyatdir. Pedagogik taktida har qanday xodimni rag'batlantirishda yoki pand – nasihat qilishda, jazolashda qo'llaniladigan chora – tadbirlarni his eta bilishidan iborat. Qobiliyatli rahbar xodimga e'tibor bilan qaraydi, ularning psixologik xususiyatlari bilan hisoblashadi. Bunda eng muhimi – xodimlarga ta'sir etishni eng qulay usullarini topa bilish, aniq pedagogik vazifalarni hisobga olish, psixolik xolatlariga e'tibor berish zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning rahbar haqida "Rahbarlik qobiliyati ega bo'lgan, qattiqqo'llik hususiyatiga ega, insofli, diyonatli odamlarnigina rahbarlik to'nini kiyishga ma'naviy xaqqi bor. Elim, yurtim deb yonib yashash kerak, degan shior eng avvalo ana shu rahbarning hayotiy maslagi bo'lmo'g'i lozim" degan edi.

Xalqimizning milliy an'analari, udumlari, turmush tarzining tahliliga asoslanib aytilish mumkin-ki, bugungi kunda barcha insonlar kabi rahbarlarda shakllangan quyidagi boshqaruv qobiliyatlarini va jobjiy xislatlarni rivojlantirish zarurdir.

Shaxsning umumiy xislatlari: yoqimlilik, jozibadorlik, dilbarlik, ko'rkamlik, xurmatga sazovorlik, buyuklik, salohiyatlilik, jiddiylik, bosliqlik, odillik moslashuvchanlik, madaniyatlilik, odoblilik, ziyolilik, tabiiylik, oddiylik.

Axloqiy xislatlar: odamiylik, qanoatlilik, jon kuyarlik, mehribonlik, olijanoblik, oliy ximmatlilik, baynalminallik, go'yaviy sodiqlik, kechirimlilik, andishalilik, shaxsiy manfaatidan ijtimoiy manfaatni ustun qo'ya olishlik.

Ishbilarmonlik, ishchanlik, uddabaronlik xislatlari: quntlilik, tirishqoqlik, mas'uliyatlilik, halollik, raqobatbardoshlilik, chaqqonlik, abjirlik, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, chidamlilik, sabr – toqatlilik, bardoshlilik, tejamkorlik,extiyotkorlik, sahiylik, mardlik.

Shaxsning irodalilik, zukkolik xislatlari: ziyraklik, esda saqlab qolishlik, ijodkorlik, tanqidiylik, qiziquvchanlik, ishqibozlik, diqqatlilik, bilimdonlik, saviyalilik, hozir javoblilik.

Extirosli xislatlar: o'zgalar yutug'idan quvonish, o'z ishidan qoniqish, baxtiyorlik, ko'tarinkilik, tantanavorlik, quvnoqlik, xhazil – mutoyibalilik, uyatchanlik, tortinchoqlik, mo'min – qobillik, diyonatlilik, ozodalik, nozik tabiatlilik. Bunday xislatlarni A.V. Petrovskiy bir yarim mingini sanab o'tgan. Rahbarning eng yuqori xislati insonlarni boshqarish mahoratidir. Rahbarlik uslublari va uning mazmun-mohiyati rahbar o'zining boshqaruv faoliyatida afzal bilgan va asoslangan barcha usullar va harakatning taktika va strategiyalaridan tashkil topgan tizimdir.

Rahbarlik uslubi – bu rahbarning xodimlarga nisbatan ta'sir ko'rsatish va ko'zlangan maqsadga erishishida xodimlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlardagi odatiy harakatlar bo'lib, quyidagilarga asosan aniqlanadi:

- qarorlar qabul qilish jarayonida xodimlarning ishtirok etish dajarasi;
- xodimlarning ma'lumotlar va axborotlar bilan ta'minlanishi;
- rahbar tomonidan qo'llanilaётgan uslublari, ya'ni, u yoki bu masalani hal qilishda uning o'ziga xos yondashishi.

Ta'lim muassasasi rahbari ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshadigan muassasaning birinchi kishisi, bosh mutasaddidir. Uning ta'lim muassasasini boshqarishda qator vazifalari va faoliyat turlari mavjud. Avvalo, ta'lim muassasasi rahbari – rahbar boshqaruvchi (menedjer) sifatida imkoniyatlarni tahlil etadi, o'zi mo'tadil tavakkal qiladi va qarorlar qabul qiladi, ta'lim muassasasining strategiyasi va harakatlarini rejalashtiradi va uni amalga oshirishga jamoani yo'naltiradi.

Ta'lim muassasasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining ta'limga oid qarorlarini bevosita ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etuvchi mas'ul shaxs. Bajaradigan vazifasiga asosan, tegishli ta'lim muassasasi faoliyatini samarali boshqarish bo'yicha hujjatlarni tayyorlash hamda pedagogik jamoa faoliyati maqsadi va vazifalarini aniq belgilashdan iboratdir. Hamkorlarni boshqaradi, yo'naltiradi va ko'rsatma beradi. Pedagog jamoani qunt bilan ishlashga turtki beradi. Kadr va xodimlarni to'g'ri tanlab olish va yollash, rivojlanishni baholaydi, dalda beradi, jazolaydi.

Rahbarlik faoliyatining samaradorligi rahbar shaxsning tafakkuri, aql idrokiga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Tafakkur rahbarga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydali mehnatni zararli mehnatdan, muhim vazifalarni nomuhim vazifalardan bexato ajrata olish imkoniyatini beradi.

Mas'uliyat – rahbar xodimning asosiy xususiyatlaridan biridir. Rahbar mas'uliyati hamisha muhim sanalgan. Mas'uliyat, avvalo, har bir kishining vijdoni, iymoni, qolaversa, o'zligiga nisbatan mas'ullik hissidan boshlanadi

Rahbarga qo'yiladigan asosiy talablar:

Birinchi talab – har bir mutasaddi rahbarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini tubdan o'zgartirish, shaxsiy javobgarligini oshirish lozim.

Ikkinchi talab – o'z sohasida kompetentli, ya'ni o'z ishini ustasi bo'lish, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilishdan iborat.

Ta'lim muassasalari rahbarlariga qo'yiladigan qo'shimcha talablar:

1. **Ishda to'g'ri yo'lni tanlay olish**, vaziyatni pedagogik tahlil qila bilish, vaziyatdan to'g'ri chiqqa bilish, har bir ishga ijodiy yondashish, o'zining shaxsiy ibratini, ishga bo'lgan munosabati bilan pedagogik jamoani ergashtira bilish.

2. **Pedagogik mahorat va boshqara olish mahorati**, fan yutuqlarini o'zlashtirish, yangi g'oyalar, ichki imkoniyatlarni qidirib topib, uni amaliyotga tatbiq etish.

3. **Umummadaniyatlilik**, ziyolilik, milliy qadriyatlarini qadrlash, jahon madaniyati durdonalaridan xabardorlik, dunyoqarashning kengligi, mehribonlik, insonparvarlik, o'qituvchi, o'quvchi shaxsini hurmat qilish.

4. **Pedagogik madaniyat** – hozirgi zamon pedagogika, psixologiya sohasiga oid yangiliklardan xabardor bo'lish, innovatsion texnologiya, didaktik bilimlardan boxabarlik. Kuchli pedagogik qobiliyatga egalik.

5. **Tashkilotchilik** – har bir pedagog xodimga uning xarakteri, imkoniyatlari va ehtiyojidan kelib chiqib vazifa berish, muomala qilish. Jamoa ishonchiga kirish, aytilgan fikr, taklif, qabul qilingan qarorning o'z vaqtida bajarilishiga erishish.

6. **Kommunikativlik** – odamlar bilan o'zaro samimiy munosabat o'rnatish, muloqotga kirishish, jamoani ishonтира bilish, yordam berish, xodimlar kayfiyatini ko'tarish, ixtiyoriy-majburiy o'z orqasidan ergashtirish.

7. **Aqlan yetuklik** – jamoaning har bir a'zosini, o'quvchini, ota-onani e'tibor bilan ehsita bilish, har bir ishning muqobil variantlarini e'tiborga olish va amalga oshirish.

8. **Nutq madaniyatiga egalik** – mantiqli, qisqa, lo'nda, obrazli fikrlay bilish, fikrni qiyomiga etkazish, o'z so'zamolligi bilan suhbatdoshi (yoki jamoa) qalbiga kirish kabilar ijodkor rahbarda mujassam bo'lmog'i kerak.

Bu fikrlar har bir rahbar uchun kundalik ish faoliyatida harakat dasturiga aylanishi kerak. Darhaqiqat, boshqaruv nihoyatda murakkab va serqirra jarayon, shuning uchun, unga chuqurroq nazar tashlash lozim. Bunda boshqaruvchi (menejer) faoliyatini tashkil qilishning o'ziga xos tamoyillari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari qatoriga: kompetentlilik – bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish;

insonparvarlik – o'quvchi, o'qituvchi, ota-onalarga do'stona munosabatda bo'lish.

Hozirda zamonaviy ta'lim muassasasi rahbari qanday bo'lishi kerak?

Uning faoliyat jarayonlari qanday vazifalarni o'ziga qamraydi? Ushbu savollarga javob berish asosida zamonaviy ta'lim muassasasi rahbariga xos bo'lgan asosiy fazilatlar, sifatlar va xususiyatlari keltiriladi.

Ta'lim mazmunini sifatli ta'minlashda ijodkor ta'lim muassasasi rahbarining faoliyatini shartli tarzda uch bosqichga bo'lish mumkin:

1. **Ta'lim strategiyasini belgilash**. Bunga rahbar va uning o'rinbosarlari innovatsion va samara beradigan g'oyalarga ega, tashabbuskor bo'lishi, bu g'oyalar asosida ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirishi va bu reja bilan jamoani tanishtirish jarayoni kiradi.

2. **Texnologik jarayon**. Ishlab chiqilgan nazariy yo'nalishdagi pedagogik g'oyalarni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini jamoa bilan belgilab chiqishdan iborat.

3. **Shaxsiy munosabatlar o'rnatish**. Bu ilg'or pedagogik g'oyalarni amalga oshirishga kirishish, ularni amalga oshirishda pedagogik jamoa, ota-onalar, o'quvchilar hamda davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishni o'z ichiga oladi.

Raxbarga xos asosiy shaxsiy xislatlar - rahbar shaxsiga xos dominantlik (ustunlik)ka

intilish. Rahbarning o'ziga ishonch xissi; - vazminlik va sabru bardoshlik; - muvaffakiyatga intilish; - mas'ullik va vazifani hal etishga qaratilgan ishonch; - mustakillik; - muloqotga moyillik.

Raxbar shaxsiga xos dominantlik (ustunlik)ka intilish. Tashabbusni o'z qo'liga olish, guruhga yetakchilik qilish, jamoani o'ziga jalb eta bilish, o'zaro munosabat natijasida o'ziga nisbatan xayrihohlik xissini yaratish va murakkab vaziyatda masuliyatni o'z bo'yiga olish.

Rahbarning o'ziga ishonch hissi. O'ziga ishonchi bo'lmagan rahbar vaziyat o'zgarishi bilan, o'z qarorini o'zgartirib turadi. Bunday rahbar qo'l ostida ishlaydigan xodimlar o'z rahbari timsolida suyanchiq ko'rmaydilar, tashkilotda o'tkazayotgan kunlari vaqtinchalik-dek tuyuladi. Boz ustiga, bunday rahbar o'zgalar bilan muzokaralar olib borishga ham qodir emas. Chunki o'z shaxsiga va qobiliyatiga ishonmagan odam o'zgalarda xam ishonch uyg'ota olmaydi Vazminlik va sabru bardoshlik. Atrofdagilarning salbiy yoki ijobiy xistuyg'ulari o'zaro kundalik mulokotda tez "yuqish" xususiyatiga ega. Shuning uchun rahbar qaltis va ziddiyatli vaziyatlarda nafaqat boshqalarning hissiyoti tasiriga berilmaslik, balki atrofdagilarga o'z muvozanati va jilovlangan xis tuygusi bilan tasir eta olishi kerak.

Rahbar nazoratchi, kuzatuvchi – tahlilchidir. U ta'lim-tarbiya jarayonlarini o'rganadi, kuzatadi, tekshiradi, tahlil qiladi, xato va kamchiliklarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilaydi, xodimlarning ijodiy va ijobiy ishlarini rag'batlantiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash bo'yicha xorijiy va mahalliy tajribalarni o'rganib, ularni tahlil etib boradi hamda o'z ta'lim muassasasiiga joriy etish yuzasidan xulosalar chiqaradi. O'zining kechinmalari va taassurotlari bilan sheriklashish paytida guruhning in'ikosi sifatida harakat qiladi.

Rahbar madaniyati – rahbar odobi va iqtidori o'rtasidagi dialektik bog'lanish. Bu bog'lanish odobi, iymon, insof, adolat va iqtidor kabi fazilatlar majmuidan iborat bo'ladi. Rahbarning kasbiy madaniyati deganda rahbarning kasbini bilimdonligi, uning kasbiy boshqaruv faoliyatini bajarishga tayyorgarlik darajasi tushuniladi. Bunda rahbarlarning maqsadga muvofiq u yoki bu kasbiy sifatleri alohida vaziyatlarda har bir rahbarning "ideal modelini" shakllantirishga asoslanadi. Ta'lim muassasasi boshqaruv madaniyati pedagogik, muloqot, psixologik, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, mehnat va ijro madaniyatlaridan tashkil topib, boshqaruvda rahbarni ularga amal qilishi ta'lim muassasasining boshqaruvini samarali qilishga imkon beradi.

Tadbirkorlik qobiliyati – rahbarning foydali imkoniyatlarni izlash, topish va tijorat maqsadiga (byudjetdan tashqari mablag' topish) erishishda tavakkalchilikka tayyor turish ko'nikmalarini o'zida mujassam etadi. Ushbu yo'nalishda u ta'lim muassasasida byudjetdan tashqari mablag' topish chora-tadbirlarini ko'rishi muhim kasb etadi. Hukumatning tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlari asosida ta'lim muassasasida shartnoma asosida qo'shimcha ta'lim berish, ta'lim muassasasi binosida joylashgan sport zallari, oshxona, bo'sh xonalarni va boshqa joylarni ta'limtarbiya jarayoniga ta'sir etmaydigan holda ijaraga berish, ta'lim muassasasining yer maydonidan unumli foydalanish hamda pullik ta'lim xizmati ko'rsatishning boshqa turlaridan foydalaniladi.

Tashabbuskorlik – rahbardagi tegishli ko'rsatmalar olish yoki kuchli zarurat tug'ilgunga qadar nima qilish kerakligini ko'ra olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Huloca qilib aytganda, Rahbarga qo'yiladigan **birinchi asosiy talablar** - har bir mutasaddi rahbarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini tubdan o'zgartirish, shaxsiy javobgarligini

oshirish, ularning ongidan “hech kim menga tegmasa bas, tinchgina kunim o'tsa bo'ldi” degan fikrni chiqarib tashlash; **ikkinchi talab** - o'z sohasida kompetentli, ya'ni o'z ishining ustasi bo'lish, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish.

Xitoy faylasufi Lao Szi shunday degan: “Eng yaxshi rahbarlarning mavjudligini odamlar sezishmaydi, yaxshilarni hurmat qilishadi va baholashadi, eng yomon rahbari yomon ko'radilar... Yaxshilarni hurmat qilishadi va baholashadi, eng yomon rahbari esa yomon ko'radilar... Yaxshi rahbar biror ishni yakunlasa, xodimlar “Bu ishni biz qildik” deyдилar. Bundan rahbardagi tashkilotchilik qobiliyati eng zarur sifatlardan ekanligi ma'lum bo'ladi.

Zero, yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “...inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lim-tarbiyadan boshlanadi...Shuning uchun qachonki bu haqda so'z ketsa, o'qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini tilga olamiz...Chindan ham o'qituvchi nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki ming-minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan, o'z o'quvchilariga haqiqatan ham hayot ta'lim muassasasiini beradigan mo'tabar zotdir. Ona tilimizda «ta'lim muassasasi ko'rgan», «ta'lim muassasasi yaratgan» degan chuqur ma'noli iboralarning mavjudligi ham bu muqaddas dargohning, zahmatkash o'qituvchi mehnatining davlat va jamiyat hayotida qanchalik muhim o'rin tutishidan dalolat beradi”. Demak, mazkur purma'no so'zlardan kelib chiqqan holda ta'kidlash lozimki, ta'lim muassasalaridagi rahbarlik, o'qituvchilarga rahnamolik davlat siyosatining amaliyotga tatbiqini ta'minlashda eng muhim kuchdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O'zbekiston, 2016 y. - 56 b
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent, O'zbekiston, 2017y. - 104 b
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. -Toshkent, O'zbekiston, 2017y.
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakterlar strategiyasi.-T.:O'zbekiston, 2017y. “Gazeta. uz”
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. - Toshkent,: Sharq. 1997y. - 65 b.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.- T.: Ma'naviyat, 2008 y.
7. Karimov I.A. Biz kelajakni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild - Toshkent,: O'zbekiston, 1999 y. - 81 b.
8. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.; A. Qodiriy, 1993y. - 223 b.
9. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston - yoxud axloq. - T.; O'zbekiston, 1992y.
10. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi.-T.: Yangi asr avlodi. 2007y.
11. Kaykovus. Qobusnoma. - Toshkent, O'qituvchi, 2011y. - 85 b.
12. Temur tuzuklari (P. Ahmedov tahriri ostida). -T.: G'. G'ulom adabiyoti va san'ati, 1996 y. - 344b.
13. Karimova V. Psixologiya. – T.: “Xalq merosi” nomli nashriyoti. 2002 y
14. Komilov N. Vazir qanday bo'lish kerak. - T.: Akademiya, 1998 y.
15. Ravshanov F. Milliy rahbarshunoslik: tarix va tajriba. – T.: Akademiya, 2007y.

16. Sagdullae A, Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – T.: Akademiya, 2006 y.
17. Xudoyqulov X.J. Boshqaruvda rahbar odob-axloq fazilatlarining nazariy va amaliy asoslari. Toshkent, “MUMTOZ SOZ” 2019 y.
18. Xudoyqulov X. J. Odob-axloq va tarbiya durdonalari.-Toshkent, Dzayin-Press. 2011 y. - 145 6.
19. Xudoyberdiev I. Rahbar va boshqaruv. - Karshi: «Nasaf», 2005 y,
20. O'ljaeva Sh. Amir Temur va temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. – T.: Fan. 2005 y.
21. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. - Toshkent: Yudduzcha, 1990 y. - 250 6.

Karimov Yuldash
Senior lecturer at Gulistan State University
(Gulistan, Uzbekistan)

THE PLACE OF HISTORICAL FILMS IN THE FORMATION OF HISTORICAL THINKING

Resume. *The article examines the influence of historical films which are one of the most popular art types on the formation of the national historical thinking of our people. The role and significance of historical films in formation of historical thinking and the need to create national historical films, and their potential were also discussed. Thoughts were expressed about the work processed in our country in this area, about the problems and tasks to be solved.*

Key words: *globalization, historical thinking, historical film, patriotism, historical figures and heroes, historical reality, national films, cartoon, history lesson, historical consciousness, identity.*

1. INTRODUCTION AND RELEVANCE:

Over the next four years, Uzbekistan went through a period of change. These processes are being implemented in stages based on rapid reforms. In all spheres of society, within the framework of the Action Strategy, it was consistently implemented and began to bear fruit [1]. In everyday life, people feel that it benefits people and society. It is true that changes in society are changing the consciousness and thinking of people. Knowledge of the roots and history of a people is a very important factor for the future and development of society. Because, knowing the history, a person realizes his identity, becomes an active participant in changes in society, avoids such evils as indifference and indifference.

There is a growing need for historical thinking in the context of rapid reforms in society. The reason is that the effect of reforms is associated with the public consciousness of people. At the same time, historical consciousness and historical thinking are in the lead. "Ignorance of the past inevitably leads to a misunderstanding of the present, and inattention to the present itself destroys the attempt to understand the past" [2. 27]. On January 19, 2021, the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev in the videoconference mode on the topic "Radical improvement of the system of spiritual and educational work, strengthening cooperation between state and public organizations in this direction" - "Creating a national history in the national spirit, otherwise there will be no educational effect. We need to teach our youth to learn from history, draw conclusions, equip them with historical science, historical thinking" [3].

2. METHODS AND LEVEL OF LEARNING

Despite the great importance of the formation of historical thinking, it has not always been the subject of scientific research. The problems of historical consciousness and historical thinking were reflected abroad in the socio-philosophical studies of German, French, British and American researchers. For example, the German scientist J. Rusen developed the theory of "cultural-universal historical consciousness". According to him, historical consciousness goes beyond the scope of professional historiography and is considered in the process of rational understanding of history as an event that exists in any culture and meets the requirements of

today's practice. The book of the French philosopher R. Aron "Measurement of Historical Consciousness" played an important role in the formation of the spiritual environment in France in the 40-50s of the XX century, when the problem of the methodology of historical knowledge arose in Russia, in the center of attention of European intellectuals [4].

"Who are we?" American scientist S. Huntington, the problem of historical consciousness is considered as an important part of the problem of the formation of national and cultural identity [5].

In the works of E. Yusupov, M. Khairullaev, S. Shermukhamedov, J. Zhumaboev, S. Atamurodov, K. Nazarov, B. Tuychiev, R. Rakhmonov, Z. Gafurov, N. Komilov, S. Mamashokirov, V. Alimasov, N. Juraev pays attention to the spiritual heritage, culture and history of our ancestors, understanding of national identity and national values, the role of historical consciousness in the upbringing of a mature person [6].

The study used methods such as historical, logical, systematic, comparative, observational, inductive and deductive.

3. RESULTS OF STUDIES.

Knowledge of the roots and history of the people is a very important factor for the future and development of society. Because, knowing the history, a person realizes his identity, becomes an active participant in changes in society, avoids such evils as indifference and indifference.

The role of historical films in the formation of the historical thinking of the population should be emphasized. Our country lags far behind developed countries in making historical films. Today, the demand for historical films and series is mainly met by the products of foreign filmmakers. In recent years, in particular, viewers have been shown historical series produced by South Korean and Turkish filmmakers. For example, Uzbek viewers watch Uzbek TV viewers of South Korean filmmakers "Jumong", "The Last Queen", "Pearl of the Palace", "Ertugrul", "Magnificent Hundred Years" and "Kosem".

The wide audience of a historical film has an important advantage in terms of reaching different segments of the population. The ideas of patriotism, heroism and humanism embodied in the events of the film are a unique example of education and an example. The historical film helps viewers understand the spirit, mood and setting of that period. The viewer lives the life of the protagonist, thinks, suffers, which has a positive effect on him. The most important thing is that the viewer acquires knowledge about history, understands the events of the historical period. The viewer forms an attitude towards historical events, in a word, an event of historical thinking takes place.

Also, the life and heroism of ancestors cause in modern people a sense of pride in the ancestors of the past, which in turn creates a sense of belonging to the ancestors, a desire to live like them.

Only watching foreign historical films gives an idea of the history, traditions and values of this people. This in itself has the opposite effect on ideas such as national unity and patriotism.

For example, watching a lot of Korean historical films has increased the number of imitations of the characters in these films. During the Jumong show, children started calling themselves heroes more often and playing various games with bows and wooden swords.

History also affects a person's moral outlook. A sense of belonging is awakened through history. Life, everyday life, economy, worldview, heritage of our ancestors come to life in our imagination. Historical films play an important role in this. The generation that grew up in the 70s and 80s of the last century grew up watching films about the fight against fascism in World War II. Many such films were shown at the time. This theme has been carried over to their games. Most of the boys' games were about war. This is also due to the propaganda of that period.

A historical film serves as an important tool for broadening youth perception of the historical period and studying the history of their country. Of course, a good script, an actor, and financial support are important for a good film. Today our country is going through a period of great reforms. Different sectors of our economy are developing from year to year. This will contribute to the development of the industry in the future. It is gratifying that his first steps have been taken. In particular, the decision of the President of July 24, 2018 on the development of the domestic film industry should be noted [7].

In our country, there are glorious historical and historical figures who have been out of sight of filmmakers for many years. There are objective and subjective reasons for this. If we count by name, how many historical heroes and plots we have: Beruni, Ibn Sino, Farobi, Al Bukhari, At-Termizi, Najmiddin Kubro, Az Zamakhshari, Bahovuddin Naqshband, Khoja Akhror, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Mahmud Ghaznavi, Ammir, Sarbadorlar, Shaybanikhan, Babur Mirzo, Nodirabegim, Muhammad Rahimkhan II and. The events of the 19th and 20th centuries are notable for the richness of events that several other films are devoted to.

Since 2017, serious attention has been paid to the development of the industry, which has begun to bear fruit. Uzbek filmmakers began to test themselves on historical themes. Such historical films as "Islamhoja", "Elparvar", "Kokand wind", "Ibrat", "Abdullah Avloni", reflecting the difficulties of the life of the Jadids of the twentieth century, appeared on the screen. The film "Ilhak", which tells about the events of the Second World War, was also well received. The filming of the film "Mendirman Jalolidin", dedicated to Jalaliddin Manguberdi, in collaboration with Turkish directors, is commendable.

It is also important that the events of the historical film are close to historical reality. The main thing is that the script of the historical film does not deviate from the historical reality, and the fictional image and events serve to strengthen the historical truth.

The formation of historical thinking should be well established in preschool institutions. Cartoons and fairy tales, their heroes sow the seeds of early historical thinking in children. The nationality of cartoon characters is very important. For example, cartoons based on the tales of Pushkin or Anderson are very interesting and animated, or cartoons of foreign animators "Wait a minute", "The Lion King", "Tom and Jerry". For example, a cartoon based on the story "Alpomish" is boring. This needs to be improved. We also need to make good cartoons and improve their quality. In particular, the animation of the historical cartoon "Shirok" is underdeveloped. Today is the time to address the deficiencies in this area.

In this case, taking into account age characteristics, it is very effective to use myths, legends and stories about historical heroes. For example, stories about Shirak and Tumaris, the assimilation of the national traditions and values of our people in Uzbek folk tales serve to form the national mentality. The importance of cartoons in the formation of historical thinking in

children of this age is enormous. At the same time, creating the image of national heroes, showing important events and events in our history - these are the first jackets of early historical ideas for young children.

Today our children are shown on the Bolajon TV channel, but most of them grow up watching cartoons by Western artists. Toys for children are colorful too. This, of course, affects the formation of the child's consciousness and thinking. National toys are being created, but not up to the mark. The design of the toys, the pictures attached to them, mainly depict characters from films such as Spider-Man, Batman and Western cartoons. It is important to influence the consciousness of schoolchildren through the expression of national heroes, historical figures, images of heroes in toys.

Based on the program for preschoolers, it is advisable to prepare games, cartoons, songs on the theme of historical and national values that positively affect the worldview of children.

It is necessary to develop children's programs in the spirit of national games and values. Exercises aimed at developing the child's agility, patience and mental thinking have a positive effect on his development. In this sense, the effective use of historical data is the first step or basis for the formation of a sense of patriotism.

Secondary school is the main link in the formation of the historical thinking of young people. Elementary classes require a unique approach to this issue. Historical myths and legends are important in shaping historical thinking in the mind of a child.

It is necessary to raise the level of history teaching in secondary schools and improve the qualifications of teachers. It is important that the story does not turn into empty numbers and simple events. When historical events are explored with feelings and emotions, their impact on children is multiplied. For this, it would be good if educational and methodological centers selected feature films and documentaries on historical topics and developed a methodology for their use in the classroom and in extracurricular activities. During this period, the seeds of love for the Motherland, sown in the mind of the child, germinate and serve as the basis for great deeds and creativity.

FINDINGS.

In short, the role of historical films in the formation of historical thinking is reflected in the following:

- The historical film has a wide audience from 7 to 70 years old and has great potential for promotion. The historical film expands our understanding of the past of our people, our ancestors and is a convenient tool for propaganda, separate space, time consuming and constant and regular;

- A good historical film has a strong influence on the minds of people, enriches historical thinking;

- History lessons and extracurricular activities, the use of materials from historical films and documentaries in circles have a positive effect on the development of students' historical thinking.

Also prepared for schoolchildren cover of notebooks with a certain number of historical images, historical heroes, historical events, architectural structures, etc. It will help to instill in the minds of children (subconsciousness) the historical imagination without any means.

Because history helps a person find himself, understand the world, explain the existence of the past and the future.

REFERENCES:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. 4947 of February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan", Tashkent, <http://lex.uz/ru/docs/3107036>.
2. Mark Block. Apology for history or the craft of the historian. M.: Science. 1973. - p. 27.
3. Mirziyoyev Sh. Report at a videoconference dedicated to the radical improvement of the system of spiritual and educational work, strengthening the interaction between the state and public organizations in this direction. January 19, 2021
4. Aron R. Selected: measurement of historical consciousness. - M.: 2004. - S.528.
5. Huntington S. Who are we?: Challenges to American national identity / S. Huntington; Per. from English A. Bashkirova. - M.: OOO Transitkniga, 2004. -S. 635.
6. Tulenov J. Philosophy of values. - T.: Uzbekistan, 1998.-B.; Yusupov E. Spiritual foundations of human development - T.: University, 1998.; Zhumaboev Y. From the history of the development of philosophy and moral thought in Uzbekistan. - T.: Ukituvchi-Ziyo, 1997; Rakhmonov R., Gafurov Z. Restoring independence and understanding of national identity. - T.: Uzbekistan, 1999.; Mamashokirov S. Historical thinking. // "Tafakkur". 1999. No. 4, - B. 9.; Zhuraev N. Philosophy of History. - T.: Shark, 1999.; Zhuraev N. Theoretical foundations of the philosophy of history -T.: Spirituality. 2008.
7. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On additional measures for the development of the domestic film industry." www.lex.uz

Karimova Mukaddas Otajonvna
Fargona davlat universiteti dotsenti,
Saydullaeva Aziza
II bosqich magistranti,
To'ychieva Ra'noxon Nodirjon qizi
Qo'qon davlat pedagogika instituti III – bosqich talabasi
(Qo'qon, Uzbekistan)

AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya. *Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy va amaliy masalalari, aksiologik yondashuv, kasbiy yo'nalganlik, ob'ektivlik, o'ziga xoslik, qarama-qarshilik, valentlik, qoniqish, barqarorlik.*

Kalit so'zlar: *aksiologik yondashuv, kasbiy faoliyat, kasbiy motivlar, kasbiy motivatsiya.*

Karimova Mukaddas Otajonovna
Associate Professor of Ferghana State University,
Saydullayeva Aziza
Master's student of the second stage,
Toychieva Raunohon Nadirjan daughter
Kokand State Pedagogical student of the third year of the Institute
(Kokand, Uzbekistan)

**TECHNOLOGY OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS
ON THE BASIS OF AN AXIOLOGICAL APPROACH**

Annotation. *Theoretical and practical issues of professional training of future teachers, axiological approach, professional orientation, objectivity, originality, dependence, extensibility, satisfaction, stability.*

Keywords: *axiological approach, professional activity, professional motivations, professional motivation.*

Каримова Мукаддас Отаджоновна
доцент Ферганского государственного университета,
Сайдуллаева Азиза
-магистрант II ступени,
Туичиева Раунохон Нодиржон кызы
Коканский государственный педагогический студент III курса института
(Коканд, Узбекистан)

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ АКСИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

Аннотация. Теоретические и практические вопросы профессиональной подготовки будущих педагогов, аксиологический подход, профессиональная направленность, объективность, оригинальность, зависимость, растяжимость, удовлетворенность, устойчивость.

Ключевые слова: аксиологический подход, профессиональная деятельность, профессиональные мотивации, профессиональная мотивация.

Aksiologik yondashuv, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, kasbiy o'zini o'zi anglash, motivatsiya kasbiy yo'nalganlikning muhim tarkibiy qismi, kasbiy yo'nalganlikning xususiyatlari, kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy va amaliy masalalari, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari respublikamiz olimlaridan X. Abdulkarimov, M. Abdullajonov, B. Adizov, SH. Axrorov, U. Begimqulov, R. Djuraev, B. Djuraeva, X. Ibragimov, SH. Majitova, SH. Mardonov, N. Muslimov, D. Nasriddinova, M. Mirsolieva, SH. Olimov, B. Raximov, O'.Tolipov, M. Urazova, N.Egamberdieva, F.Yuzlikaev kabilar tomonidan tadqiq etilgan. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlaridan N. Aбыdenova, A. Ajibaeva, Ye. Borisova, N. Demeneva, I. Makarovskaya, A. Moroz, S. Petropavlovskaya, Ye. Rogov, A. Ryzbaeva, V. Slastyonin, V. Tarantey, N. SHepilova, M. Yanitskiylarning tadqiqotlarida o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashuvi, ijtimoiy-psixologik va didaktik moslashuvi masalalari o'rganilgan. Xorijlik olimlardan J. Arcaro, S. Brown, H. Brown, D. Ciuffetelli, D. Boud, S. Kagan kabilarning ilmiy izlanishlarida kooperativ va interfaol ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirishning didaktik texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda asosiy omillardan biri ularni kasbga yo'naltirilganligidir. Kasbiy yo'nalganlikni muvaffaqiyatli shakllantirish bu oliy o'quv yurtiga topshirayotgan talabalarning kasbni tanlashidir. U umumiy abituriyentlar ichidan shu oliy o'quv yurtida o'qishga psixologik moslarini tanlashga yordam beradi. Turli metodlarni qo'llash orqali har bir abituriyentning real imkoniyatlari va qobiliyatlarini aniqlash, bo'lg'usi kasbni tanlashga yo'llash imkonini beradi.

Oliy o'quv yurtiga kirgan talaba ijtimoiy-foydali, mazmunli faoliyat bilan doimo shug'ullanadi, natijada unda shaxsning kasbiy yo'nalganligi va kasbiy motivlar shakllanadi. Kasbiy yo'nalganlik muvaffaqiyatli shakllanishining doimiy omillaridan biri talabalar ta'limi va

tarbiyasi jarayonida uning mazmuni va tuzilishidagi o'zgarishlarni o'rganish hisoblanadi. Bu o'zgarishlarning ko'rsatkichlarini aniqlash bilan bog'liqdir: talaba oldin qanday maqsadlarni qo'ygan edi, hozir qanday maqsadlar qo'yimoqda, turli xil faoliyatlarda u o'zini qanday namoyon etadi, uning kasbga munosabati qanday, qiziqishlari, ideallari, o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar.

Talabaning kasbiy yo'nalganligini mustahkamlashda ularning ilmiy ishlarda ishtirok etishi katta rol o'ynaydi. Yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashning majburiy shartlaridan biri talabalarning ilmiy jamiyatlarda, konstruktorlik byurolarida, ishlab chiqarish buyurtmalariga asosan amaliy bitiruv malakaviy ishlarini bajarish kiradi. Kasbiy yo'nalganlik tushunchasiga ma'no jihatidan kasbiy o'zini o'zi anglash, kasbiy dunyoqarash, kasbiy pozitsiya tushunchalari ko'proq yaqin.

N.V. Kuzmina kasbiy yo'nalganlikning quyidagi xususiyatlarini ajratadi: ob'ektivlik, o'ziga xoslik, qarama-qarshilik, valentlik, qoniqish, barqarorlik.

Talabalik yoshi o'spirinlik va yoshlik davriga to'g'ri keladi. Bu yoshda inson shaxs sifatida yetilishi bilan birga uning dunyoqarashi, qadriyatlarini yo'nalishi shakllanadi. O'spirinlik davrida kasbiy shakllanish ijtimoiy, individual-shaxsiy tanlovlar va tenglik jarayoni atrofida quriladi. SHunday murakkab rivojlanishi bilan bir qatorda, talabalarning o'quv faoliyati doirasida amalga oshadigan kasbiy shakllanishi katta o'rin egallaydi.

Keyinchalik bu ko'rsatkich yuqori kursgacha og'ishmay pasayib borgan. Biroq, kasbdan qoniqish oliygohni bitirish arafasida kamayadi, kasbga munosabat esa ijobiylashadi. SHuning bilan birga, ba'zi holatlarda qoniqish darajasi aniq bir oliygohning ta'lim darajasi bilan bog'liqligini ta'kidlash joiz. Motivatsiya kasbiy yo'nalganlikning muhim tarkibiy qismidir, chunki u odamning xulq-atvorini hayotiy kundalik vaziyatlarda belgilaydi. Motivatsiya shaxs tuzilishida yetakchi o'ringa ega va xulq-atvor, faoliyatni harakatga keltiruvchi kuchni aniqlashtirish uchun qo'llaniladigan asosiy tushunchalardan biridir.

Bizning tadqiqotda ham motivatsiya "sub'ektni faollikka undovchi va uning yo'nalganligini aniqlovchi sabab" sifatida tushunildi. SHaxsning kasbiy yo'nalganligi uning aksiologik yondashuv asosida shakllanishi, odamning ehtiyojlari ta'sirida ro'y berishi mumkin. Talaba oliy o'quv yurtida turli fanlarni o'rganish natijasida unda kasbiy yo'nalganlik shakllanadi, ya'ni o'z bilim, tajriba va qobiliyatini tanlagan kasbi sohasida qo'llash uchun shaxsiy intilish paydo bo'ladi. Shaxsning kasbiy yo'nalganligini takomillashtirish istagi, nazarimizda, uning o'z kasbi sohasida mehnat qilib, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirish istagini o'z ichiga oladi.

Bizningcha, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy motivatsiyasi aksiologik yondashuv asosida kasbiy yo'nalganlikning tarkibiy qismlaridandir. O'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalganligi, ko'pincha uning shaxsiy kamoloti bilan ancha mustahkam bog'langan, uyg'un holatda namoyon bo'ladi. Uning kasbiy kamolotini baholash uchun esa, albatta, faoliyatning bir qator jabhalarini ajratib ko'rsatish lozim.

O'qituvchilarning kasbiy shakllanishi jarayonini tadqiq etish esa, ularning kasbiy faoliyati to'g'risidagi tasavvurlarini o'rganishga olib keldi. Ushbu holatda bo'lg'usi boshlang'ich sinf pedagogining kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagog-murabbiyda shakllanishi lozim bo'lgan sifatlarini qay darajada o'zida kamol toptirishga erishayotganligini baholashda muloqotmandlik, tashkilotchilik, predmetlarga yo'nalganlik, intelligentlik, qo'llab-quvvatlash motivlaridan iborat jabhalarda tadqiq etildi.

Tadqiqot davomida o'qituvchilarining kasbiy tayyorlash jarayonida yetakchi faoliyat yo'nalishlarining nimaga qaratilganligi va ularni faoliyat bosqichlariga binoan o'zgarishlar o'ziga xosliklarini aniqlashga erishildi. Aslida mutaxassislar tayyorlash jarayonining umumiy maqsadi Davlat ta'lim standartlarida belgilangan kasbiy qoidalar va bilimlarni o'zlashtirish uchun qo'yilgan talablarga bog'liq. Ammo, bu esa yo'naltiruvchi va aniq maqsadlarga, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida belgilab olinadigan kognitiv va affektiv (xulq-atvor) maqsadlarga asoslanadi.

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'liq emas, u ma'lum yoshga kelib o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim.

Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi. SHuning uchun ham o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materallar bilan ta'minlash lozim. SHundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda o'quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo'llash imkoniga ega bo'lamiz

Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasiga quyidagilar kiradi: barkamol shaxs sifatida davlat va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan, yuksak huquqiy va umumiy madaniyatli, g'oyaviy-siyosiy jihatdan yetuk, ma'naviy-axloqiy yetuklikka ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarkib topgan, horijiy tillarni puxta o'zlashtirgan, axborot –kommunikatsiya texnologiyalarini mukammal egallagan bo'lishi va boshqalar.

Yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr sifatida kasbiy-pedagogik tayyorgarlik, ilmiy-ijodiy salohiyatli, ijodiy va ijtimoiy faol, huquqiy-me'yoriy va kompyuter savodxonligiga ega kadr nazarda tutilgan. Yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr sifatida kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasi pedagogning ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik, pedagogik-psixologik tayyorgarligi darajasiga bevosita va bilvosita bog'liq.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda aksiologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quv jarayonini tashkil qila olishi uchun faqatgina nazariy bilimlari va amaliyotidan yaxshi bilimlarga ega bo'lishi yetarli emas. Ular o'qitish jarayonini va kasbiy bilimlarni o'zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, fikrlashlarni, ayniqsa, mustaqil fikrlashga o'rgatishni ham bilishi zarur.

Shuningdek o'quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanishdagi individual farqlarni, o'ning qiziqishlari, xohishlari, o'qishga, mehnatga, o'zgalarga va o'z-o'ziga munosabatini, biror vazifani bajarishdagi mustaqillik, tashabbuskorlik, talabchanlik, maqsad va intilishi kabi iroda va his-tuygu sifatlarini, bilish faoliyatining va aqliy rivojlanishning

xususiyatlarini bilishni ham talab etadi. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda aksiologik yondashuv asosda kasbiy faoliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quv jarayonini tashkil qila olishi uchun faqatgina nazariy bilimlari va amaliyotidan yaxshi bilimlarga ega bo'lishi yetarli emas. Ular o'qitish jarayonini va kasbiy bilimlarni o'zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, fikrlashlarni, ayniqsa, mustaqil fikrlashga o'rgatishni ham bilishi zarur.

Shuningdek o'quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik rivojlanishdagi individual farqlarni, o'ning qiziqishlari, xohishlari, o'qishga, mehnatga, o'zgalarga va o'z-o'ziga munosabatini, biror vazifani bajarishdagi mustaqillik, tashabbuskorlik, talabchanlik, maqsad va intilishi kabi iroda va his-tuyg'u sifatlarini, bilish faoliyatining va aqliy rivojlanishning xususiyatlarini bilishni ham talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarov Q. Qadriyat tizimi: barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi (aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari): Fals.fan.d-ri...Diss. – T., 1996. – 311 b.
2. Mardonov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayirlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok....diss. – T., 2006. – 302 b.
3. Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya. – T., – Fan va texnologiyal nashrieti, 2012. – 165 b.
4. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviylikini ta'minlashning nazariyasi va amaliyeti: Ped. fan. dok.... dis. avtoref. – T., 2012. – 46 b.
5. Shodmonova SH.S. Oliy o'quv yurti talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (Kasb ta'limi yo'nalishi misolida): Ped. fan. dok....diss. – T., 2010. – 340 b.

Mamatmuminova Muhabbat Gaffarovna
teacher,
Urazova Umida Tulkinovna
student
Termez branch of Tashkent
State Pedagogical University named after Nizami
(Termez, Uzbekistan)

WAYS TO INTRODUCE PRESCHOOLERS TO NATURE

Annotation. *This article discusses ways to introduce preschoolers to nature and easy ways to understand them.*

Key words: *ecological, ability, natural, spiritual, activitis, integrity, practical conditions.*

The foundations of the ecological education system are based on the idea of the integrity of nature and human change in the environment. At the same time, the process of nature conservation education in higher education is seen as a continuous process in the modern media. It is combined with general tasks and is categorized according to professional training. Its general theoretical guidelines are reflected in various parts of the curriculum and are reflected in the content of lectures, e-textbooks, practical and laboratory classes. The process of introducing children to nature is an important and integral part of the process of developing the spiritual image of a well-rounded person. It includes the development in children of a conscious attitude to nature as a national and universal value, a sense of responsibility for the conservation and reproduction of natural resources, and the ability to solve practical environmental problems.



The current ecological situation on the planet, including in the territory of the republic, makes it important for the education system to address the following issues:

Children's conscious attitude to nature, a sense of the integrity and interconnectedness of the components of nature;

the manifestation of nature as a means of determining the ecological culture of children;

understanding that the environment is an integral part of spiritual culture;

understanding that nature is a key factor in shaping a student's environmental culture;

to create scientific and practical conditions for children to understand the protection of the environment as an ecological value in the educational process, taking into account their individual characteristics in the formation of children's acquaintance with nature in relation to the environment;

clearly define the goals and objectives of the formation of children's acquaintance with nature, to understand its practical orientation;

approach to the environmental problem as a national, universal, social problem.

Based on this, we will be able to provide didactic support to the education system, aimed at shaping the ecological culture of the student. To do this, the selection of environmental education materials, types of nature conservation activities and their essence in the minds of children, human it is necessary to understand the phenomena of nature, the priority of the need to understand the vitality and perfection of these phenomena.

In our opinion, the content of environmental education taught to children should include:

Forming a scientific view of the world in the minds of children; scientific and practical coverage of the importance of known environmental knowledge between nature and society;

Achieving environmental awareness by children; to understand the various tragedies that occur in nature, to know their nature, to express the tasks of environmental education, to plan and implement observations and experiments, to clarify the theoretical and practical ideas of ecology, to use them in the educational process building acquisition skills; to awaken a sense of value for nature and to form a culture, to improve the protection of nature and the efficient use of its resources;

Biodiversity in the Republic - the organization of the study of theories and ideas that allow to know the diversity;



scientific and practical development of a certain amount of knowledge, imagination and concepts in the field of ecology;

protection of the environment, training in the efficient use of its resources;

Expand children's environmental practices through communication with the environment, instilling in them an ecological attitude that actively influences the environment.

The content of environmental education: based on psychological, pedagogical, personality-oriented factors: recognizing the need for an environmentally conscious approach to nature to reach;

be able to anticipate the environmental consequences of their activities; living in the heart of nature, development and national wealth to know; to rely on natural-scientific, technical and humanitarian knowledge in drawing conclusions on the choice of the type of interaction with the environment;

In dealing with nature, it is necessary to rely on national historical development and universal values.

Thus, in order for children to develop an environmental culture, they need to have the following environmental skills: to determine the causes of environmental problems from a scientific and practical point of view; understanding and protection against accidental anthropogenic factors and their negative consequences; obtain, analyze and draw practical, accurate information on the use of natural resources; to conduct simple Graduation theses on ecology, analyze the results and draw conclusions; conducting ecological experiments; be able to actively study, analyze and address local, regional and global environmental problems.

Ecology, in its essence, reflects the essence of all the various interactions of mankind with natural objects. Accordingly, there are now concepts such as urban, industrial, technical, agricultural, water bodies, flora, fauna, human, neighborhood ecology. Ecological concepts include ecological science.

REFERENCES:

1. "Practical Guide to the Study of the Convention on the Rights of the Child". UNICEF, NEW YORK - 1993
2. Otavaliyeva O. Kindergarten and family partnership in child rearing. T Teacher, 1994.
3. Directory "Head of pre-school education of the institution". T., 2006.
4. Ilasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. et al. Pedagogy of preschool education. T. Ilm - ziyo, 2012.
5. Hasanboyeva O. and others. A harmoniously developed generation in the family. - T.: Uzbekistan, 2010.
6. State requirements for the development of children of primary and preschool age in the Republic of Uzbekistan. T., 2018.

Ochilova Farida Kudratovna
Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi 1-kurs magistranti
Namangan davlat universiteti
(Namangan, Uzbekistan)

BOLANING ICHKI RIVOJLANISHIDA MAKTAB VA OILANING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Bolaning ichki rivojlanishida maktab va oilaning o'rn" haqida so'z boradi. Chunki inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari aynan oila bag'rida shakllanadi. Maktab ta'lim-tarbiyasi orqali esa yanada sayqallanib, rivojlanib boradi.

Kalit so'zlar: Oila, maktab, rivojlanish, ta'lim-tarbiya, oilaviy tarbiya, barkamol farzand, oila va maktab hamkorligi, mehnat tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, odob-axloq normalari, Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik tarbiyasi, ma'naviy-estetik tarbiya.

Аннотация. Эта статья посвящена "Роль школы и семьи во внутреннем развитии ребенка". Потому что самые чистые, чистейшие чувства, первые концепции жизни и воображения в человеческом сердце и разуме формируются в сердце семьи. А через школьное образование оно становится более отточенным и развитым.

Ключевые слова: семья, школа, развитие, образование, семейное воспитание, гармоничный ребенок, сотрудничество семьи и школы, трудовое воспитание, духовно-нравственное воспитание, нравственные нормы, чувство родины и патриотическое воспитание, морско-эстетическое воспитание.

Annotation. This article is about "The role of school and family in the internal development of the child." Because the purest, purest feelings, the first concepts of life and imagination in the human heart and mind are formed in the heart of the family. And through school education, it becomes more polished and developed.

Key words: Family, school, development, education, family upbringing, harmonious child, family and school cooperation, labor education, spiritual and moral education, moral norms, sense of homeland and patriotic education, manavy-aesthetic education.

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, farzandlarni ma'naviy-axloqiy, milliy- madaniy, tarixiy an'alariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslanib, zamonaviy shaxsni shakllantirish ota-onalar, maktab, mahallalarning oldida turgan eng asosiy ma'suliyatli vazifalardan sanaladi. Sharqda oila azaldan muqaddas dargoh sifatida qadrlangan. Oila a'zolarida muayyan turmush tarziga rioya qilib, tajriba orttirish, saranjomlik va tejamkorlik, qat'iylik va to'g'riso'zlik singari odob-axloq me'yorlarini kamol toptirish azaldan oilaning asosiy vazifasi bo'lib kelgan. Buyuk qomusiy olimlarimiz, xususan, Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-xaqoyiq", Abu Nasr Forobiyning "Baxtga erishish haqida", Abu Ali ibn Sinoning "Tadbir al-manozil" risolasi, Sa'diyning "Guliston", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Hayrat ul-abror", Abdurahmon Jomiyning

“Silsilat uz zaxab”, “Bahoriston”, Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” va boshqa ko'pgina asarlarda oila ma'naviyati, bolalar va yoshlar tarbiyasining uslublari, ota-onaning oiladagi vazifalari, farzandning ular oldidagi burchi, oilaviy tarbiyaning mazmun-mohiyati har tomonlama sharhlanib turli hayotiy rivoyatlar orqali atroflicha yoritib berilgan. O'zbek oilalari totuvligi, bolajonligi, yaqin birodarlar va qarindosh-urug'larga nisbatan o'zaro hurmatda bo'lish, mehr-oqibat rishtalarining mustahkamligi va boshqa oilaviy qadriyatlarining ustunligi rivojlanganligi bilan ham dunyodagi ko'pgina millat, xalqlardan ajralib turadi.

Xo'sh, Rivojlanishning o'zi nima? Rivojlanish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ta'minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Bola oila va maktab ta'limini oladi, o'sadi va rivojlanadi, jamiyatning to'laqonli a'zosisiga aylanadi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek: “Xalqimizning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq”.

Oila – Vatan timsoli. Negaki, oila va vatan tushunchalari bir-biriga chambarchas bog'liq. Vatan tuyg'usi oiladan, ona bag'ridan boshlanadi. Oila esa jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy boyligi hisoblanadi. Oiladagi muhit insonning o'ziga xos ma'naviyati, dunyoqarashi, tasavvur va e'tiqodining shakllanishida, yuksalishida muhim omil bo'ladi. Inson qalbi va ongidagi eng sof, pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari aynan oila bag'rida shakllanadi. Xalqimizda kishining qanday ekanligi, uning o'zini tutishi, tarbiyasi, fe'l-atvori oilasiga bo'lgan munosabat bilan baholanadi. Bu esa uning jamiyatda o'z o'rnini topishida muhimdir. Oilada yozilmagan shunday qonun-qoidalar borki, ular necha asrlar davomida avlodlar-avlodga o'tib, oila ma'naviyati sayqal topib kelaveradi. Kattalarni hurmat qilish kichiklarga nisbatan izzatda bo'lish, kelajak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha oilaning asosiy qoidalari bo'lib kelgan. Bu muqaddas dargohda nafaqat farzand dunyoga keladi, balki ma'nan va axloqan go'zal tarbiya egasi bo'lgan inson voyaga yetadi. Oila shunday makonki, unda avlodlar kamol topadi. Ajdodlarimiz azaldan oila mustahkamligi, sog'lom avlodning yaralishi yo'lida doimo e'tiborda bo'lgan. Bunday g'oyalar avlodlar qalbi va ruhiyatiga singdirib borilgan. Oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-muruvvat va oqibat omillari sog'lom muhitni yaratadi. Oila tarbiyasi deganda ota-ona, oiladagi katta kishilar, buva va buvilar, aka-singillar va shu kabilar tomonidan bolalarning to'g'ri, milliy axloq-odob normalari asosida tarbiyalashini tushunish lozim. Farzand tarbiyasi! Qanchalik mukammal, sinoatga to'la, insoniy muomala-munosabatlar umumlashgan ushbu kalomda. Yaxshi farzand - ota-onaning bebaho mulki, qalb gavhari, muborak siri va ulkan kashfiyoti. Uning kamolidan ota-onaning ko'ngli nurafshon bo'ladi, hayoti zavq-shavqqa to'ladi. Bu sharafga ega bo'lganlar hurmat va izzat tojini kiyadilar, dunyo donishmandlariga aylanadilar Zotan, bolalarning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ota-ona, aka-singil va boshqalarning o'zaro muomala-munosabatlar, xulq-atvoriga, tartib-intizomiga bevosita bog'liqdir. Xalqimiz:

“Qush uyasida koʻrganini qiladi” deb bejiz aytmagan. Oila tarbiyasi kabi katta mas’uliyat birinchi navbatda ota va ona zimmasiga tushadi. Shu oʻrinda bir narsani alohida uqtirish kerakki, bolalar tarbiyasida asosiy ta’sirchan kuch-qudrat, bu – Onadir. Darhaqiqat ota koʻpchilik oilaning moddiy ehtiyojlarini qondirish va ta’minlash, qolaversa oilaning xoʻjalik ishlari bilan band boʻladi. Bu oʻzbek oilalari tarixidan ma’lum boʻlgan haqiqat va ota-bobolarimizdan meros boʻlib qolgan anʼanadir. Shunga koʻra bola bilan koʻproq ona birga boʻladi. Axir, xalqimiz: “Sut bilan kirgan-jon bilan chiqadi” deydi-ku! Tarbiya, ya’ni yuksak axloq-odob aqidalari bola joniga (ruhiga) koʻproq ona suti (tarbiyasi) bilan kiradi. Oila tarbiyasida hikmat (falsafiy-pedagogik yoʻnalishlar) koʻp. Yangi oʻtkazilgan niholning toʻgʻri yoxud egri oʻsishi bogʻbon mexnati va mahoratiga bogʻliqdir. Egri oʻsayotgan niholning qaddini rostlab qoʻyilmasa, u notoʻgʻri rivojlanadi. Yangi tugʻilgan goʻdak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati oʻrtasida qandaydir tabiiy oʻxshashlik mavjud. Bundan koʻrinib turibdiki, mehnat tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, axloqodob normalari, Vatan tuygʻusi va vatanparvarlik tarbiyasi, ma’naviy-estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, miliy gʻurur va iftixor tarbiyasi, ijtimoiy tarbiya va shu kabilar oiladan boshlanadi. Shu zikr qilingan pedagogik-falsafiy tushunchalar oila rahbarlarining dunyoqarashi bilan chambarchas bogʻliqdir. Deylik, dehqon dunyoqarashi uning halol mehnat qilib, dastlab oila toʻkinligi va soʻngra xalq farovonligini ta’minlashda koʻrinadi. Uning barcha faoliyati shu oliyanob tuygʻu bilan uygʻunlashgan. Bu oilada bola mehnatsevarlik ruhida tarbiyalanadi. Hayot va turmushning hamma nuqta va qirralari mehnat bilan ravshanlashadi. Zotan, mehnatkash inson har sohada oʻz yoʻlini topa oladi. Xalq mehnatkash, yuksak axloq-odobli yigitchani koʻrsa, “otangga rahmat”, xush qiliqli, goʻzal xulq-atvorli, shirinsuhan, muloyim, chevar, pazanda qizni koʻrsa “onangga rahmat” deydi. Bu oila tarbiyasining shirin mevasi tufaylidir.

Mamlakatimizda bolalar toʻgʻrisida, onalar haqida gʻamxoʻrlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir. Keyingi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir. Ma’lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda oʻqish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta’sir koʻrsatishi tabiiy holdir. Oila aʼzolarining ma’naviy birligi yoshlari har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan mustaxkam bogʻlamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib boʻlmaydi. Shu maqsadda ota-onalar oʻrtasida ta’lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, oʻquvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur. Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi, shaxs ongiga koʻrsatayotgan koʻrinmas ta’sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatleri kundalik hayot ehtiyojga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. Toʻgʻri, bunda ijtimoiy tarbiyaning oʻrnini inkor etib boʻlmaydi. Ana shu nuqtai nazardan ularning monolit birligiga, oʻzaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Oilaviy tarbiya pedagogika fanida murakkab muammolardan biridir. Uning murakkabligi shundaki, har bir oila

o'ziga xos ibtidoiy guruh bo'lib, tarbiyada faqat mazkur guruhga xos xususiyatlarga asoslanadi. Ta'kidlaganimizdek, oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiya bilan almashtirish bolalar kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasiga bormay, faqat oilada o'sgan va voyaga yetgan bolalar maktabga borganlarida o'z tengqurlari ichida ko'p jihatlari bilan ajralib turadi. Oilaning bolalarga moddiy va ma'naviy g'amxo'rligini, ko'rsatayotgan tarbiyasini maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyasi bilan yoki, aksincha, maktabgacha ta'lim muassasini oilaviy tarbiya bilan almashtirib bo'lmaydi. Faqat o'zaro hamkorlik masalani ijobiy hal etish imkoniyatini beradi. Barkamol farzand tarbiyasini mahalla, oila, maktab, ta'lim-tarbiya uygunligisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Aynan shular inson ma'naviyatini shakllantirishda va o'quvchilarning ichki dunyoqarashini shakllantirishda asosiy mezonlar hisoblanadi.

Yosh avlod bor bilimini maktabda oladi. Maktabni bilim dargohi deyish bilan bir qatorda o'quvchining hayot yo'lini belgilab beruvchi, uni shaxs sifatida shakllanishini kafolatlovchi maskan ham deyish asosli. Aynan shu maskanda o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi oliy darajadagi qadriyatlar shakllanadi, avloddan-avlodga yetkaziladi. Shu sifatlar ona suti, oila a'zolari mehri va namunasi bilan bola xulqi, xatti-harakati mazmuniga singib boradi. Oila, maktab hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo'ladi:

- ta'lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;
- tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg'unligi;
- hamkorlik jarayoni subyektlarining teng huquqliligi va yuksak mas'uliyati;
- faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlarini ustuvorligi;
- hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

Maktab o'qituvchi va o'quvchi asosiga quriladi. Unda yuksak ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatlilik ustuvor bo'lishi lozim. Umumta'lim maktabi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish va faoliyati davomida ta'lim-tarbiyani rejalashtirish, o'quv-pedagogik jarayonni olib borish, maktab ishlarini yuritishni tashkil qilishda qator me'yoriy hujjatlarga tayanadi. Davlatimizda yoshlarimizni barkamol qilib voyaga yetkazish, ularga bilim, ta'lim-tarbiya berish masalasi konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi. Aqliy salohiyatning jamiyat ma'naviy yangilanishidagi o'rnimizning asosini tashkil etgan, hayotimizning ajralmas qismiga aylangan, davlatimizning doimiy diqqat-e'tiborida turgan ta'lim masalasi Asosiy Qonunimizdan mustahkam o'rin oldi. Maktab ta'lim-tarbiya ishlarini har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshiradi, o'quvchilarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beradi, shu jumladan, o'quvchilarning o'z ustida mustaqil ishlashlari va qo'shimcha bilim olishlari uchun imkoniyatlar yaratadi. Tabiiyki, yurtimizdagi barcha o'quv muassasalari kabi maktab ham o'quvchilarida milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida milliy g'oya ruhida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini kamol toptirish, ularni haqiqiy inson, Vatanga sadoqatli fuqaro sifatida tarbiyalashga mo'ljallangan.

Maktab barkamol shaxs ta'lim-tarbiyasi ustuvorligiga ahamiyat qaratgan holda o'quvchilarda mustaqil O'zbekiston Respublikasiga va uning Konstitutsiyasiga sodiqlikni shakllantiradi, Davlat ramzlariga (bayrog'i, madhiyasi va gerbi) hurmatni, qat'iy intizom va fan asoslarini puxta egallashga sidqidildan yondashishni o'rgatadi. Shuningdek, maktabning zimmasiga bilimli, madaniyatli shaxslarni shakllantirish, ularni oila, jamiyat, davlat oldidagi

mas'uliyatni to'la anglyadigan va egallagan bilimlarni hayotga tatbiq eta oladigan shaxs sifatida kamol toptirish vazifasi ham yuklatilgan. Muhimi, bugungi kunda axloqan pok, jismonan baquvvat, Vatanga sadoqatli, izlanuvchan, fidoyi inson, o'zining mustaqil fikriga ega, tashabbuskor, sog'lom avlodni yetkazib berish jamiyat rivojining muhim asosidir. Demak, maktab mukammal tashkilot sifatida barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. O'z o'qituvchilar jamoasini uyushtira olgan jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo'naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma'muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo'lga kirita oladi. Maktab va oila hamkorligidagi ishlarda qo'shimcha uslublardan ham foydalanish yaxshi natija beradi. Jumladan, tashkilotchilarning ota-onalarning o'zlari o'z xatti-harakatlarini, xulq-odoblarini tanqidiy baholashlari, ma'qullash va muhokama yuritish metodlarni qo'llashdagi shaxsiy ta'sirini hisobga olish nihoyatda muhimdir. Bunday xatti-harakatlarga doir usullar, odatda, jamoatchilik tomonidan ijobiy baholangan bo'lishi kerak. Chunki kattalar faoliyatining ijobiy yoki salbiy baholanishi ular ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirning kuchini yoki oshiradi, yoki kamaytiradi. Maktablarda ota-onalar bilan ishlashni esga solish, maslahat, taklif, iltimos, talab kabi uslublar ham mavjud bo'lib, ularni o'rni kelganda, o'z vaqtida qo'llash yaxshi samara beradi. Ularni tatbiq etishda nihoyatda nazokatli bo'lish, kishi shaxsini hurmat qilish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi shaxsini shakllantirishda oila, maktab hamkorligini amalga oshirish uchun bir qancha uslublardan foydalanish mumkin. Buning uchun avvalo oila va maktabda ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, maktab hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy – ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur". Hozirgi maktab o'rindiqlarida o'tirgan yosh avlod ertaga bizning qo'limizdan ishimizni oladigan, hayotimizni davom ettirib, o'zidan keyingi avlodga yetkazuvchi vorislarimizdir. Shunday ekan, yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanadigan pedagoglar kelgusi avlod barkamolligi uchun, o'g'il-qizlarimizning ulug' ajdodlarimizga xos oqil bo'lishlari uchun mas'uldirlar. Abdurauf Fitrat ta'kidlaganidek: "Bir oilaning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shunday kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostiga qoladi". Zero, o'quvchi yoshlarni "tarbiyali bo'ling!" degan bilan tarbiyalab bo'lmaydi. Buning uchun avvalo ota-ona shaxsan namuna ko'rsatmog'i lozim. Bola insoniy xislatlarini, ezgulikni, odamiylikni, yaxshilikni ham, yomonlikni ham eng avvalo oiladagi kattalarning hatti-harakatlaridan o'rganadi. Ota-ona o'z xulq-atvori bilan farzand hurmatiga sazovor bo'lishlari, uning hayot yo'lida o'rnak bo'lishlari lozim. Bu odat ularning ongiga singishi lozim. Shunday oilada o'sgan bolagina, ota-onani, qolaversa o'z ustozlarini hurmat qiladigan, mahalla ko'ya o'zidan kichikni hurmatlash, kattalarni izzatlashni o'z o'rniga qo'yadigan, xalqparvar bo'lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari" to'g'risida. Toshkent. 2020-yil 18-fevral, PF-5938-son.
2. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son qaroriga 1-ilova.
3. M. Abdullayeva. Oilada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda estetik tasavvurlarini shakllantirish. Xalq ta'limi, 2006 yil №4.
4. Ahmedova Q, Yuzina T. Bolangiz maktabga tayyormi? T: 2000.
5. S. Matchonov va boshqalar. O'qish darslari. 2007-yil.
6. Imomov Nurillo Fayzullayevich, Babayev Djahongir Ismailbekovich, Shorahmetova Umida Shoakbarovna, Topildiyev Bahrom Rahimjonovich, Mehmonov Qambariddin Miradhamovich. "Oila huquqi" darslik. Toshkent. 2016.
7. D. Narziqulova "Ijtimoiy pedagogika va oila pedagogikasi" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Navoiy-2015.

Olimjonova Gulshanoy Kosimjon qizi
Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi
1-kurs magistranti, Namangan davlat universiteti
(Namangan, Uzbekistan)

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI FAOLLASHTIRISHDA O'ZBEK
MILLIY-MA'NAViy MEROSIMIZNING O'RNI

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilarini milliy-ma'naviy meroslar bo'yicha bilimlarini faollashtirish haqida ma'lumotlar, DTS da milliy meroslarga berilgan e'tiboringiz, milliy-ma'naviy merosimizni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish borasida fikrlar va namuna berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy-ma'naviy meros, milliy qadriyatlar, kompetensiya, milliy va umummadaniy kompetensiya, interfaol metodlar, "FSMU" strategiyasi.

Аннотация. В статье представлена информация о том, как активизировать знания учащихся начальных классов о национальном и духовном наследии, о вашем внимании к национальному наследию в ДОС, приведены идеи и примеры преподавания нашего национального и духовного наследия на основе современных педагогических технологий.

Ключевые слова: национально-духовное наследие, национальные ценности, компетентность, национальная и межкультурная компетентность, интерактивные методы, стратегия ФГМУ.

Annotation. The article provides information on how to activate the knowledge of primary school students on national and spiritual heritage, your attention to national heritage in DTS, ideas and examples of teaching our national and spiritual heritage on the basis of modern pedagogical technologies given.

Keywords: National-spiritual heritage, national values, competence, national and intercultural competence, interactive methods, FSMU strategy.

Hozirgi kunda Respublikamizda olib borilayotgan tub islohotlar mazmuni yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan. Buning uchun yurtimizda qulay shart-sharoit va imkoniyatlar mavjud. Milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa, sharqona odob-axloq an'analoriga e'tiborni kuchaytirish uchun boshlang'ich ta'lim davridanoq o'quvchilarga qunt bilan bilim berish lozim. Chunki imoratning poydevori mustahkam bo'lsa, u yillar o'tsa ham, vaqtning hukmiga bo'ysunmay imoratni salobatli ko'rsatib turaveradi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov: "Kelajak bugundan boshlanadi, hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz!" deb ta'kidlagan. Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus ishlab chiqib, aynan 4-tashabbusni yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishga qaratdi. Milliy-ma'naviy merosimizni o'rganish uchun, albatta, kitoblar mutolaasi muhim o'rin tutadi.

Zero, ko'p kitob mutolaa qiladigan inson milliy va ma'naviy meroslarimizdan to'la bahramand bo'ladi.

Ota-bobolarimizning ummon kabi milliy-ma'naviy meroslarini o'rganish ta'limning boshlang'ich davrlaridayoq boshlanadi. Sababi o'zbek milliy merosimizni o'rganmay turib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirish juda qiyindir.

Milliy qadriyat deb, muayyan xalqning rasm-rusumi, an'anasi, fazilatlarini, axloq va odobi, yashash tarzi, bayramlari, shu xalqning aksariyat qismi tomonidan e'zozlanishga loyiq bo'lgan inshootlar, milliy kiyimlar, uy-ro'zg'or buyumlari, ro'zg'or tutishlariga aytiladi. Masalan, o'zbeklarning mehnatsevarligi, mehmondo'stligi, xushxulqligi va muloyimligi, g'ayratli va itoatgoyligi, kechirimliligi, tinchliksevarligi o'zbek milliy qadriyatlari bo'lib hisoblanadi.

Ma'naviy qadriyatlar-kishilar ma'naviy faoliyati mahsuli, bilishning murakkab jarayoni natijasida yuzaga kelgan bilim, qarash va malakalar samarasi. Bularga misol qilib, turli-tuman bayramlar, milliy urf-odat va an'analar, chiroyli axloq va odoblar, musiqa, mo'yqalam ustasi ijodining mahsuli bo'lgan rasmlar, badiiy adabiyot kabilarni keltirsa bo'ladi.

O'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosini o'rganish quyidagicha izohlanadi:

- ilmiy meroslar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, boshlang'ich sinflarda tarbiyaning tayanch vositasidir;

- milliy-ma'naviy meroslar tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega, avloddan avlodga o'tuvchi ijtimoiy hodisadir;

- milliy-ma'naviy meroslar xalqning tarixiy taraqqiyotida erishgan barcha yutuqlarini ifodalovchi va saqlovchi qudratli omildir.

O'zbek xalqi milliy-ma'naviy merosining ko'rinishlari, qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xil. Insonparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, vatanparvarlik, saxiylik, poklik, kamtarlik, haqiqatgoylik kabi tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir.

Bundan tashqari ota-bobolarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan asor-u atiqalar, noyob kitoblar shular jumlasidandir.

O'zbek milliy-ma'naviy merosini o'rganishda boshlang'ich sinflarda o'qish va tarbiya fani muhim o'rin egallaydi. Bu fanlar dasturidan o'rin olgan mavzular orqali o'quvchilarda milliy-ma'naviy meroslarimiz haqidagi bilimlar rivojlanib boradi. Dars jarayoni ikki xil maqsadni amalga oshirishga yo'naltiriladi: birinchi fanning mazmuniga singdirilgan o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosi mohiyatini o'zlashtirishga qaratilgan umumiy maqsad; ikkinchi ma'lum mavzuni o'rganishda shu mavzu orqali u yoki bu milliy-ma'naviy merosning mohiyatini o'quvchi ongiga singdirishga yo'naltirilgan xususiy maqsad. Darsning umumiy va xususiy maqsadlari aniq, puxta, natijani oldindan bilgan holda qo'yilsa, o'quvchilarda milliy-ma'naviy meros haqidagi tasavvurlar rivojlanadi. O'quvchilarga milliy-ma'naviy meros mohiyatini ochib berishda xalq an'analaridan foydalanib dars o'tiladi. Ayniqsa, xalq bayramlari "Navro'z", "Qovun sayli", "Mehrijon sayli", "Sumalak sayli", marosimlarimizdan to'ylar, tug'ilgan kunlar, beshik to'yi, chaqaloqqa ism qo'yish, diniy marosimlarimizdan "Ro'za", "Qurbon hayiti", "Iyd Ramazon hayiti" orqali o'quvchilarda o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini o'rgatish mumkin. Milliy-ma'naviy meroslarimizni an'anaviy holda emas, noan'aviy dars shaklida, o'quvchilar tomonidan sahnalashtirilgan obrazli holda, AKT dan foydalangan holda o'rgatilsa o'quvchilar ongiga singdirish ancha oson kechadi.

Ma'lumki, boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan minimal, me'yoriy talablar Davlat ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi. Milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish DTS ning vazifalaridan biri hisoblanadi. 2017-yil 6-aprelda Davlat ta'lim standarti qaytadan tasdiqlandi. Davlat ta'lim standartida o'quvchilarga fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun tayanch va fanga oid kompetensiyalar ishlab chiqildi. Kompetensiya bu-mavjud bilim,ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati. Kompetensiya 2 xil bo'ladi:

1. Tayanch kompetensiya.
2. Fanga oid kompetensiya.

Aynan, milliy va ma'naviy merosimizni o'rganish uchun tayanch kompetensiya tarkibiga milliy va umummadaniy kompetensiya kompetensiyalar kiritildi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishdir.

O'qish darolarida o'zbek xalqimizning milliy-ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha oddiydan murakkabga qarab o'quvchilarning yoshi va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda bo'limlar va shu bo'limlarga oid mavzular berilgan. Masalan, 1-sinf o'qish kitobidagi "Biz-buyuklar avlodi" bo'limidan joy olgan "Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari" mavzusi orqali xushxulqlik va muloyimlik, "Ko'klam-yashnaydi olam" bo'limidan joy olgan "Navroz bayrami" matni orqali xalqimiz milliy bayrami Navroz haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. 2-sinf o'qish kitobidagi "Mehnat baxt keltirar" bo'limidan joy olgan "Uch o'g'il" ertagi orqali g'ayratli bo'lishni,"O'talar so'zi-aqlning ko'zi" bo'limidagi Aziz Abdurazzoqning "Mehmon keldi" hikoyasi orqali mehmondo'stlikni o'rgatiladi.

Ko'rinib turibdiki, DTS da boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarni milliy ruhda tarbiyalashni, ularda milliy-ma'naviy merosga bo'lgan hurmat, iftixor tuyg'usini tarkib toptirish va rivojlantirishni, shu asosda faollikni oshirish masalasi maqsad qilib olingan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongiga o'zbek milliy-ma'naviy meroslarimizni singdirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish juda muhim. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tashkil etishga qo'yilgan muhim talablardan biri ortiqcha va jismoniy kuch sarf etmay,qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida tajribalar to'plangan. Ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi interfaol metodlar juda ko'p. Bularga "Ajurli arra"strategiyasi, "Aqliy hujum"strategiyasi, "Baliq skeleti" grafik organayzeri, "Venn diagrammasi" grafik organayzeri, "Gugurt donalari" strategiyasi, "Debating"metodi, "Klaster" grafik organayzeri, "Muzyorar"strategiyasi, "Nima uchun" grafik organayzeri, "Sinkveyn" strategiyasi, "Qanday"; grafik organayzeri, "FSMU" strategiyasi, "Charxpalak" strategiyasi va boshqa juda ko'plab metodlarni kiritishimiz mumkin.

Interfaol metodlar ichidan "FSMU" strategiyasini 2-sinf o'qish kitobidan joy olgan Akauka Grimmlarning "Somon, cho'g' va loviya" ertagida qo'llab ko'raylik. Avvalo, "FSMU" strategiyasini qo'llash haqida biroz to'xtalib o'tamiz. "FSMU" strategiyasi o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan mustaqil fikrlarini bayon etish, shaxsiy mulohazalarini dalillash, bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu strategiyadagi (F)-fikir;(S)-sabab;(M)-misol;(U)-umumlashtirish. O'qituvchi sinfni kichik guruhchalarga bo'lib olib,

texnologiyadan foydalanish shartlari bilan tanishtiradi. Guruhlarga muhokama uchun mavzu yozilgan qog'ozlar taqdim etadi. Har bir guruh muhokama yechimini topgach, barcha guruhlar fikrini tinglaydi va mashg'ulotga yakun yasaydi.

"Somon, cho'g' va loviya" ertagidagi Somon, cho'g' va loviya do'stlashishadi. Lekin ularning do'stligi uzoqqa bormaydi. O'quvchilarga ertak mazmuni tushuntirilgach, muhokama uchun muammoli savol beriladi: Ertagimizdagi Somon,cho'g' va loviyaning do'stligi tezda yakun topishiga munosabat bildiring. O'quvchilar "FSMU" strategiyasi orqali javob berishadi. Masalan:

F-Somon, cho'g' va loviya ariq bo'yiga yetganda noto'g'ri yo'l tutishdi.

S-Ariqda ko'prik yo'qligi uchun somonning ustidan cho'g' o'tdi va ikkalasi ham suvga tushib ketishdi, loviya esa do'stlarining ustidan kulgani uchun yorilib ketdi.

M-Cho'g' hamma narsani kuydirishi, xatto yondirishi mumkin. Somon buni o'ylamadi.

U-Har birda ishni avval o'ylab keyin bajarish kerak, do'stlarning ustidan kulmaslik, xavf-xatarda qo'rqmaslik, eng muhimi, do'st tanlashda adashmaslik kerak. Bu kabi interfaol metodlardan foydalanib milliy-ma'naviy meroslarimizga doir mavzular o'rgatilsa, o'quvchilar mavzuni yanada to'liq o'zlashtiradi, faol bo'ladi.

Buyuk ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan beqiyos milliy-ma'naviy merosini faol o'rganish orqali o'quvchilarni milliy qadriyatlar, milliy an'ana, urf-odatlariga hurmat bilan qaraydigan ma'naviy yetuk, komil inson etib tarbiyalashimizga hech bir shubha yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov. "Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". T. "Sharq", 1997-yil, 5-bet.
2. O. Tursunov, S. Jamalov. "Yoshlar tarbiyasida qadriyatlarimizning roli". T., "Sharq". 2000-yil.
3. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturidan. Boshlang'ich ta'lim. T-2017. "Fan".
4. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. "Metodik qo'llanma" Toshkent-2013.
5. 2-sinf o'qish kitobi darsligi. T. 2016-yil.

Shermukhamedova Dilnozakhon Rakhimjanovna
a senior teacher of the “English language” department
Tashkent state university of economics
(Tashkent, Uzbekistan)

BLENDED EDUCATION AS A REQUIREMENT OF INNOVATIVE EDUCATION

Abstract. *the article deals with the issues related to the effectiveness of using blended education in teaching process. Author searches its advantages and suggests requirements of its organization.*

Key words: *professional education, blended education, specialists, educational process, videoconferences.*

The need to modernize professional education has led to the creation of resource centers as an innovative structure for training qualified personnel in the new socio-economic conditions. To train specialists in demand by the market economy, the resource center of the technical school concentrates modern equipment, software and hardware, information, human and educational resources. This base allows you to build a full-fledged program for reorienting the structure of training workers.

Introduction to the educational process of blended learning allows you to solve a number of problems:

1) for trainees:

- expanding the educational opportunities of students by increasing the availability and flexibility of education, taking into account their individual educational needs, as well as the pace and rhythm of mastering the educational material;
Bizgacha yetib kelgan manbalarda ezgu niyat, yaxshilik, sodiqlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, odoblilik, mehribonlik, oddiylik, sevgi-muhabbat va kamtarinlik g'oyalari hukmron bo'lgan. Bu g'oyalari millionlab kishilarning qalbiga yetib borgan va ularni tarbiyalashga ulkan hissasini qo'shgan va hozirda ham qo'shmoqda. Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Firdavsiy, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumi, Umar Xayyom, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mahmud Qoshg'ariy, Nizomiy Ganjaviy, Imom Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Boborahim Mashrab, Uvaysiy, Nodira, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat kabi minglab allomalarning ilmiy-adabiy meroslari fikrimizning yorqin dalilidir. Jumladan, Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Nosir Xisravning "Saodatnoma", Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" hamda Mahmud Qoshg'ariyning "Odob assolihin" ("Yaxshi kishilar odobi"), Firdavsiyning "Shohnoma", Umar Xayyomning ruboiylari va "Navro'znoma" asari, Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Xo'jandiyning "Latofatnoma", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" va "Xamsa" si, Boburning "Boburnoma" si va g'azallari, Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yohud axloq" va "Hotamnoma" kabi asarlari ta'lim-tarbiya va ma'rifati xazinasidir. Ularning har biri jahon sivilizatsiyasining rivojiga tegishli hissasini qo'shib kelgan. Ayniqsa buyuk allomalarimiz boshidan kechirgan hayot yo'li, jahon tan olgan durdona asarlari haqida o'rgatish boshlang'ich sinf darsliklaridan berila boshlanishi ayni muddaodir. Chunki boshlang'ich ta'lim barcha fanlarning asosi, debochasidir. O'quvchilar ayniqsa "O'qish" darslarida berilgan mavzular orqali buyuk bobokalonlarimiz haqida bilimga ega bo'ladi, ular bilan faxrlanish, g'ururlanish, ularga o'xshab dunyo tan olgan buyuk shaxs bo'lishga intiladilar. Shu o'rinda 2-sinf "O'qish" darsligida ajdodlarimiz merosini o'rganishga, o'quvchilarni buyuk siymolar ruhida tarbiya qilishga yo'naltirilgan juda ham ta'sirli rivoyatlar, hikoyalar, she'rlar berilgan. Bularning barchasi o'quvchilarni har tamonlama tarbiyalaydi, hayotga tayyorlaydi, mana shunday buyuk siymolarning avlodi ekanligidan faxrlanish tuyg'usi shakllanadi. Darslikning birinchi bo'limi "Ona yurtim-oltin beshigim" deb nomlanadi. Ushbu bo'limda berilgan "Tandir rivoyati" da buyuk bobokalonimiz ulug' mutaffakkir, davlat arbobi Mir Alisher Navoiy bobomizning ibratli ishlari keltirilgan. U quyidagicha izohlanadi:

Alisher Navoiyning Muhammad ota degan qo'shnisi bo'lgan ekan. Uning birgina uyi bor ekan, xolos. Bir kuni Muhammad ota Navoiyning huzuriga kelibdi-da:

– Hazrat, sizga aytadigan bir iltimosim bor, – debdi. – Men bu dunyodan ko'z yumgan kunimoq o'g'lim Xudoyberdi kulbani sotadigan ko'rinadi. Nima bo'lsa ham uni sotishga yo'l qo'ymasangiz. Mendan keyin Xudoyberdi bunday uyni tiklab olishiga hech ishonmayman. Kulbasiz ko'chalarda qolib, halok bo'ladi, – debdi-da, ko'ziga yosh olibdi. Navoiy:

– Aytganingiz bo'ladi, menga ishonang, – deb yupatibdi.

Muhammad ota uyiga kelib o'g'lini yoniga chaqiribdi:

– Bolam, – debdi, – mabodo kunim bitib, qazo qilsam, uyni aslo sota ko'rma. Bordi-yu judayam sotging kelsa, Navoiy hazratlarining oldilaridan bir o'tib, keyin bu ishga qo'l ur. Hazrat

senga to'g'ri yo'lni ko'rsatadilar. Muhammad ota olamdan o'tibdi. Xudoyberdi uyni sotmoqchi bo'libdi. "Otam, uyni sotadigan bo'lsang, Navoiyning oldidan o't, degan edi. U qanday yo'l ko'rsatar ekan", debdi-da, shoirning huzuriga kelibdi. Navoiyga maqsadini aytibdi. Shunda Navoiy:

– Yaxshi. Ammo tandiring biroz eski. Buzib, yangisini qur. Uyning narxi oshadi, – debdi.

Xudoyberdi uyiga kelib, tandiriga qarasa, haqiqatan ham tandir juda eski emish. "Navoiy to'g'ri aytdi", – debdi-da, tandirni buzibdi. Tandirfurushdan tandir sotib olibdida, orqaga qaytibdi. Yo'lda charchab, dam olmoqchi bo'libdi. Shunda tandir yerga qattiq tegib, sinib ketibdi. Xudoyberdi orqaga qaytib, ustadan yana bitta tandir sotib olibdi. Uyiga yetay deganda uni ham sindirib qo'yibdi. Bir ilojini qilib, uchinchi tandirni uyiga olib kelibdi-da, eskisining o'rniga quribdi. Ustiga ko'p loy bostirib yuborgan ekan, ertalab qarasa, tandir tushib yotgan emish. Xudoyberdining jahli chiqib: "Navoiy nega meni bunchalik ovora qildi?" – debdi-da, shoirnikiga yo'l olibdi.

– Hazrat, – debdi Xudoyberdi Navoiyga qarab, – tandirni qurolmadim. Mayli, arzonroq bo'lsa ham uyni tandirsiz sotaveraman.

– So'zimni eshit, – debdi Navoiy. – Birgina tandirni eplab qurolmaysan, ammo uyni sotmoqchi bo'lasan. Uyingni sotib qo'yib, yangisini qura olmay, ko'chada qolib ketishni o'ylamadingmi? Bor, hunar o'rgan, ishla, uying ham yonga qoladi, tirikchiliging ham o'tadi... Navoiyning dono so'zlariga tan bergan Xudoyberdi hunar o'rganib, yaxshi kun kechira boshlabdi.

Ushbu rivoyatni o'qigan har bir inson hayotda hunar egallash, o'z kasbining yetuk mutaxasisi bo'lish orqali barcha ezgu ishlarga, amallarga qodir bo'lishini, yaxshi kun kechirish kerakligini anglab yetadi. Hunarsiz kishi qanotsiz qushdek parvoz qila olmasligini tushunadi. O'ylab ish qilish bilan birga birgina oddiy imoratni qurish uchun sarflanadigan mehnat va mablag' qanchalik ekanligi, uni isrof qilmasdan oldin shu haqida o'ylash keyin ish ko'rish kerakligini o'rgatadi. Hunarda xalqning boy tarixi, barhayot hikmati va albatta orzu-umidlari yashiringan bo'ladi. Shu bois, har kasbning jonkuyari va ustasi o'zining mashaqqatli mehnati, tinimsiz izlanishlari samarasi hisoblangan yangi ixtirolari, noyob ijod namunalari sir-u asrori – favquloddagi ahamiyatini boshqalarga anglatib boradi.

Darslikda berilgan "Otalar so'zi-aqlning ko'zi" bo'limida buyuk siymolarimizdan Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi ulug' mutaffakir bobolarimiz haqida ma'lumotlar, hikoyalar keltirilgan. "Tilingni avayla omondir boshing" mavzusi ostidagi Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub ibratli fikrlari keltirib o'tilgan. Ya'nikim:

O'quv va bilimning tilmochi tildir. Kishiga yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi. Qut-barakani ham, obro'-e'tiborni ham kishi til orqali topadi. Tilga e'tibor bermasa, uni noo'rin qo'llasa, odamning boshi yorilishi mumkin. Donolarning so'ziga quloq sol. Ular:

– Ey til egasi, boshingni asra! – deyishgan. – O'ziga omonlik tilagan har bir odam tilidan yaroqsiz so'zini chiqarmasin. Bilib so'zlangan so'z donolik sanaladi. Bilimsizning so'zi esa o'z boshiga yetishi mumkin.

Hech qachon ko'p gapirma. Oz so'zlarga ko'proq ma'no sig'dir.

Tilingni avayla – omondir boshing,

So'zingni avayla - uzayar yoshing.

Ushbu ibratli fikrdan shuni anglaymizki, til dil kaliti, lekin dilni vayron qiluvchi, insonni

turli xil o'zi xohlamagan vaziyatlarga solib qo'yuvchi qurol sifatida ham ko'rsak bo'ladi. Tilimizdan chiqqan har bir so'zni avaylab gapirmasak, boshimizga balo bo'lib, ko'plab musibatlarining sababchisi bo'lib qolishi, ko'pchilik oldida izza bo'lib qolishga, obro-e'tiborni yo'qolishiga sababchi bo'lishi haqida aytib o'tilgan. Hech qachon ko'p so'zlab, behuda gaplar biln insonlarning vaqtini olmslik kerakligini, oz so'zlasa ham ma'noli va rost so'zlash kerakligini bilib oladilar. Darhaqiqat shu o'rinda Yusuf Xos Hojibning ismlari faxr va iftxor bilan zikr etilgani bejizga emas. Chunki, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ma'naviyat durdonalaridan biridir. "Qutadg'u bilig" asari esa davlatni idora qilish usulini, siyosatini, qonun-qoidalarini, rasm-rusumlarini, axloqiy prinsiplarini o'zida mujassamlashtirgan, qomusiy asar sifatida yuzaga keldi. Bu asar didaktik yo'nalishga ega bo'lib, unda davlatni idora qilish usullari, oddiy xalqdan tortib oliy darajadagi mansab egalari elikxonlargacha – olim, shoir, dehqon, chorvador, kosib singari ko'plab tabaqa, toifa, ijtimoiy guruhlarning fe'l-atvori qanday bo'lishi lozimligi, davlat qurilishi, turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatdagi o'zni va ahamiyati, umuman, siyosiy-ijtimoiy, moddiy-ma'naviy, axloqiy-tarbiyaviy masalalar o'sha davr talabi nuqtayi nazaridan yo'l-yo'riqlar badiiyat qonunlari asosida tavsiflangan.

Yusuf Xos Hojib o'z zamonasining donishmandi, mutafakkiri, ilg'or fikrli faylasufi edi. U o'z asarida ilm-fan, bilim va zakovatga alohida e'tibor bilan yondashadi:

Bilgisiz kishi bir yemishsiz yig'ach,

Emishsiz yig'achig' neku qilsu ach.

(Bilimsiz kishi bir mevasiz yog'ochdir, Mevasiz yog'ochni och kishi nima qilsin).

Bu ifodalarning ixcham, lo'nda, samimiyat bilan yo'g'rilganligi e'tiborni tortadi.

Bundan tashqari Maqsud Qoriyevning "Ibn Sinoning bolaligi" hikoyasida Abu Ali ibn Sino bobomizning yoshlik chog'laridanoq aqlu-zakovatda tenggi yo'q bo'lganliklarini ifoda etgan:

Abdulloh ma'rifatli inson bo'lganligi uchun Afshonadagi xonadonida e'tiborli kishilar, shoir-u fozillar yig'ilishar edi. Shunda olam voqealaridan ko'ra ko'proq she'riyat haqida gap ketardi. Bir kecha shunday yig'inlarning birida Umarxon ismli afshonalik shoir Rudakiydan ruboiylar o'qiy boshladi. Shoir oxirgi bandini yodidan chiqarib, jim bo'lib qoldi. Shunda otasining bag'rida o'tirgan Husayn o'rnidan turib davom ettira ketdi.

Majlis ahli jim bo'lib qoldi. Abdulloh hayron. Bir tomondan, xursand bo'lsa, ikkinchi tomondan, xijolat, go'dak bola mazkur she'rni qaydan o'qigan, deb. Umarxon bolani yana bir bor sinab ko'rmoqchi bo'lib:

Rudakiyning yana boshqa g'azalini bilursanmi? – deb so'rab qoldi. Husayn dadil turib, o'qiy ketdi:

Odamlar qalbining charog'i ilm,

Balodan saqlanish yarog'i ilm...

– Balli, balli, umring ziyoda bo'lg'ay, – deya duo qildi shoir.

Inson bilim orqali dunyoni qanchalik ko'p bilib borsa, o'z faoliyatini ham shunchalik yaxshi anglay boradi. Umrning ziynati, mazmuni ham insonning o'z bilimi orqali yuqoriga qarab intilishidadir. Bilim olish uchun vaqtni ayamalik, vaqtdan foydalanish lozim, inson ma'rifat va bilim orqali yuksak ma'naviyatilik cho'qqilarini egallaydi, barkamol, komil inson bo'lib yetishadi.

Abu Ali ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha 242 tasi (ayrim ma'lumotlarga ko'ra 160 tasi) yetib kelgan. Olimning bizgacha ma'lum bo'lgan katta asari

“Kitob ash-shifo” 4 qismdan iborat boʻlib, undan mantiq, fizika, matematika, metafizika kabi masalalar oʻrin olgan. Bu asar bizgacha yetib kelmagan, uning Isfahondagi yongʻinda yoʻqolgan maʼlum. “Donishnoma” nomli asari esa fors tilida yozilgan... Olimning tibbiyotga oid “Kitob al-qonun fit-tibb” (“Tib qonunlari”) qomusiy asarini yaxshi bilamiz. Bu asar 5 ta mustaqil katta asardan tashkil topgan. Birinchi-uchinchi kitoblarda tibbiyotning nazariy asoslari, 800 ga yaqin dorining xususiyatlari, ayrim tana aʼzolarining kasalliklari va ularni davolash usullari bayon etiladi...

«Tarbiya qancha mukammal boʻlsa, xalq shuncha baxtli yashaydi», deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal boʻlishi uchun esa bu masalada boʻshliq paydo boʻlishiga mutlaqo yoʻl qoʻyib boʻlmaydi».

Xuddi shu boʻlimda keltirilgan Boʻriboy Ahmedov “Amir Temur haqida hikoya” qalamiga mansub boʻlib, unda buyuk sarkarda Amir Temurning yoshlikdan boshlab zehni, bilimli, soddadil va xushfeʼl boʻlganligi eʼtirof etiladi: Temurbek ziyrak, hamma narsani bilishga intiluvchan boʻlib oʻsdi. Toʻrt yoshga toʻlganida, otasi uni qishloq maktabiga olib borib, Ibodulla domlanning qoʻliga topshirdi.

Taragʻay Bahodir qoʻl qovushtirib:

Bolamning savodini chiqarib bersangiz, – dedi.

Ibodulla domla bu soddadil va xushfeʼl odamni juda yaxshi bilardi. Shuning uchun ham uni ochiq chehra bilan kutib oldi. Qoʻlidagi tugunini olib, bolasini maktabga qabul qildi.

Taragʻay bahodir chiqib ketganidan keyin domla uning oʻgʻlini oldingi qatorga oʻtqizdi. Keyin unga murojaat qildi:

– Qani, oʻgʻlon, tur oʻrningdan. Isming ne?

Yangi talaba dast oʻrnidan turdi va: “Temur”, – deb javob berdi.

– Barakallo, Temurbek, maktabimizga kelib yaxshi ish qilibsan. Yaxshi oʻqisang, mulloyi zabardast boʻlursan. Shoʻxlik qilib, kamhafsala boʻlsang, oʻzingdan koʻr. Temurbek boshini quyi solganicha qoʻl qovushtirib, indamay turardi.

Temurbek toʻrt yil Ibodulla domlanning qoʻlida oʻqidi. Savodi chiqqanidan keyin Taragʻay bahodir oʻgʻlini Shahrisabzdagi madrasaga berdi. U maktabdagi singari madrasada ham yaxshi oʻqidi.

Mamlakatni boshqarish ilmini esa otasidan oʻrgandi. Buni otasi kechqurunlari turmush tashvishlaridan xoli boʻlgan paytlarida oʻrgatdi. Temurbek ustoz va otasining pand-nasihatlarini butun vujudi bilan tinglardi. Keyin bularga bir umr rioya qildi.

Darhaqiqat, Amir Temur yoshlik chogʻlaridan boshlab aqlu-zakovatda tengi yoʻq davlat arbobi, buyuk sarkarda boʻlib yetishdi. Amir Temur (1336-1405 y.y) Qashqadaryo viloyatining oldingi Shahrisabz (hozirgi Yakkabogʻ) tumanidagi Xoʻja Ilgʻor qishlogʻida tugʻildi. Uning yoshlik yillari mamlakatdagi ziddiyatlar oʻta avj olgan davrga toʻgʻri keldi. Ana shu ijtimoiy siyosiy qiyinchiliklar Amir Temurning aqliy va jismoniy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilgan boʻlsa, ajab emas. Shu bois, Amir Temurning paydo boʻlishi tasodif emas, u oʻzi yashagan davrning yirik sarkardasi, davlat arbobi sifatida maydonga chiqdi. Amir Temur bobomiz aʼlo darajadagi falsafiy tafakkur uslubiga ega boʻlgani sababli, boshlagan ishlarining barchasini poyoniga yetkazib, yutuqlarga erishgan. U oʻzining mashhur “Temur Tuzuklari” asarini yaratdi. Bu asarning qimmatini benihoya ulugʻdir. Baʼzida u “Temurning aytganlari”, “Temur haqida xotiralar”, “Tuzuki Temuriy” deb ham atalib kelingan. Amir Temurning asaridan sezilib turadiki, oʻzi tanlagan va tayinlagan

kishilarning axloqiy xislatlariga ko'proq e'tiborni qaratgan. Jumladan Sohibqiron fikricha, vazirlar 4 sifatga ega bo'lishi kerak:

1. Asillik, toza naslik va ulug'vorlik;
3. Ko'pni ko'ra oladigan, tez xulosa qiladigan, aqlu-farosatlilik;
4. Insonparvar, xalq ahvolini, sipohlarni biladigan va g'amxo'rlik ko'rsata oladigan;
5. Chidamli, sabr-toqatli, xushmuomalali, muloyim.

Ko'rib turibmizki, bu axloqiy xislatlar Amir Temur tomonidan yuqori baholangan va ularga amal qilingan.

“Temur tuzuklari” da axloq va odob me'yorlari markaziy o'rinlarni egallaydi. Adolat, so'z va amaliyot birligi, do'st va dushmanlik, botirlik va qo'rqoqlik, so'z va shirinsuxanlik, manmanlik va kamtarlik, boylik va kambag'allik, mardlik va nomardlik kabi axloqiy xislatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu keltirilgan odob va axloq me'yorlari Amir Temurning o'z faoliyati, harakati bilan chambarchas bog'liqdir. O'z umrining barcha qirralarida ushbu me'yorlarga duch kelib, ular sohasida inkor etib bo'lmaydigan fikrlarni bildirgan. Tuzuklardan va yozib qoldirilgan boshqa manbalardan ma'lum bo'ladiki, Amir Temur o'ransiz g'azablanib, biror kishi bilan muomala qilmagan. Uning fikricha, g'azab va qattiqqo'llik bilan qilingan muomala Tangri Taolo g'azabiga duchor bo'lish, o'z holini tang qilishdir. Shu sababli, Amir Temurning o'zi so'z bilan dushmani bo'sundirishni afzal ko'rgan. Zero, “millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir”, “kuch adolatdadir”, “adovat emas, adolat engadi”, “bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal” degan, yuksak ma'naviyatga oid fikrlarni Amir Temur o'rta tashlaganki, bu fikrlar abadiy o'chmasdir. “Temur tuzuklari” yuksak axloqiy tarbiyaviy asardir. O'quvchilar ushbu asar orqali o'zlariga xulosalar chiqaradilar, yaxshi-yomonni, adolatli va oqil bo'lmoqlikni, doimo rostgo'y bo'lishni, Vatanni ulug'lashni va e'zozlashni, ota-onani qadrlashni, sabrli va chidamli bo'lishni, insonparvar va vatanparvar bo'lishni o'rganadilar. Demak, Amir Temurga e'tibor ajdodlarimizga bo'lgan xurmatdir. Amir Temurning quyidagi fikrlarini hayotiy shiorga aylantirsak ko'zlangan maqsadga tezroq yetamiz.

1. Bir kunlik adolat-yuz kunlik toat-ibodatdan afzal.

2. Biz kim – mulki Turon, Amiri Turkistonmiz.

Biz kim – millatlarning eng qadimi va eng ulug'i
Turkning bosh bo'g'inimiz.

3. Adlu ehson bilan jahon gulshani obod bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya bu ma'naviyatning muhtasham darvozasidir. Ana shu darvozadan ezgulik sari, o'ktamlik va qudrat sari, har bir ezgu ishga muntazam mas'ullik sari mislsiz mahorat bilan qadam tashlash lozim. Buning uchun yoshlarni buyuk ajdodlarimizning durdona asarlaridan foydalanib olib borish esa ko'zlangan maqsadga erishishda tirgak bo'ladi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: “Yoshlarimizning haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr.
2. M. Sharifxo'jaev Z. Davronov "Ma'naviyat asoslari" (o'quv qo'llanma). Toshkent. 2006-yil.
6. V. Qo'chqorov, O.Mahmudov, Z.Zmonov "Ma'naviyat asoslari" Toshkent "Yangiyo'l Poligraf Servis". 2018-yil.
7. T. G'afforova, Sh. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova "O'qish kitobi". Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent. 2018-yil.

Алиева Башорат Эргашовна
Сурхондарё вилояти Узун тумани
1-сонли МТТ директори
(Сурхандарья, Узбекистан)

ПЕДАГОГИКАДА НУТҚ ТЕХНИКАСИ ВА МАДАНИЯТИ

Аннотация. Мақолада нутқнинг тўғри ва раван талаффузи педагогларнинг иш мазмунига ва нутқий маданияти ва техникасини ривожлантириб бориш.

Калит сўзлар: анафора, градация, инверсия, интонация, адаптация компетенция, фразеологизм.

Маълумки, тил инсон ақлий фаолиятини энг олий ва асосий воситасидир чунки инсонни бошқа мавжудотлардан ажратиб турадиган ҳам тилдир. Шундай экан инсон ақлий фаолиятини энг олий махсуллари – тафаккур мевалари тил ва нутқ орқали руёбга чиқади. Тил тафаккур махсулларининг хаётга татбиқ этишига восита бўлувчи қудратли қуролдир. Ўзбек тилининг изохли луғатида “Тил – фикр ифодалаш ва ўзаро алоқа қуроли бўлиб хизмат қиладиган товушлар, сўлар грамматик воситалар системаси” деб таърифланса, нутқга фикрни тил орқали ифодалаш қобилияти маҳорат ё сўзлашув жараёнидаги тил деб таъриф бериллади.

Дейл Карнегининг “Ўз ўзига ишонч хосил қилиш ва омма олдида сўзлаш санъати” китобида; “Хар қандай киши нутқ сўзлай олади. Бунга сўхбатлашаётган бўлсангиз, ўзингиз текшириб кўринг: Энг жохил одамни оёғингиз билан бир уриб йикитингчи, у ўрнидан туриб сизга нима дейишидан тугилар эканми?! Ўзингиз ҳам тингловчилар олдида айнан ана шундай дангал самимийликни эгаллашингизни хохлаймиз, шундай хислатша эга бўлиш учун машқ қилиш зарур, бошқаларга асло тақлид кила кўрманг. Агар сиз самимий бўлсангиз бошқа бирон кимсага асло ўхшамайсиз. Ўзингизни, фақат ўзингизга хосликни сақлаб қолишга интилинг” дейилган. Бундан келиб чиқадики хар бирон инсонни илк мартаба кўрганда эслаб қоларли бир хислати ё ки ҳар қайси вазиятда ҳам ўзини тутиш одоби орқали хотирага муҳрланади. Дунё психологлари фикрича биринчи учрашган икки инсонда хотира фаолиятида уч дақиқа вақт оралигида бир-бирини жалб қилиш имконияти бор, агар ш уч дақиқа зое кетса демак кеин натижага эришиш бир мунча мураккабдир. Педагоглар учун ҳам худди шундай, дейлик машғулот ўтилатган хонага, болалар олдида бошқа бир педагог келди, саломлашиш табиий ҳол, яъни – рефлекс, ундан сўнг педагогга болаларда таасурот қолдириш учун уч дақиқа вақти бор. Маҳоратли, нутқи раван педагог уч дақиқа эмас бир сонияни ҳам бекор кетказмайди.

Айниқса мактабгача ёшдаги даврни олсак болаларнинг эрта ривожланиши мавзуси долзарб ва “урф”га кирган, купгина замонавий ота-оналар фарзандини 3-4 ёшидан хорийжий тилни ўрганишини хохлашади бу демакки она тилини бола тўлиқ ўрганмасдан ё ки луғат бойлиги ўз она тилида ривожланмасдан бошқа тил болани ўртада тил камбағигига олиб келади, она-тилида болада захира бўлиб уни бошқа тилларда ҳам таққослай олсагина, бошқа тиллар мукамал бўла олади.

Бироқ болани тўлиқ ривожланиши учун ёшлигидан она тилида раван сўзлашига

тайёрлаб боришимиз зарур. Кейинчалик болани мактабда деярли нутки ривожланмаганлиги туфайли хатто ўз дуслари билан мулоқотда рақобатлаша олмайдилар. Болани 3-4 ёшидан фаол ва пассив нуткини биргаликда ривожланишида биринчидан хотира иккинчидан нутқ, учинчидан психика бу учта ҳолат болани ёшлигидан ривожланишида ота-оналар ва педагоглар эътибор бера олиши лозим.

Масалан:

- болани кичик ёшида айtilган сўзларнинг мазмуни ва моҳияти ўни такрорлашдан ва асосли равишда кўргазмали бўлсагина уни хотирасида қолади, айtilган сўзларни аниқ-равон-тушунарли бўлиши болани реаллика олиб келади. Ота-оналарнинг вазифаси болалигини жуда эрта ёшдан бошлаб ақлий равонликда баркамол ривожланишини таъминлашдир. Тенгдошлар билан мулоқот қилиш жараёнида боланинг тажовузкорлиги, ҳаддан ташқари кўзгалувчанглиги ёки заифлиги тузатилишига эътибор бериш.

Болани психикасини ривожлантиришда эса, ўзини ва хатти-ҳаракатларини етарли даражада баҳолай олиш, зиддиятларни ҳал қилиш, танқидларга хотиржам муносабатда бўлиш ва бу жамиятдаги тинч ва бахтли ҳаётнинг калити мувозанатли психикасидандир. Мактабгача таълимдаги бугунги замонавий педагогикада болани хоҳ оилада ва хоҳ мактабгача таълим ташкилотида бола билан мулоқотни кучайтириш уларни нутқ таффақурини бўшлиқ билан эмас сўзларни хатто эртақларни ҳам талаффуз ва айтилишида шевадан эмас соф адабий ўзбек тилида айтиб бериш мақсадга эришишни бера олади.

Масалан:

- она уйда энди болани тили чиқаётган вақтда тушунарсиз шевадаги сўзлар билан болани ўргата боради, кейинчалик бола мактабгача таълим ташкилотида келишида ўзини тенгдошлари ва тарбиячи билан мулоқотда “адаптация” си жуда секин ўтади бу эса болани ижтимоий компетенциясига халал беради, вақтида эътиборсизлик туфайли бола эркин нутқ ва мулоқотга кечикган бўлади шунинг учун ҳам мактабга борганда кисман болаларда “уятчанглик” дейилади аммо аслида мулоқотга кириша олмаслиги унга панд беради. Ёшлиқда олган билимни Абу Шукур Балхий шундай ифодалайди;

Ёшлик чоғида ўрганиш билан

Ақл ҳам идрок топишинг осон.

Хохлаган томонга эгиб қўяди

Ниҳоллигида дарахтни боғбон.

Қийшиғин ҳеч ким тўғрилай олмас,

Ниҳол улғайиб бўлганда йўғон.

Педагог нутқнинг бадий меёрларига мослиги асосий шартлардан бири хисобланади, аммо бу нутқ таъсирчанлигини оширишнинг муҳим шarti эмас. Педагог нутқини тўғри ва аниқ бўлиши билан бирга унинг образли ва ифодали бўлиши ҳам муҳимдир. Нутқ таъсирчанлигини оширишда мақоллардан, фразеологизмлардан, иборалардан ҳам фойдаланиш мумкин. Шунингдек бунда анафора, градация, инверсия, интонация каби стилистик усуллардан фойдаланиш орқали ҳам маълум бир самарадорликка эришиш мумкин. Педагог шароитга қараб нутқни тезлаштириши ёки

аксинча секинлаштириши керак. Сўзлаётганда хатти –харакатлардан фойдаланган холда тингловчи учун қандайдир яқинлик ва жалб қилувчи холатни ташкил этади. Сўзловчи хатти-харакати орқали сўзлаши ўзига нисбатан ишончни атрофдагилар учун уйғота олади. Баъзи нотиклар, сухандонларда хатти –ҳаракат орқали сўзлаш одат тусига айланган бўлса ҳам, психологлар фикрича бундай сўзлаш ўзига ишонч хиссини билдиради.

Хулоса: демак, нутқ техникаси ҳақидаги тушунчага ега бўлгач энди доимий машқ қилишга ўтиш керак. Нафас олишни бир маромига келтириш, таллафузнинг аниқ равшанлиги даражасини машқ қилиш, товуш органларини мустаҳкамлаш керак. Педагоглар орасида табиий равишда ижобий таъсир этадиган жарангдор, ёқимли товуш эгалари жуда кам учрайди. Яхши товуш йиллар ўтиши билан, махсус машқлар ёрдамида чиниқтириб борилмаса, ўзгариши мумкин. Шунингдек хар бир инсоннинг товуши махсус машқлар орқали чиниқтирилса кучли, ўзгарувчан ва жарангдор бўлиши мумкин. Тилнинг олийжаноб имкониятлари нутқ орқали очилади. Нутқ бўлмас экан, тилнинг чексиз имкониятлари юзага чиқмай қолаверади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Дейл Карнегининг “Ўз ўзига ишонч хосил қилиш ва омма олдида сўзлаш санъати”
2. Кайковуснинг “Қобуснома”
3. www.ziyounet.uz
4. www.pedagog.uz

Махмудов Юсуф Абдусаидович
ТТЕСИ. "Мехнат муҳофазаси ва экология" кафедраси доценти,
техника фанлари номзоди,
Махмудов Хусниддин Юсуф ўғли
ТТЕСИ магистир
(Ташкент, Ўзбекистан)

ЭКОЛОГИК РИСК ШАРОИТИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ РОЛИ ВА ЎРНИ

Аннотация. Ушбу мақолада инсон ҳаётига хавф соладиган турли экологик шароитида ўқувчиларнинг педагогик дунёқарашини шакллантириш зарурий ва долзарб масала эканлиги очиб берилган. Ўқувчиларга экологик билимлар бериш асосида шахс, жамият ва табиат бирлиги ҳамда алоқадорлигини тушунтириш орқали педагогик риск ҳисобланган экологик хатарларнинг олдини олиш мумкинлиги кўрсатилган.

Калит сўзлар: экологик дунёқараш, экологик маданият, маънавий-ахлоқий, эстетик, ҳуқуқий ва экологик билимлар, табиатга нисбатан эҳтиёткорона ва масъулият билан муносабатда бўлиш, табиатни асраш, ғамхўрлик қилиш.

Мамлакатимиз таълим тизимида амалга оширилаётган ислохотлар ўз самарасини бермоқда. Дарҳақиқат, таълим тизимидаги изчил ислохотлар ўқитиш сифати ва мазмунини юксалтириб қолмай, ўқувчиларда экологик дунёқараш, экологик маданиятни шакллантиришга ҳам хизмат қилади. Экологик дунёқараш табиат, ижтимоий жамият тафаккур ҳамда шахс фаолияти мазмунининг ривожланиб боришини белгилаб берувчи диалектик қарашлар ва эътиқодлар тизимидир. Унда ижтимоий-ғоявий, фалсафий табиий-илмий, маънавий-ахлоқий, эстетик, ҳуқуқий ва экологик билимлар негизида шаклланган эътиқодлар намоён бўлади. Педагогик риск шароитида экологик дунёқарашнинг ўрни ва роли юқори. Педагогик рискология, яни педагогнинг касбий фаолиятидаги муқаррар хатти-ҳаракат йўналишини тадқиқ этувчи унинг мазмун-моҳиятини ўрганувчи фандир. Педагогик рискология ижтимоий-иқтисодий ва психологик ҳодиса сифатида педагог фаолиятининг муқаррар танлов вазиятидаги хусусиятларини, унинг умумий қонуниятларини ўрланади. Мазкур фан педагогик фаолиятда учраши мумкин 176 бўлган ижтимоий риск тизимлари ва таълим бошқарувидаги ички низолар, зиддиятлар, қарама-қаршиликларнинг умумий жиҳатларини ўрганишга ва шу аснода ўқитувчининг инновацион касбий фаолиятини оқилона ташкил қилишга йўналганлиги билан алоҳида аҳамият касб этади. Хатарларни бошқаришнинг турли усуллари ва натижада хатарларни бошқариш асосида жамиятнинг вазиятдан чиқиш йўллари таклиф этилади:

1. Экологик (кенг манода) дунёқараш ва онга ўтиш.
2. Экологик таълим, таълим ва аҳолини хабардор қилиш, хусусан, хатарларни бошқариш бўйича институционализация ва хатарларни бошқариш бўйича мутахассисларни тайёрлаш.

3. Ижтимоий ва табиий бирлиқда олинган табиий ва ижтимоий ҳодисалар тўғрисида яхлит билим тизимини (биологик, экологик, тиббий, иктисодий, сиёсий, ижтимоий, фалсафий ва бошқалар) яратиш.

5. Ижтимоий кучларнинг глобал бирлашиши (давлатлараро тузилмалардан тортиб то оддий аҳолига қадар) глобал муаммоларни ҳал қилиш.

6. Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва атроф-муҳитни бошқариш органларининг мақбул тизимини шакллантириш.

7. Халқаро иқтисодий тартибни қайта қуриш.

8. Ортда қолган мамлакатлар ривожланишини жадаллаштириш.

9. Давлат экологик сиёстини ишлаб чиқиш ва изчил максимал даражада самарали амалга ошириш.

10. Янги технологияларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш (муқобил энергия манбаларига ўтиш – шамол энергияси ва бошқалар).

11. Хавф-хатарларга қарши қонун ҳужжатларини шакллантириш ва қўллаш, атроф-муҳитни бошқариш ва бошқалар. Экологик таълим ўқувчига аниқ мақсадга мувофиқ, изчил, тизимли ва узлуксиз равишда назарий экологик билимларни беришга йўналтирилган таълимий жараён. Экологик маданият ўқувчининг ижтимоий талабларга мувофиқ табиат ва атроф-муҳит муҳофазасини ташкил этиш қобилияти ҳисобланади. Экологик ва нафосат тарбиясининг воситалари ўқувчиларнинг гўзалликни севиш руҳида тарбиялаш мақсадида теварак-атрофдан танлаб олинган турмуш, табиат, санъат гўзаллиги ва болаларнинг бадиий фаолиятини ташкил этишга йўналтирилган педагогик жараёнда қўлланилувчи омиллар саналади. Ўқувчиларга экологик билимлар бериш асосида шахс, жамият ва табиат бирлиги ҳамда алоқадорлигини тушунтириш орқали педагогик риск ҳисобланган экологик хатарларнинг олдини олиш мумкин. Бу жараёнда ўқувчиларда табиатга нисбатан эҳтиёткорона ва масъулият билан муносабатда бўлиш, табиатни асраш тўғрисида ғамхўрлик қилиш туйғулари қарор топади, экологик маданият шаклланади. Ўзбекистон Республикасида табиат ва атроф-муҳит муҳофазасини ташкил этишга алоҳида аҳамият берилган. Ижтимоий-экологик ҳаракат ғояси “Ўзбекистон Республикасининг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш Миллий ҳаракат режаси”да ўз ифодасини топган. 1993 йилда ишлаб чиқилган “Оила, маҳалла, мактаб ҳамкорлиги” концепциясида тараққиётимизнинг маънавий-ахлоқий негизи, миллий ва инсоний қадриятлар уйғунлиги эътироф этилади. Экологик маданиятни тарғиб этиш маркази мактаб бўлишига эришиш таъкидланган. Оилада ташкил этилган меҳнат болаларни фаросатли бўлиш, ишни режали олиб бориш, вақтдан унумли фойдаланиш, тежамкор бўлиш, шунингдек, ўзгалар меҳнати, инсон меҳнатининг маҳсули бўлган неъматларни асраб-авайлашга ўргатади. Педагогик риск шароитида ўқувчиларда экологик дунёқараш ва экологик маданиятни шакллантириш давр талаби. Зеро, ўз Ватани фаравонлиги, шахрининг ободонлиги учун курашиш келажакда халқимизнинг иктисодий-маданий турмушини янада яхшилашга хизмат қилади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини 2017-21 йилларда янада ривожлантириш бўйича бешта уствор йўналишлар юзасидан “Ҳаракатлар стратегияси“ тўғрисида фармони, 1-илова.-Т.: Ўзбекистон, 2017 й.
2. Мирзиёев Ш.М.. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, НМИУ, 2017 й. 592-б.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият энгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008 й.
4. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон–ёхуд ахлоқ. – Т.: Ўзбекистон, 2012.
5. Zufarov Sh. Pedagogik innovatika. – Т.: Fan va texnologiya, 2013
6. Иномова Н.Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. – Т.: Фан, 1999.
7. Тохтаходжаева М.Х. Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм. Педагогика назарияси. – Тошкент: “Iqtisod-moliya”, 1996.
8. Ҳусайн Воиз Кошифий. Гўзал хулқ-одоби ва нотиклик.-Т.: Навруз. 2011 й.
9. Худойқулов Х.Ж. Жамиятда муомала ва мулоқот одобини шакллантиришда ота-она, ўқитувчи ва раҳбар масъуллиги. – Т.: Навруз. 2014.

УДК 373

Нуруллаев Феруз Файзуллаевич
научный руководитель, преподаватель кафедры дошкольного образования,
Икромова Нигина Аминовна
студент направления дошкольного образования
Бухарский государственный университет
(Бухара, Узбекистан)

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРНИ АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШ

Аннотация. *Ўзбек оиласининг ўзига хослиги шарқона одоб-ахлоқ, расм-русум, урф-одат, миллий қадриятлар, анъаналар, таълим-тарбия, маънавий етуқликка интилиш кабиларнинг барҳаётлигидир. Фарзандларимизни камолга етишига мактабгача таълим ташкилоти, мактаб ва оила ўзаро ҳамкорлиги муҳим саналади.*

Калит сўзлар: *ахлоқий тарбия, умуминсоний туйғу, фалсафий қараш, миллий қадрият, мақол, ривоят, ҳадис.*

Мактабгача таълим ёшидаги болаларни ахлоқий тарбиялаш мазмуни боланинг маънавий дунёсини тарбиялаш ҳамда ривожлантиришни тақозо этади. Қадимдан ота-боболаримиз болаларни умуминсоний туйғулар, фалсафий қарашлар, миллий қадриятларимиз руҳида тарбиялаш мақсадида маталлар, мақоллар, ривоят ва ҳадислардан фойдаланганлар. Ахлоқ-одобга доир ҳадислар ёш авлодни тарбиялашдек ишга катта ҳисса қўшади. Болаларга ахлоқ-одоб, ўзаро дўстона муносабатлар, қариндош, отаона ва фарзандларнинг ҳақ-ҳуқуқлари, меҳр-оқибат, ҳалоллик, поклик, адолат каби фазилатларни ва ҳасад, хиёнат, ёлгончилик, фитна-фасод, зулм каби иллатларни билиши ва уларга нисбатан ўз мустақил муносабатларини билдира олишлари лозим.

Мактабгача таълим ёшидаги болаларни ахлоқий тарбиялаш мазмуни боланинг маънавий дунёсини, унинг онгини, шахсий сифатлари ва хулқини тарбиялаш ҳамда ривожлантиришни тақозо этади. Болаларнинг ахлоқий тарбиясини ташкил этишда қуйидаги жиҳатларга алоҳида эътибор қаратиш лозим:

- турли ёш гуруҳлари учун содда ахлоқий тушунчалар ҳақида маълумот бериш;
- бола доимий равишда “нима яхши-ю, нима ёмон?” сўзининг маъносини англаб,

ўз фикрини содда баён этишга эътибор қаратиш керак бўлади

Бошланғич ва мактабгача ёшдаги болаларда меҳр-шафқат, меҳнатсеварлик, инсонпарварлик, дўстлик, масъулиятлилик каби маънавий-ахлоқий фазилатларни шакллантириш тарбиячининг бевосита машғулотдаги фаолиятдан бошланади. Маънавий-ахлоқий фазилатларни тарбиялашда биз ўзбек миллий педагогикасига муурожаат қиламиз.

Мактабга тайёрлов (6-7) ёшдаги болалар ўзининг психофизиологик жиҳатдан энг мураккаб давр ҳисобланади. Болакайлар биринчи марта ўзини онасидан ажрата бошлайди. Яъни “мен ўзим” ҳақиқий мотивацияга айланади. Бу даврда бола ўзини бутунлай мустақил шахс сифатида англайди. Бу тенгдошлари билан кечадиган эркин мулоқот давомида намоён бўлади. Эндиликда болалар ҳамкорликдаги фаолиятда

шахсий қарашларини ҳимоя қилиб, ҳаётий вазиятларда ахлоқий танловни амалга ошира оладилар. Жинсидан келиб чиқиб, унга мос бўлган юриш-туриш қоидаларини онгли тарзда бажарадилар. Мактабгача ахлоқий-иродавий тайёргарликнинг қарор топишида, шунингдек, тайёрлов гуруҳидаги бола шахсий хулқ атворидаги мустақиллик, уюшганлик, интизомлилик каби хусусиятлар аҳамиятлидир. Ахлоқий фазилатларни боланинг энг кичик ёшидан оилада, мактабгача тарбия муассасаларида шакллантириб бориш керак. Болалар шуурида энг яхши ахлоқий фазилатларни шакллантириш уларнинг жуда ёшлигидан бошланади. Дастлабки тарбиянинг пойдевори қанчалик мустаҳкам бўлса, боланинг дунёқараши, диди шунчалик ривожланади, камол топади. Болаларда миллий ғурур, инсон шаъни, инсонга меҳр-муҳаббат, одамийлик, тўғрилиқ, мардлик каби инсонпарварлик ғояларини шакллантиришда ҳадисларнинг ўрни беқиёсдир. Инсонпарварлик руҳида тарбиялаш, уларни юксак маънавият, маъданият ва мустақил фикрлаш ҳамда миллий онгни шакллантиради. Одоб-ахлоқ илмини ўқиш, ёзиш, кузатиш ва насиҳатлар эшитиш орқали амалга ошириш мумкин.

Мактабгача ёшдаги болалар ҳадисларни тинглашлари, келтирилган ҳадисларга мос суръатларни бўяш ва уларни ёд олиш орқали ўрганишлари мумкин. Ушбу маънода миллий тарбиямизни ўрганиш, ундаги панд-насиҳатлар, дурдона сўзлар, ҳикматли ва ибратли ҳикоялардан озиқланиб, маънавий жиҳатдан юксалиш мумкин. Айниқса бу бебаҳо меросдан таълим-тарбия жараёнида тўғри фойдалана олиш катта аҳамият касб этади. Ҳадислар ўзида ахлоқнинг асосий қирралари бўлган – бирдамлик (шахсий манфаатларнинг умумийликнинг юқори кўриниши сифатидаги ижтимоийликка бўйсундирилиши) ва инсонпарварлик (шахсга ўз-ўзича қадрият ва яқуний мақсад сифатида муносабатда бўлиш)ни мужассамлаштиради. Ахлоқий онгнинг ўзига хос тушунчалари сифатида яхшилик ва ёмонлик, бурч, виждон, шаън, қадр-қиммат каби ҳислатларни шакллантиришга хизмат қилади

Жамият томонидан инсонлар хулқининг бошқарилишига зарурат икки ўзаро боғлиқ вазифани шарт қилиб қўяди:

а) жамият онгида меъёрлар, тамойиллар, идеаллар, адолат, эзгулик ва ёвузлик каби тушунчалар кўринишида акс этадиган ва асосланадиган ахлоқий талабларни ишлаб чиқиш;

б) инсон ўз хатти-ҳаракатларини йўналтириши ва ҳаракатлантира олиши, шунингдек, ижтимоий хулқни бошқаришда иштирок эта олиши, яъни бошқа кишиларга талаб қўя билиши ва уларнинг хатти-ҳаракатларини йўналтириши ва назорат қила олиши, шунингдек, уларнинг хатти-ҳаракатларини баҳолай олиши учун бу талабларни ҳамда улар билан боғлиқ тасаввурларни ҳар бир инсон онгига сингдириш.

Айнан мана шу иккинчи вазифа инсонда шахснинг маънавий мойилликлар, ҳис-туйғулар, одатлар, барқарор ахлоқий сифатларни шакллантиришдан иборат бўлган ахлоқий тарбия орқали ҳал қилинади. Ахлоқ-одобга доир пурмаъно ҳадисларни болалар учун насиҳат сифатида ўқиб бериш ва уларни таҳлил қилиб, ёд олиш боланинг маънавий дунёсини онгини, ахлоқий ҳислатларини, шахсий сифат ва хулқини тарбиялаш учун хизмат қилади.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Эргашева Г.Б., Рахматова Г.Б. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе//Проблемы педагогики. № 1 (46). 2020. С. 26-28
12. Имомова Ш.М., Исмоилова М.Н. Численное решение смешанной задачи, поставленное на векторном волновом уравнении в области с углом//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. №10(79), 2020. С. 22-25.

УДК 373

Нуруллаев Феруз Файзуллаевич
научный руководитель, преподаватель кафедры дошкольного образования,
Икромова Нигина Аминовна
студент направления дошкольного образования
Бухарский государственный университет
(Бухара, Узбекистан)

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРДА ОИЛАГА НИСБАТАН ЎҚУМ МУНОСАБАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Аннотация. *Боланинг оилага нисбатан ҳурмат муносабати – унинг ёши ва индивидуал хусусиятларига кўра оиладаги ижтимоий муносабатларда шахсий ва ижтимоий мавқеи, аҳамиятликнинг ўзаро алоқадорлигини ифодаловчи нуқтаи назаридир. Оилага ҳурмат муносабатини шакллантириш бола ҳаётининг биринчи йилларидан бошланади.*

Калит сўзлар: *оила анъаналари, оилавий байрам, оилавий альбом, анъана.*

Дунёда мактабгача таълим тизимида болаларнинг оилага нисбатан ҳурмат муносабатини ривожлантириш жараёнини такомиллаштириш йўналишларини ишлаб чиқиш ва уни амалга ошириш услубиётини лойиҳалаштиришга доир кўп ишлар амалга оширилмоқда. Бунда оиланинг болалар ривожланишига йўналтирилган таълим-тарбия жараёнларини ташкил этишига алоҳида эътибор берилиб, мактабгача таълим ташкилоти тарбияланувчиларининг ёш ва психофизиологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда уларда оилага нисбатан ҳурмат муносабатларини шакллантириш муҳим аҳамият касб этади. Бундай ёндашув оила ва мактабгача таълим ташкилотининг педагогик ҳамкорлигини кенгайтириш масалаларига устуворлик беришни талаб этмоқда.

Мактабгача таълим муассасасида болаларнинг оилага нисбатан ҳурмат муносабатларини шакллантириш тамойиллари қуйидагилардан иборат:

- оила анъаналари, урф-одатларига бўлган қадриятли муносабат;
- педагогик-психологик қўллаб-қувватлаш;
- оилада бағрикенглик муҳитини яратиш;
- болаларга нисбатан ҳурмат ва талабчанликдан ўринли фойдаланиш;
- оилага нисбатан қадриятли муносабатни шакллантиришнинг императив асослари сифатида меҳнат кўникмаларини тарбиялаш.

Оилага нисбатан ҳурмат муносабатини шаклланганлик даражаси мезонлари: маънавий-ахлоқий тарбияланганлиги; оилага нисбатан онгли ҳурматнинг таркиб топганлиги; оилавий қадриятларга нисбатан аксиологик муносабатнинг қарор топганлиги; оилага нисбатан ҳиссий йўналганликнинг таркиб топганлигидан иборатдир.

Оила болалар мулоқоти ривожини барча кенгаювчи соҳалар (қариндошлик, ўқув, меҳнат, дам олиш ва бошқа муносабатлар)га йўналтиради; болаларга оилавий ҳаётдан сабоқ беради; ўқув ва меҳнат фаолияти, жамият олдидаги жавобгарлик, жамоатчилик ва ўзаро ёрдам бериш талабларига муносабатини шакллантиради; жамиятнинг дунёвий,

мафқуравий, ахлоқий, ҳуқуқий қадриятларига муносабатини белгилайди; умумий фуқаролик, таълим-тарбия ва меҳнат мажбуриятларини бажаришда раҳбарликни амалга оширади; характер, ижтимоий мазмун, ўзини баҳолаш ва танқид қилиш даражасини шакллантиради; бекор вақтни ўтказиш структураси ва мазмунини моделлаштиради; фаол ривожланиш босқичида турган ва мустақил қарор қабул қилиш кўникмасини ҳали тўла эгалламаган жамият аъзолари сифатида болалар устидан назоратни таъминлайди.

Оила жамоатчилик институти сифатида жамиятнинг пайдо бўлиш жараёнида вужудга келди. Оила тушунчасининг шаклланиши ва ривожланиши қадриятларни мустаҳкамлаш орқали аниқланиб, улар: оила аъзолари риоя қилувчи меъёрлар, ота-она ва болалар, таълим-тарбия, уларни амалга оширишдаги масъулиятлилик ва шу кабилар сифатида кўрсатилади. Мазкур қадриятлар ўзини тутта билиш қоидалари, жавобгарлик ҳис, эркак ва аёл каби субъектлар ўртасидаги вақт ўтиши даври билан маълум бир шаклни намоён этади. Ушбу қадриятлар оилада ҳуқуқ ва мажбуриятларни тақсимланиши ва тартиблаштиришга имкон беради. Жамият ривожининг даслабки босқичларида, бундай муносабатлар урф-одат (қабилла, уруф) сифатида ўзида ахлоқий қоидаларни намоён этиб, диний қоидаларга асосланиш орқали назорат қилинган. Бола ҳаётининг биринчи йиллариданоқ ўзлаштириши лозим бўлган оилага бўлган муносабати ҳар қандай инсон учун алоҳида аҳамиятга эга. Оиладаги муносабатлар жамиятдаги муносабатга асосланган ва фуқаролик хатти-ҳаракатларнинг асосини ташкил этади. Ушбу йўналишда болалар билан ишлаганда қуйидагилар катта аҳамиятга эга бўлади:

– оилавий байрамларни ташкиллаштириш. Оилавий байрамлар - болалар ҳаётидаги алоҳида кунларни, қувонч ва ҳиссий кўтаринкиликни ўз ичига олади, ҳар бир бола учун ёқимли совғаларни олишга ва дўстлар билан очик мулоқотга киришишга имкон беради. Оилавий байрамларни ўтказишдан мақсад - ота-оналарнинг болаларни байрамга имкони борича жалб қилиш зарурлигини тушунишларидир;

– оилавий альбом. “Менинг оилам” фотоальбомини яратиш. Бунда оиланинг шиори, ҳаёт қоидалари, альбомнинг шакли (китоб, глобус, гуллар ва бошқалар) жамоавий бўлиб танланади. Оила аъзоларининг ҳар бирига алоҳида фотосуратлар, савол-жавобларни жойлаштириш учун алоҳида саҳифа ажратилади;

– муайян оиланинг қадриятлар тизимини, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган анъаналарни тушунишнинг самарали воситаси бўлган оилавий музейларни яратиш. Бундай музейни ташкил этиш ҳақли равишда катталар (оила аъзолари, педагоглар) ва болаларнинг нафақат ўз оиласининг, балки бутун жамиятнинг маданий меросини ўрганиш ва ривожлантириш билан боғлиқ бўлган таълимий ва ижодий манфаатларини қондиришга қаратилган биргаликдаги фаолият шакли сифатида кўриб чиқиши мумкин. Оила музейи фаолиятининг принциплари: кўргазмалилик, ишончлилик, музей майдонидаги фаолиятнинг психологик қулайлиги ва хавфсизлиги, болалар боғчасида ва оилада таълим-тарбияни мувофиқлаштириш ва бошқалар.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, ушбу иш шакллари болаларни оиланинг ўрни, қариндошлик тизими ҳақида бошланғич, аммо элементар хабардор қилишга, уларнинг оила аъзоси сифатидаги ўрнини аниқлашга ҳамда мактабгача ёшдаги болаларда оила образини шакллантириш бўйича ўқитувчининг турли хил иш шакллари болалар ва ота-оналарнинг қизиқишларига қараб энг оптималини танлашга имкон беради.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1. Эргашева Г.Б., Рахматова Г.Б. Некоторые вопросы обеспечения взаимосвязи методов и средств обучения в учебном процессе//Проблемы педагогики. № 1 (46). 2020. С 26-28
2. Имомова Ш.М., Исмоилова М.Н. Численное решение смешанной задачи, поставленное на векторном волновом уравнении в области с углом//UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ. №10(79), 2020. С. 22-25.

Пармонов Алибой Эргашович,
ТТЕСИ, "Мехнат муҳофазаси ва экология" кафедраси доценти,
педагогика фанлари номзоди,
Авазбоев Атажан Исмаилович
Низомий номидаги ТДПУнинг "Профессонал таълим методикаси"
кафедраси доценти, педагогика фанлари номзоди
(Ташкент, Ўзбекистан)

ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ МАСОФАДАН ТУРИБ ЎҚИТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Аннотация. Ушбу мақолада ҳозирги бутунжаҳон пандемияси шароитида таълим жараёнида юзага келаётган кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини оширишнинг инновацион усулларини ишлаб чиқишга бағишланган.

Калит сўзлар. Пандемия, масофавий таълим, масофадан ўқитиш курсларини, малака ошириш, лойиҳа технологияси, модел.

Коронавирус пандемияси барча соҳалар сингари таълим тизимига ҳам ўз таъсирини ўтказди: боғча, мактаб ва олий таълим муассасалари оммавий равишда баъзан ёпилиши ёки ананавий таълимда ўзига хос таъсирлар намоён бўлди. UNESCO маълумотида кўра, бугун дунё бўйича 1,7 миллиард ўқувчи дарслар тўхтатилгани сабаб оффлайн ўқишдан маҳрум. Юздан ортиқ мамлакатда университетларнинг ёпилиши дунё талабаларининг 90 фоизини уйда ўтиришга мажбур қилди. Uzanalytics.com сайтининг ёзишича, Халқаро ташкилотлар, жумладан, ЮНЕСКО, Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (ИХТТ), ҳамда Жаҳон банки ушбу пандемияни ўрта, махсус ва олий таълимнинг форс-мажор вазиятларга тайёргарлигини текширувдан ўтказётган ҳолат деб баҳолашмоқда. Бунинг сабаби, жаҳондаги барча таълим муассасалари янги форматга ўтиб, оммавий тарзда масофали ўқитиш тажрибасини қўллашга мажбур бўлишди. Ўз ўрнида, бу қатор муаммоларни келтириб чиқарди.

- Биринчидан, интернет технологияларидан фойдаланиш учун ўқитувчи ва талабаларда рақамли саводхонликнинг етарли эмаслиги;
- иккинчидан, интернет тезлигининг пастлиги;
- учинчидан эса, баъзи мамлакатларда интернетга улаиш имкониятининг камлиги ёки аҳолининг аксарият қисми учун деярли йўқлиги;
- тўртинчидан, аксарият таълим олувчиларда масофавий ўқиш учун техник воситаларнинг (компьютер, ноутбук, гаджетларнинг) мавжуд эмаслиги.

Шубҳасиз, бундай ҳолат таълим сифатига салбий таъсир этмасдан қолмади, техник носозликлар ва бошқа омиллар ўқув жараёнида узилишларга олиб келди [2].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги "Педагог кадрларни тайёрлаш, халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-3289-сон қарориди "масофадан ўқитиш усуллари асосида халқ таълими муассасалари педагоглари учун ташкил этиладиган қайта тайёрлаш ва малака ошириш курсларининг

тегишли ўқувметодик ресурсларини ишлаб чиқиш, курслардаги ўқув машғулотларини онлайн ва офлайн шаклларида ташкил этишни янада такомиллаштириш; инновацион илмий ютуқларни, замонавий педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини қўллашни, масофадан ўқитишни, мустақил таълим олишни кенгайтиришни назарда тутувчи техника ва технологияларни таълим тизимига жорий этиш” масалаларига алоҳида эътибор қаратилган. Юқорида келтирилган бир қатор сабабларга кўра мактаб ўқитувчилари учун масофадан ўқитиш курсларини яратиш нақадар долзарб эканлиги яққол намен бўлмоқда.

Педагог кадрларни асосий иш фаолиятдан ажратмаган ҳолда, малакаларини оширишнинг янги педагогик тизмини ишлаб чиқиш ҳамда энг яхши таълим ресурслари ва технологияларидан тенг фойдаланишини имкониятини яратиш. Юқоридаги мақсаддан келиб чиққан ҳолда қуйидаги вазифалар бажариш лозим: - фанлар бўйича профессионал масофавий ўқув курсларини ишлаб чиқиш; - moodle платформасида ишлаш ва ўқув курсларидан фойдаланиш бўйича йўриқнома ишлаб чиқиш; - малака ошириш курсларининг янги минтақавий моделини ишлаб чиқиш; - малака оширишнинг махсулотга йўналтирилган тизимини ишлаб чиқиш; - ўқитувчилар ўзининг меҳнат фаолиятида дуч келадиган муаммолар асосида ўзўзини тарбиялаш ва ривожлантириш тизимини яратиш; - тадқиқот натижалари асосида ўқитувчилар компетенциясини технологик, аналитик ва прогностик ривожланишини кузатиш моделини яратиш; - олинган натижалар асосида ўқитувчиларнинг технологик ва таҳлилий-прогностик компетенцияларини оширишга бўлган мотивациялари тизимини шакллантириш керак. Шу билан бирга, мактабларимиз академик таълимга қаратилган совет меросига эга. Яъни, бизнинг ўқувчиларимиз ўртача Европадаги ўқувчиларидан, айтилиқ, АҚШ ўқувчиларидан кўра кўпроқ нарсани билишади. Шу билан бирга, улар ушбу академик билимларни ҳаётда қандай амалда қўллашни, билимларни бир фан соҳасидан бошқасига қандай ўтказишни билишмайди. Умуман олганда, ўртача ўзбек боласининг дунёқараши бир хил америкалик ёки европалик талабадан юқори бўлишини таъкидлайман. Аммо бу билимларни ҳаётда қўллаш, афсуски, нолга тенг. Чунки мактаб буни ўргатмайди. Ва савол шундаки, ўқитувчиларнинг ўзлари болаларга ҳаётга тайёр бўлишлари учун берадиган зарур кўникмаларга эгами? Асосий муаммо шундаки бизнинг ўқувчиларимиз жуда кўп билимга эга, лекин уларни ҳаётда қандай қўллаш кераклигини ўзлари ҳам билишмайди. Таълим жараёнида тингловчилар фаоллигини оширишда нафақат электрон таълим воситаларидан балки инновацион таълим технологияларидан фойдаланиш, таълимни амалий фаолият билан боғлаш, ҳаётий реалликка яқинлаштириш, реал вазиятли муаммоларни ҳал қилиш каби масалаларни кўриб чиқиш лозим. Шундай таълим технологияларидан бири бу лойиҳавий таълим технологияси хисобланади. Нега айнан лойиҳа? Лойиҳа – бу, ғояларни тасаввур оламидан реализм оламига олиб чиқадиган воситадир. Биз одатланган кўплаб бошқа жараёнлардан фарқли ўлароқ лойиҳа мuddати чекланган ва абадий давом эта олмайди. Унинг боши, ўртаси ва охири бор, ва бу чеклов уни реал ҳаёт билан боғлайдиган асосий омилдир [3]. Ўқув жараёнини ташкил этишда шахсга йўналтирилган таълимни қўллаш зарурлиги ҳақида гап кетганда, ўқув лойиҳасини талабаларнинг билим фаоллигини ошириш воситаси сифатида қараш керак. Лойиҳани ижодий ва интеллектуал фаолият сифатида кхриб чиқсак, ундаги қуйидаги

асосий таркибий қисмларни ажратиб кўрсатишимиз мумкин: - генерация; - таҳлил ва тадқиқотлар; - лойиҳа алтернативалари ва ечимларининг комбинацияси [3]. Бундай ҳаракатларнинг натижаси ишлаб чиқилган, тадқиқ қилинган ва асосланган ғоялардир. Шунинг учун, лойиҳани ноаниқлик шароитида қарорларни доимий равишда қабул қилиш жараёни деб тушуниш керак.

Юқорида келтирилган фаолият турларини амалга оширишда индивидуал ишлаш жараёнида эмас, биргаликда гуруҳ бўлиб ишлаш жараёнида амалга ошириш мумкин. Бундай ҳаракатларнинг натижаси олдиндан ишлаб чиқилган, тадқиқ қилинган ва асосланган ғоялар ҳисобланади. Лойиҳавий таълим қуйидаги долзарб таълим муаммоларини ҳал этиш имконини беради ва давр талабига мос келади: • таълимни реал ҳаётга юқори даражада яқинлаштирилган вазиятда амалга оширишни таъминлайди; • назарий маълумотларни амалий фаолият билан боғлаш ва талабаларни фаол мустақил билиш жараёнига жалб этиш имконини беради; • касбий ва таянч лаёқатларини шакллантириш ва ривожлантиришни таъминлайди. Хулоса қилиш мумкинки, ўқув лойиҳалари технологиясидан фойдаланиш таълим босқичида ўқув жараёнидаги муаммоли вазият ва "лоийҳалаш" атамасидаги бир қатор асосий тушунчалар ўртасида аниқ боғлиқликни шакллантиришга имкон беради. Маълумки, кўникмалар берилмайди, улар ривожлантирилади, ammo интерфаол ўқитиш методлари, фаолиятни ташкил қилиш ва янги мулоқот тажрибасини тўплаш усулларни узатиш имконини беради. Ушбу шаклда ўқитиш назариядан амалиётга эмас, балки янги тажрибани шакллантириб, уни қўллаш орқали муаммонинг назарий тушунчаларини англаб етишга олиб боради. Бундай таълим олган ҳозирги кун педагоги эса ўз билим ва малакаларини қўллаш олиш кўникмасига эга бўлади. Ўқитувчилар учун яратилаётган масофавий ўқув курслари нафақат билимларни оширишга, балки уларни амалиётда қўллаш олишга қаратилган бир нечта кичик лойиҳа (мини проект)лар билан бойитилиши керак.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, қайси мамлакатда ёки қайси ҳудудларда бўлмасин таълим тизимида масофадан туриб ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари мавжуд, уни таълим муассаси ва уни ташкил этиш органлари томонидан қандай бошқаришларига ва у ердаги инсонларнинг масъулиятлигига боғлиқдир.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

